



U.S. SHERMATOVA

TARIXIY, ADABIY-BADIIY MANBALARDA VATAN TIMSOLI

Monografiya



ISBN 978-9943-7804-0-8




**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

U.S. SHERMATOVA

**TARIXIY, ADABIY-BADIIY
MANBALARDA VATAN TIMSOLI**



**“Nodirabegim” nashriyoti
Toshkent – 2021**

KBK: 84(5Ў36), 74

Sh 48

UO‘K: 37.035:821.512.133

ISBN 978-9943-7804-0-8

Shermatova, Umida Sapayevna.

Tarixiy, adabiy-badiiy manbalarda vatan timsoli [Matn]: monografiya / U.S. Shermatova. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 132 b.

Monografiyada o‘quvchilarning vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda Cho‘lpon ijodi bilan bog‘liq tarixiy, adabiy-badiiy manbalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari tadqiq etilgan. Ma‘lumki, pedagogikada komil inson va uning fazilatlarini tarkib toptirishda vatanparvarlik tarbiyasi alohida ahamiyatga ega. Binobarin, Cho‘lpon hayoti va ijodiy faoliyati mobaynida bu mavzuga katta ahamiyat qaratgan. Shuning uchun ham uning asarlarida Vatan timsoli va vatanparvarlik tuyg‘usi qizil chiziq bo‘lib o‘tgan. Monografiyada mazkur masala tizimli ravishda tahlil etilgan.

Monografiya pedagogika ilmi tadqiqotchilari, adabiyotshunos olimlar, pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalari hamda Cho‘lpon ijodi bilan shug‘ullanuvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

R.X. Niyozmetova – pedagogika fanlari doktori, professor.

T.Sobitova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Ushbu monografiya Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Kengashining 2021-yil 30-noyabrdagi 6-sonli yig‘ilish qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

© **Shermatova U.S.**

© **“Nodirabegim” nashriyoti, 2021.**

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida shaxs ravnaqi, ma‘naviy kamoloti va inson kapitali bilan bog‘liq vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratilishi uzluksiz ta‘lim tizimi zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Mazkur farmonda qayd etilgan “...mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat‘iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash”¹ vazifasini bajarishda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ulkan ma‘naviy boylik – tarixiy, adabiy-badiiy manbalarni o‘rganish va bu jarayonga o‘quvchilarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning Vatanga sodiq shaxs sifatida shakllanishi indikatorlarini aniqlash yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish bu boradagi izlanishlarning natijaviyligini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Jahon ta‘lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim-tarbiya jarayonining muhim elementlaridan biri bo‘lgan murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatidagi o‘quvchilarning vatanparvarlik ko‘nikmalarini shakllantirishning ta‘limiy jihatlari xorijiy va mustaqil hamdo‘stlik mamlakatlarining A.G.Agnaev, Ye.A.Bagramov, M.S.Djunusov, V.A.Suxomlinskiy, V.S. Chudniy, Ya.A.Gumayev, tarbiyaviy jihatlari L.A.Bublik, V.N. Gerasimov, Ye.V.Saxarov,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil 6-son, 70-modda.

S.L.Rikov kabi tarixchi, faylasuf, pedagog va adabiyotshunos olimlari tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistonda umumta'lim maktablari o'quvchilarining vatanparvarlik bilan bog'liq ko'nikma-malakalarini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-falsafiy asoslari J.Tulenov, E.Yusupov, H.Boboyev, B.Qodirov, A.Aliyev, T.Mahmudov, M.Eshmuhamedovalar, ilmiy-pedagogik asoslari O.Musurmonova, M.Quronov, Sh.Qurbonov, J.Hasanboyev, M.Inomova, S.Nishonova, N.Ortiqov, U.Mahkamov, S.Ochilov, J.Yo'ldoshev, B.Ziyomuhamedovlar tomonidan tadqiq qilingan. Ammo Cho'lpon ijodi misolida o'zbek adabiyoti tarixining muhim qismi bo'lgan milliy uyg'onish davri adabiyotida vatanparvarlik tarbiyasining ilmiy-pedagogik jihatdan yoritilishi yetarli darajada o'rganilmagan. Holbuki, Vatan timsoli va uning ravnaqiga xizmat qilish, shu asosda barkamol shaxsni tarbiyalash o'sha davr adabiyotida "Yo hayot, yo mamot" tarzida kun tartibiga keskin qo'yilgan edi. Zero, jadid adabiyotining bosh g'oyasi ham vatanga, millat ravnaqiga o'z jonini tikib bo'lsa-da, xizmat qilishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Ilmiy manbalar tahlili milliy uyg'onish davri adabiyotining buyuk namoyandasi Cho'lpon ijodi bilan bog'liq tarixiy, adabiy-badiiy manbalar vositasida umumta'lim maktablaridagi adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish alohida tadqiqot muammosi sifatida o'rganilmaganligini ko'rsatdi.

Monografiyada umumta'lim maktablari o'quvchilarida Cho'lpon ijodi va u bilan bog'liq tarixiy, adabiy-badiiy manbalar asosida vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirishning ilmiy-pedagogik asoslari atroflicha tadqiq etildi.

Mazkur ishimizda asosiy manbalar sifatida Cho'lponning hozirgacha nashr etilgan barcha badiiy va ilmiy-ma'rifiy asarlari hamda XIX asr oxiri va XX asr boshlari ijtimoiy hayoti yoritilgan tarixiy, adabiy-badiiy manbalarga murojaat etildi va quyidagilarga alohida e'tibor qaratildi:

Cho'lpon ijodi misolida o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari, shart-sharoitlari va xususiyatlarini aniqlashtirish;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida vatanparvarlik tarbiyasi orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini takomillashtirish;

vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'liq adabiy ta'lim va ma'naviy-axloqiy tarbiya integratsiyasi mezonlarini takomillashtirish;

adabiy-tarixiy manbalar asosida o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish texnologiyalarining didaktik ta'minotini takomillashtirish.

O'quvchilarning vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirishda Cho'lpon ijodi asosini tashkil etgan Vatan timsolining o'ziga xos o'rni bor. Biroq shu vaqtgacha bu masala maxsus tadqiqot doirasida keng ko'lamda tahlil etilgan emas. Monografiyada, avvalo, ushbu masala ilk bor bir butun tarzda tadqiq etilib, quyidagilarga asosiy e'tibor qaratilgan:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiy ta'lim va ma'naviy-axloqiy tarbiya integratsiyasi asosida vatanparvarlik tarbiyasi pedagogik muammo sifatida o'rganilib, metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mavzuga oid ilmiy-nazariy, falsafiy, tarixiy, adabiy-badiiy, pedagogik-psixologik manbalarni o'rganish asosida o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish modeli yaratilgan;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot fanini mavzulararo integratsiyalab o'qitish shart-sharoitlari tarixiy, adabiy-badiiy manbalarni o'rganish misolida aniqlangan;

o'quvchi shaxsini shakllantirishda adabiy ta'lim va ma'naviy-axloqiy tarbiya integratsiyasini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

I BOB. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TARIXIY, ADABIY-BADIIY MANBALAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ILMIIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

1.1-§. Tarixiy, adabiy-badiiy manbalarda vatanparvarlik tarbiyasi – pedagogik muammo sifatida

O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot modelida mamlakat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlari, tamoyillari: umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, milliy qadriyatlarni o'rganish va rivojlantirish, har bir shaxsning har tomonlama shakllanishiga shart-sharoit yaratish, yuksak bilimli va intellektual rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning muhim sharti sifatida uzluksiz ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasini ilmiy-metodik jihatdan ijtimoiy-ta'limiy muammo tarzida o'rganishni taqozo etadi.

Ilmiy adabiyotlarda “vatanparvarlik” tushunchasiga turlicha ta'rif berilgan bo'lsa-da, ularni Vatan muhabbati, Vatan sog'inchi g'oyasi birlashtirib turadi. Jumladan, mazkur tushuncha “Filosofiya lug'ati”da falsafiy nuqtai nazardan quyidagicha izohlanadi: “Vatanparvarlik (grek. rattris – vatan) – axloqiy va siyosiy printsip, sotsial his-tuyg'u; bu his-tuyg'uning mazmuni – vatanga mehr-muhabbat bog'lash, unga sodiq bo'lishdan, uning o'tmishi va hoziri uchun faxrlanishdan, vatan manfaatlarini himoya qilishga intilishdan iborat. Tarixan vatanparvarlik elementlari tug'ilgan yerga, tilga, an'analarga mehr qo'yish shaklida qadim zamondayoq shakllanadi”².

“Pedagogika” entsiklopediyasida ayni tushunchaga pedagogik nuqtai nazardan kengroq miqyosda yondashiladi: “Vatanparvarlik (yunoncha patriotes – vatandosh, rattris - vatan) – tug'ilib o'sgan yurt, vatanga muhabbat, sadoqat, o'z xatti-harakatlari bilan uning ravnaqi uchun xizmat qilish, Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh

² Философия луғати. –Тошкент.: Ўзбекистон. 1976, 84-бет.

etishni ifoda etadigan ijtimoiy hamda ma'naviy-axloqiy xislatlari, fazilatini anglatadigan atama. Vatanparvarlik ko'p ma'noli so'z bo'lib, tarixiy, ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, yangicha ma'no-mazmun bilan boyib, rivojlanib boradi.

Vatan manfaati, qadr-qimmat, taqdiri, istiqboli, ona yurtga muhabbat tuyg'usi qanchalik chuqur anglansa, vatanparvarlik tuyg'usi shuncha yuksak bo'ladi. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyotning turli bosqichlarida vatanparvarlikning yangi-yangi qirralari namoyon bo'ladi. Haqiqiy vatanparvarlik Vatanga, ona zaminga, o'z xalqiga muhabbat bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo'lida tinimsiz mehnat qilish hamda kurashish zarurati tug'ilganda jonini fido qilishni nazarda tutadi"³.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da vatanparvarlik atamasining lug'aviy ma'nosi quyidagicha izohlanadi: “vatanparvar (vatan + f.parvar – g'amxo'rlik qiluvchi) o'z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko'rsatuvchi”; “vatanparvarlik – vatanparvarlarga xos ish, xatti-harakat, xislat”⁴.

“Vatanparvarlik, - deb yozadi taniqli pedagog O.To'raeva, - insonning o'z milliy an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shish, uning haqiqiy jonkuyari bo'lishdir. Vatanparvarlik – ona-Vatan oldidagi mas'uliyat, millat manfaati bilan yashash, vatan taraqqiyoti, millat obro'siga obro' qo'shish, unga foyda keltirish, fidoyilik, halollik bilan mehnat qilish, xalqning shon-shuhrati va manfaatini o'ylash, insonparvar bo'lish demakdir”⁵. Vatanparvarlik indikatorlari sifatida talqin qilinishi mumkin bo'lgan insonning o'z milliy an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash, vatan taraqqiyotini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shish, uning haqiqiy jonkuyari bo'lish, ona-Vatan oldidagi mas'uliyat, millat manfaati bilan yashash, vatan taraqqiyoti, millat obro'siga obro' qo'shish, unga foyda keltirish, fidoyilik, halollik bilan mehnat

³ Педагогика. Энциклопедия. 3 жилдлик, 1-жилд. –Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2015.-188-бет.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати.5 томлик,1-том. –Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2015.-445-бет.

⁵ Тўраева О. Ҳаёт сабоқлари. –Тошкент.: Ўзбекистон, 2005.- 34-бет.

qilish, xalqning shon-shuhrati va manfaatini o‘ylash, insonparvar bo‘lish kabi fazilatlarning mujassami ham vatanparvarlik tushunchasining keng qamrovli ekanligining yorqin dalilidir.

“Vatandan uzoqda yashagan har bir odam qalbida kemptik yeri bo‘ladi, - deb yozadi Muhammad Ali. – Bu – Vatan sog‘inchi. Inson, menimcha, o‘zini to‘laqonli baxtliman deyishi uchun darajai kamolga yetishidan tashqari, ona tuproqda yashashi, ona tuproq mehridan bahramand bo‘lishi, ona tuproqqa o‘zini fido qila olishi kerak”⁶. Yozuvchi tomonidan vatanparvarlik tushunchasining dunyoviyay ahamiyatiga e’tibor qaratiladi. Vatanparvarlik Vatan ichida yashash bilan chegaralanmaydi, balki vatandan tashqarida ham vatan sog‘inchi bilan yashash misolida vatan tuyg‘usining dunyoviy ahamiyatini tushuntirish, his qilish orqali kuzatish mumkin.

“Inson o‘z kindik qoni to‘kilgan, tug‘ilib o‘sgan diyorini Vatan deydi, ammo har bir inson bu tushunchaga o‘z ma’naviy kamolot darajasiga ko‘ra qamrov beradi... Eng muhimi, Vatan tushunchasi ma’naviy munosabatni bildiradi, ya’ni u ma’naviy qadriyatdir”⁷.

Ko‘rinadiki, Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat va sadoqat tuyg‘usi xalqning dillardan dillarga, avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan boqiy ezgu niyatlari, orzu-umidlarini o‘zida mujassam etadi. Shuning uchun ham Vatan taqdirini xalq taqdiridan ayricha tushunib bo‘lmaydi. Alalxusus, Vatan taqdirini xalq taqdirining umumlashma in’ikosi deb baholash mumkin. Badiiy asarlarda bu uyg‘un tushunchalarning tub mohiyati asrlar davomida yuksak badiiy obrazlarda ijtimoiy ma’no kasb etadi, avj pardalarda kuylab kelinadi. Badiiy adabiyot, shu jumladan, xalq og‘zaki ijodi xalq hayotining solnomasi ekanligi nazarda tutilsa, uning markazida Vatan tarixi, Vatan timsoli turganligini ko‘rish mumkin.


Yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalardan kelib chiqib aytish joizki, **vatanparvarlik – bu, o‘z shaxsiy manfaatlarini Vatan va unda istiqomat qiluvchi xalq manfaatlari bilan uyg‘unlikda ko‘ra olish, Vatan ravnaqi yo‘lida kamarbasta bo‘lish, Vatan istiqboli uchun kerak bo‘lsa o‘z jonini tikishdir.**

⁶ Муҳаммад Али. Адабий соғинчлар. –Тошкент.: Адабиёт жамғармаси, 2005. 4-бет.

⁷ Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. –Тошкент.: “Шарқ”, 1998. - 64-бет.

O‘rta maktab o‘quvchisida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda ma’naviy merosimiz – tarixiy, adabiy-badiiy manbalar bilan tanishtirish vositasida O‘zbekiston mustaqilligi davrida erishilgan yutuqlar, uning o‘tmishi va kelajagi, boy madaniyati, ma’naviyati, ilmiy salohiyati haqida keng tasavvur hosil qilish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchi shaxsida halollik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, adolatpeshalik bilan bog‘liq komil inson fazilatlarini tarkib toptirish pedagogikaning vatanparvarlik tarbiyasi negizida turadi.

“Pedagogika entsiklopediyasi”⁸da vatanparvarlik tushunchasining 3 yo‘nalishda namoyon bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan: 1) bilish – Vatan tushunchasiga xos qadriyatlarni egallash; 2) e‘tiqod – qadriyatlar sohasida o‘zlashtirilgan bilimlarni e‘tiqodga aylantirish; 3) harakat – o‘z e‘tiqodini amaliy faoliyati orqali namoyon qilish. Mazkur uch yo‘nalish bevosita o‘quvchilarning vatanparvarlik tarbiyasiga tegishli ekanligi bilan ahamiyatli bo‘lib, buni quyidagicha aks ettirish mumkin (1.1-rasmga qarang).



1.1-rasm. “Vatanparvarlik” tushunchasi tarkibi va yo‘nalishlari

Shu ma’noda Vatan tarixi, vatanparvarlik, xalq tarixi bir-biridan ayro tushunchalar emas. Ularning biri ikkinchisini to‘ldirib, boyitib keladi. Xalq qo‘shiqlari, maqol va dostonlar, rivoyat va afsonalar, o‘tmish zamonlardan o‘lmas yodgorlik bo‘lib kelayotgan, xarobaga aylangan qadimiy qal‘alarimiz qatiga yashirin Vatan timsoli yosh

⁸ Педагогика. Энциклопедия, 1-жилд. –Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2015.-188-бет.

avlodni ona-Vatanimizning shon-shuxrati, gullab yashnashi yo'lida ezgu niyatlar sari olg'a boshlaydi. Vatanimizning mustaqilligi yillarida tarixiy taraqqiyot bosqichlarida qo'lga kiritilgan yutuq va g'alabalarimizni mustahkamlash hamda zarur bo'lsa, himoya qilish kelgusi avlodlar zimmasiga tushadi.

Shunday ekan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta'lim-tarbiya tizimi oldida hamisha dolzarb vazifa bo'lib turishi tabiiy holdir.

Ta'bir joiz bo'lsa, Vatanga muhabbat tuyg'usi insonga qon bilan kiradi, oilada va maktabgacha ta'lim muassasalarida shakllana boshlaydi, uzluksiz ta'lim tizimining keyingi bosqichlarida kamol topa boradi, mustaqil hayotiy faoliyati davomida mustahkamlanadi.

Buyuk Boburshohning "O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim, Yorab, netayin ne yuz qarolig' bo'ldi" degan tavallosida Vatandan judolikni "yuz qarolig'" deb afg'on chekishidan, Furqatning vatandan yiroqda "Adashgan it kibi Furqat, qayon borgum bilolmasman" deya nola qilishidan yoxud Abdulla Oripovning ona yurtga oid qalb tug'yonlarini "O'zbekiston – Vatanim manim", "Men nechun sevaman O'zbekistonni" deya jo'shib-toshib kuylashidan Vatan timsoli insonning qalbu shuuri, es-hushiga jon qadar va bitmas-tuganmas ma'naviy-ruhiy oziq berishini sezish qiyin emas. Aslida To'maris va Shiroq, Muqanna va Spitamen, Najmiddin Kubro va Jaloliddin Manguberdi, Dukchi eshonlarni hayot-mamot jangiga otlantirgan, aziz boshlari kundaga qo'yilishi aniq bo'lsa-da, o'z e'tiqodiga xiyonat qilmagan Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon va Abdulla Qodiriylar irodasining bukilmaligi – Vatan muhabbatini aziz jonlaridan ham a'lo ko'rgani – vatanparvarlik tarbiyasining shaxs ma'naviy kamolotida yuksak maqomda turishini ko'rsatadi.

Ma'lumki, har bir jamiyat o'zidan keyingi jamiyatga jamiki boyliklarini meros qilib qoldiradi. Ammo yangi jamiyat mazkur boyliklarni qanday bo'lsa, shundayligicha meros qilib olavermaydi. Balki yangi sharoitga va o'z manfaatlariga mos tushadigan boyliklargagina ega bo'ladi. Ularning ichida hech bir mezonga to'g'ri kelmaydigan va baholab bo'lmaydigan bir boylik borki, u kindik qoni tomgan yurt, inson ko'z ochib ko'rgan ma'vo –

VATAN deb ulug‘lanadi. Insonning jamiki orzu-armonlari Vatani bag‘rida kamol topadi, yuksak pog‘onalarga ko‘tariladi.

“A.S.Pushkin, - deb yozgan edi V.G.Belinskiy, - abadiy yashaydigan va doim harakatda bo‘ladigan, o‘limga qaysi nuqtada uchragan bo‘lsa, o‘sha nuqtada qotib qolmaydigan, balki jamiyatning ongida o‘tib boraveradigan hodisalar jumlasidandir. Har bir davr ular haqida o‘z hukmini chiqaradi va bu davr o‘sha hodisalarni qanchalik to‘g‘ri anglamasin, hamma vaqt o‘zidan keyingi davr uchun ular haqida qandaydir yangiroq va ancha to‘g‘riroq fikr bayon qilishga o‘rin qoldiradi”⁹.

Ayni mulohazalar qaysidir ma’noda vatan tushunchasiga ham daxldordir. Jumladan, o‘tgan asrning boshlaridagi jadidchilik davridagi vatan tushunchasi bilan sovet davridagi vatanga bo‘lgan munosabat, yoxud sovet davridagi vatan tushunchasi bilan istiqloлга erishganimizdan keyingi davrdagi vatanga munosabat o‘rtasida o‘ziga xos tafovut bo‘lganligi ayon haqiqatdir.

Binobarin, milliy uyg‘onish davrida vatanparvarlik Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat, Hoji Muin, Cho‘lponlar ijodida da‘vatkorlik, mushohadakorlik, jangovarlik, kurashchanlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan bo‘lsa, mustaqillik davri adabiyotida shukronalik, mas’uliyat, kelajakka ishonch, faxr va g‘urur tuyg‘ulari bilan to‘yintirilganini kuzatish mumkin. Masalan, Fitrat “Yurt qayg‘usi” she’rida milliy-ozodlikka bo‘lgan qarashlarini Vatanga bo‘lgan teran hissiy kechinmalari orqali ifodalaydi.

“Ey, ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi! – deb murojaat qiladi u. – Senga ne bo‘ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding? Ey chingizlarning, temurlarning, o‘g‘uzlarning, otillarning shonli beshiklari!

Dunyoni “urho”lari bilan titratgan yo‘lbars yurakli bolalaring qani? Yer tuprog‘ini ko‘klarga uchiraturg‘an tog‘ g‘avdali o‘g‘lonlaring qani? Nechun tovushlari chiqmaydir? Nechun-nechun? Gapur menga, ey, Ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi! Senga ne bo‘ldi!..

Hindistonning, Eronning, Ovro‘poning ulug‘ hoqonlarini sen yubormadingmi? Ey hoqonlar o‘chog‘i! Ey qahramonlar tug‘oyi. Yo‘q-yo‘q! Sen kuchsiz emassan, sen kimsasiz emassan! Bugun yer

⁹ Белинский В.Г. Собр.соч. в трёх томах, том 2.-Москва.: Просвещение, 1948.- С.158.

yuzida sakson million bolang bor. Bularning kuchlari sening kuchingdir!

Ey, Ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi! Qayg‘urma! Eski davlating, eski saltanating, eski yigitlaring, eski arslonlaring hammasi bor, hech yo‘qolmamishdir.

Ey, oh, yolg‘iz, tarqalmamishdir”¹⁰.

Undan farqli o‘laroq, Erkin Vohidovning quyidagi fikri mustaqillik davri vatanparvarligining yorqin dalildir.

“Biz yo‘qotgan qadrini qayta topayotgan xalqmiz. Masjidlarimiz, muqaddas kitoblarimiz, unutilgan bayramlarimiz, udumlarimiz, odatlarimiz qaytib kelayotgan bir zamonda, o‘z ona tilimiz, tariximiz, madaniyatimiz munosib o‘rinni topayotgan bir davrda o‘zbekman degan har bir inson o‘z yurti kechmishini va hozirini mukammal bilmog‘i... lozim”¹¹.

Jahonning rivojlangan davlatlari tarixidan ma’lumki, vatan ravnaqi, yurt obodligi, xalqning ma’naviy-ruhiy jihatdan yuksalishi g‘oyibdan o‘z-o‘zidan keladigan yoxud o‘zga kuchlar ta’sirida bo‘lmay, balki o‘zi tug‘ilib o‘sgan zaminni vatan tutgan xalqning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ruhiy, ma’rifiy-tarbiyaviy kamoloti, intellektual salohiyati, demakki, inson omili bilan chambarchas bog‘liq. Shunday ekan, onalarning allasidan – oiladan boshlangan vatan va vatanparvarlik tarbiyasi uzluksiz ta’lim tizimida shakllanadi, kamolga yetadi va inson umrining oxirigacha davom etadi. Zero, yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalash – davlat siyosati bilan bog‘liq zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Birinchi sinflarning savod o‘rgatish davridan boshlangan vatanparvarlik tarbiyasi “O‘qish kitobi” darsliklarida “O‘zbekiston – vatanim manim” mavzusida keltirilgan badiiy asarlar orqali davom ettiriladi, yuqori sinflarda esa “Vatan tuyg‘usi” darslarida yangi bosqichga ko‘tariladi.

Ta’lim-tarbiya tizimida vatanparvarlik tarbiyasining dolzarbligi va zarurati “Ta’lim to‘g‘risida”gi davlat qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda tegishli vazirliklarning mazkur mavzuga daxldor huquqiy-me’yoriy hujjatlarida ham o‘zining chuqur aksini topgan.

¹⁰ Фитрат А. Танланган асарлар. –Тошкент.: “Маънавият”, 2000. -34-бет.

¹¹ Маънолар маҳзани. –Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.- 7- бет.

Tarbiyaviy ishlar doirasidagi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda vatanparvarlik tushunchasiga oid talqinlar turlicha bo‘lib, buning sababi, bir tomondan, mualliflarning mavzuga turli jihatdan yondashuvi namunasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, jamiyat taraqqiyotida mazkur tushunchaga bo‘lgan munosabatning turlichaligidir.

Vatan va vatanparvarlik tarbiyasiga doir pedagogik muammoga oid izlanishlar takomilini o‘lka xalqlarining ijtimoiy, madaniy hayotiga oid ta’limiy, adabiy-badiiy manbalarga bog‘liq holda tarixiylik nuqtai nazaridan quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. O‘lka xalqlari madaniy-ma’rifiy hayotining ilk davriga oid vatanparvarlik qarashlari.

U O‘rxun-Enasoy toshbitiklari, “Avesto” hamda Gerodot, Polien kabi yunon tarixchilari asarlari orqali bizgacha yetib kelgan “Shiroq”, “To‘maris” afsonalari, shuningdek, turli tarixiy, adabiy manbalar qatida keltirilgan “Guldursin”, “Tuproq qal’a” kabi afsonalar, miflar, ertaklar, xalq qo‘shiqlari, “Alpomish”, “Manas” kabi tarixiy qahramonlik dostonlarining g‘oyaviy-tarbiyaviy mohiyatini aks ettiradi.

2. Islom dinining O‘rta Osiyo hududiga kirib kelishi va ommalashishi davri (VIII-XIII asrlar)dagi vatanparvarlikka doir qarashlar.

U imom Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Umar az-Zamaxshariy, Mahmud Qoshg‘ariy. Najmiddin Kubro asarlarining umumiy mohiyatida aks etadi.

3. Amir Temur va temuriylar davri (XIV-XV asrlar)dagi vatanparvarlikka doir qarashlar.

U Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari mohiyatida aks etadi.

4. XVI asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda o‘lkadagi feodal tarqoqligi bilan bog‘liq ijtimoiy hayot, madaniyat va ta’lim-tarbiyaga oid qarashlar.

U Mashrab, Gulxaniy, Munis Xorazmiy, Ogahiy, Berdaq, Maxtumquli asarlari mohiyatida aks etadi.

5. XIX asrning ikkinchi yarmidan 1917-yilgacha bo‘lgan: a) Chor istibdodi davri; b) sho‘rolar saltanati davridagi ijtimoiy hayot, madaniyat va ta’lim-tarbiyaga oid ziddiyatli qarashlar.

U Furqat, Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, shuningdek, so‘nggi davrda G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Odil Yoqubov asarlari mohiyatida aks etadi.

6. Mustaqillik davridagi ijtimoiy hayotdagi yangilanishlar bilan bog‘liq madaniy-ma’rifiy va ta’limiy-tarbiyaiy qarashlar.

Ushbu davrlashtirish nisbiy bo‘lib, o‘zida davlatchiligimiz tarixi emas, balki o‘lkadagi vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog‘liq ijtimoiy-tarixiy, ma’naviy-ma’rifiy tafakkurning shakllanishi va rivojining badiiy-estetik talqini nazarda tutilishi bilan xarakterlanadi. Negaki, hayot va jamiyatdagi barcha o‘zgarishlarning asosi inson tafakkurida aks etadi.

Ma’lumki, har bir jamiyat mafkurasi va tafakkurida o‘sha jamiyat muammosi zuhur topadi. Shunga muvofiq xalqning ruhiyat bilan bog‘liq hayotga qarash tarzi ham o‘zgaradi. “Yetmish yil davomida ma’naviyat, milliy axloq asosi bo‘lgan dinidan, o‘tmishida o‘zining kim bo‘lganini namoyish qilish qudratiga ega bo‘lgan tarixi, milliy qadriyatlaridan mahrum bo‘lgan xalq istiqloldan so‘ng bunga muyassar bo‘lgach, unda o‘zidan, o‘z millatidan g‘ururlanish tuyg‘usi yuzaga keldi. Chunki u ruhsizlikdan qutuldi, ruhi ozod, hur bo‘ldi. Ruhi hur odamning yuragi botir bo‘ladi. U hamma narsani yorqin ko‘radi, mohiyatini to‘g‘ri anglaydi”¹².

Yurtimiz tarixini yorituvchi tarixiy-ilmiy manbalarning katta qismi bosqinchilik urushlari hamda dushmanga qarshi kurashgan vatanparvar shaxslar ko‘rsatgan qahramonlik tasviriga bag‘ishlangan.

Qabila va urug‘lararo tinimsiz urushlarning ayanchli oqibatlari guvohi bo‘lgan Zardusht insonlarni yagona din ostida birlashtirishda dasturulamal bo‘lib xizmat qiluvchi “Avesto”ni yaratishda ham, avvalo, Vatan ravnaqini o‘ylagani shubhasiz. Shaxs ma’naviy kamolotining Vatan tuyg‘usi bilan bog‘liqligi yuzasidan qimmatli ma’lumotlar beruvchi, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi

¹² Каримов Х. Истиқлол даври адабиёти. –Тошкент: Янги нашр, 2010. -3-бет.

sanalgan ushbu asar O'rta Osiyo, Eron va Ozarbayjonning tarixi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, geografiyasi va tabiati, ilm-fani va etnografiyasi bilan bog'liq talay masalalar qamrab olinganligi bilan ham kishilik jamiyati taraqqiyotiga xizmat qilib keladi.

Professor N.Raxmonov fikriga ko'ra, "zardushtiylik ta'limoti – ezgulik va yovuzlik ruhlari o'rtasidagi kurashdan iborat edi, jamiyatdagi mutanosiblikni buzadigan nomutanosiblikka qarshi kurash edi. Zardushtiylik ta'limoti dastlab yaratilgan paytda diniy emas, balki axloqiy qarashlarning majmui sifatida yuzaga keldi"¹³.

Ma'naviy-axloqiy qarashlar negizida xalqparvarlik, vatanparvarlik tushunchalari, g'oyalari mujassamligi nazarda tutilsa, vatanparvarlik tarbiyasi tarixi uzoq o'tmishga borib taqalishini ko'rsatadi. Miloddan avvalgi 484-yilda tug'ilgan, "tarixning otasi" nomini olgan Gerodot "Tarix" kitobida ajdodlarimizning Vatan ozodligi yo'lida ko'rsatgan qahramonliklarini tilga olar ekan, ularni o'zi eshitgan hikoyalari ichida ishonchli deya ta'rif berishi Vatan tuyg'usining insoniyat tafakkuri tarixida alohida o'rin tutishini ko'rsatadi. Shuning uchun ham, yuksak ma'naviy qadriyat hisoblangan Vatan timsoli vatanparvarlik tarbiyasining tub mohiyatini tashkil etishi bilan uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik muammo sifatida yoshlarda vatanimiz shonli tarixiga hurmat, istiqboliga ishonch uyg'otish bilan birga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni takomillashtirish, insonparvarlik, do'stlik, mehnatsevarlik, halollik, qahramonlik, bunyodkorlik xislatlarini mustahkamlash orqali shaxslik sifatlarini kamol toptirishda muhim o'rin tutadi. Ammo bu borada adabiy ta'lim katta imkoniyatlarga ega ekanligiga qaramasdan, adabiyotning pedagogika bilan bog'liqligi, boshqacha aytganda, adabiyot bilan ta'lim-tarbiya uyg'unligiga doir ko'pgina tadqiqotlarda fanlar o'rtasidagi aloqadorlik masalasiga faqat bir tomonlama – mazkur ishlarning nomlanishida qayd qilinganidek, pedagogika yoki adabiyotshunoslik nuqtai nazaridagina yondashiladi. Masalan, M.Salaevaning "Muhammad Rizo Ogahiyning ma'rifiy-pedagogik qarashlari" (1999), F.Rasulovanning "Avaz O'tar o'g'lining ma'rifiy-pedagogik qarashlari" (1993), B.Abdurahmonovanning "Ta'lim bosqichlarida

¹³ Раҳмонов Н. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. –Тошкент.: Ўқитувчи, 2014.- 57-бет.

“Qutadg‘u bilig” asarini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari” (2007), R.Atamurodovning “Adabiy ta’lim jarayonida shoir A.Oripov ijodini o‘rgatish usullari” (2010), M.Jamoliddinovning “Yuqori sinf adabiyot darslarida o‘quvchilarni milliy xalq an‘analari ruhida tarbiyalash (Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon ijodi misolida)” (1993) mavzusidagi dissertatsiyalarida badiiy adabiyot namunalari pedagogik jihatdan o‘rganilsa, M.Shitkovaning “M.A.Voloshin va S.A.Eseninlar she’riyatida Vatan timsoli” (1999), Yu.Karimovning “Pirimqul Qodirov qissalarida ma’naviy-axloqiy muammolarning badiiy talqini” (2005), Z.Agayevaning “Rasul Hamzatov ijodida peyzaj milliy dunyoqarash va badiiy o‘ziga xoslik talqinining atributi sifatida” (2004) kabi nomzodlik ishlarida, Bahrom Ro‘zimhammadning “Cho‘lpon – tong yulduzi demak (Cho‘lponning pedagogik qarashlari)”(1997) risolasida ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq muammoning adabiyotshunoslik talablari asosida yoritilganini kuzatish mumkin.

Professor A.Choriyevning Abdulla Avloniyning ijodiy merosi o‘rganilishiga oid quyidagi fikr-mulohazalari ayni shu muammoga tegishlidir. “Abdulla Avloniyning ijodiy merosi, - deb yozadi olim, - bir tomonlama o‘rganilgan. Buyuk adib va pedagog merosidagi sharqona o‘ziga xoslik va o‘sha zamona darajasidagi pedagogika ilmini yaratgani ochilmagan. A.Avloniy merosida adabiyot va pedagogikaning tom ma’nodagi bog‘liqligi ko‘rsatilmagan. Pedagogikaning ilmiy masalalarini badiiy tilda yoritgan olgan A.Avloniy merosini L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenkolar merosiga qiyoslash mumkin”¹⁴.

Shunga ko‘ra, aytish joizki, Sharq xalqlari ta’lim-tarbiyasida adabiyot (adab – xulq, odob, axloq)ning hayot darsligi ma’nosida qo‘llanilganligi mumtoz adabiyot va pedagogika tarixini bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning shaxslik sifatlarini kamol toptirishning ilmiy-metodik asoslaridan hisoblanadi.

Qolaversa, “XX asrda dunyo ziyosidan, ilmdan, taraqqiyotdan ilhomlangan Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy kabi ma’rifatparvarlar... vatanparvarligi, millatparvarligi jasorati bugungi ilm ahli uchun ham

¹⁴ Чориев А., Чориев И. Педагогиканинг методологик асоси ва илмий тадқиқот методлари. –Тошкент: “Nishon noshir”. 2016.-101-бет.

namuna”¹⁵ ekanligi nazarda tutilsa, yangi davr adabiyoti asoschilarining ijodi bilan bog‘liq tarixiy manbalar o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otishi bilan adabiy ta‘lim va tarbiya integratsiyasini ta‘minlashga xizmat qilishi o‘z-o‘zidan anglashilardir.

Pedagogika tarixining badiiy adabiyot tarixi bilan bog‘liqligi ta‘limiy muammoning qo‘yilishi va yechimida o‘z aksini topadi. Shu bois Cho‘lpon ijodi yuzasidan vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha tarixiy, adabiy-badiiy manbalarda vatanparvarlik tarbiyasining ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq qilinishi badiiy adabiyot va pedagogika tarixining o‘zaro aloqadorligiga doir quyidagi masalalar tahlilini taqozo etadi:

1. Adabiy ta‘lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik muammo sifatida o‘rganilishi.

2. XX asr boshlaridagi ijtimoiy-tarixiy muhit va Cho‘lpon dunyoqarashiga ta‘sir ko‘rsatgan omillar.

3. Cho‘lpon ijodida badiiyat va g‘oyaviylik muammosi: tahlil va talqin.

4. Cho‘lponning adabiy-badiiy, axloqiy-estetik qarashlari.

5. Cho‘lpon ijodida vatanparvarlik tarbiyasining ijtimoiy-tarixiy, ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari.

6. Cho‘lpon va tanqid.

2014-yil 15-mayda Samarqandda bo‘lib o‘tgan xalqaro konferentsiyada tarixiy manbalar yetarli darajada o‘rganilmaganligi ilm-fan oldidagi masalalardan biri sifatida e‘tirof etilgan edi. Bizningcha, ushbu fikrlar ma‘lum darajada adabiy ta‘lim tizimida Cho‘lpon hayoti va ijodi hamda uning badiiy-estetik, ma‘naviy-axloqiy qarashlari tarixiga doir manbalarga ham tegishlidir. Shunga ko‘ra, mazkur manbalar (badiiy matnlar, ilmiy risolalar, ilmiy to‘plamlar, gazeta va jurnal maqolalari, tezislar, nutqlar) dan ta‘lim jarayonida istifoda etish orqali umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarning shaxslik sifatlarini shakllantirishning ilmiy-pedagogik tahlili ushbu tadqiqotning tub mohiyatini tashkil etadi.

Professor U. Jumanazarov vatanparvarlik tarbiyasiga doir tarixiy asarlar to‘g‘risida shunday deb yozadi: “Xalq badiiy tafakkurining mahsuli bo‘lmish bu asarlar (tarixiy, adabiy-badiiy manbalar –

¹⁵ Чориев А., Чориев И. Педагогиканинг методологик асоси ва илмий тадқиқот методлари. –Тошкент: “Nishon noshir”. 2016.-101-бет.

U.Sh.) bizga faqat uzoq o‘tmish qa’rida sodir bo‘lgan jangu jadallar, fidoyiliklar haqida guvohlik beribgina qolmay, balki ular tarixiy-badiiy saboq ahamiyatiga ham egadir”¹⁶.

Qayd qilinganidek, Cho‘lpon hayoti va ijodining “tarixiy-badiiy saboq ahamiyatiga” ega ekanligining sababi shundaki, buyuk yozuvchi Vatanning yorqin kelajagini tasavvur etmaganida, unga erishish mumkinligini va lozimligini ongu shuuriga singdirmaganida edi, tengsiz mafkuraviy kurashlarga chog‘lanmagan, hattoki o‘zini qurbon qilishgacha borib yetmagan bo‘lar edi. Shuning o‘ziyiq tajovuzkor siyosatga ochiq-oshkora qarshi aziz boshini kundaga qo‘yganida ham o‘zining millatchi ekanligini mardona e’tirof etgan vatanparvar shoir ijodida so‘z va ish (amal) birligining tajassumi yosh bo‘g‘inlar tarbiyasida yorqin namunadir.

Adabiyotshunos U.Normatov “Ijod sehri” kitobida A.Qahhor va A.Muxtor asarlarini tahlil qilar ekan, har qanday asarda muallif tarjimai holi, shaxsiyati, qalb kechinmalari mavjudligiga e’tibor qaratgan edi. Fikrimizcha, bu xildagi qarash Cho‘lpon ijodiyoti uchun ham begona emas. Nimagaki, shoir she’rlarini o‘qir ekansiz, Vatan taqdiri uchun kuyunchaklik – kurashchanlik, uning istiqboliga qat’iy ishonch ruhi bilan yo‘g‘rilgan tiyrak nigohini sezib turasiz.

Ko‘rinadiki, har qanday asardagi ma’naviy-axloqiy muammo garchi ijodkorning g‘oyaviy-badiiy niyati hamda asar badiiy kontseptsiyasi asosida undagi obrazlarning o‘zaro murakkab va ko‘p qirrali munosabatlari zaminida ifodalansa-da, mutolaa jarayonida muallif dunyoqarashi bilan bog‘liq yetakchi g‘oya kitobxon ko‘z o‘ngidan kino lentasidek qizil ip bo‘lib o‘tadi.

Shu jihatdan qaraganda, Cho‘lpon ijodidagi yetakchi g‘oya Vatan timsoli zimmasiga yuklanganini anglash mumkin.

Tadqiqot muammosi yuzasidan olib borilgan izlanishlar vatanparvarlik tarbiyasi avlod-ajdodlarimizdan o‘tib kelayotgan “ota meros” g‘oya ekanligidan dalolat beradi.

Ammo ijtimoiy gumanitar fanlar bir asrga yaqin shovinistik g‘oya qobig‘ida bo‘lganligi, bu g‘oya insonga o‘zligini unutib kommunistik g‘oya asoschilarini payg‘ambar darajasida

¹⁶ Жуманазаров У. Жасорат ва садоқат талқини. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. -3-бет.

singdirgani¹⁷ hisobga olinsa, ana shu g'oya qurboni bo'lgan Cho'lpon ijodi misolida tarixiy, adabiy-badiiy manbalarda vatanparvarlik muammosini tadqiq qilish ilmiy-pedagogik tafakkur rivojiga xizmat qilishi mumkin.

1.2-§. XX asr boshlarida ijtimoiy muhit va vatanparvarlik tarbiyasining shakllanishi

Markaziy Osiyo, jumladan, Movarounnahrning qulay jug'rofiy sharoiti, tabiati, iqlimi mintaqada odamlarning uzoq o'tmishda bu yerlarda o'troqlashib, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganligini, tabiiy sharoitdan kelib chiqib yerlarni sug'orish yo'llari bilan hosil olganligini ko'rsatadi. Bu esa mintaqa ahlida o'zi yashab turgan zaminni muqaddas tutishi, unga nisbatan fuqarolik munosabatining tug'ilishi ancha erta, bir necha ming yillar avval shakllanganidan dalolat beradi. Buning yorqin isboti arxeologlar tomonidan ochilayotgan shahar vayronalari, moddiy madaniyat qoldiqlari ibtidoiy bo'lsa-da, san'at asarlaridir.

Hadislarda "Vatanni sevmoq iymondandir", "Vatan – sajdagoh kabi muqaddasdir" kabi hikmatlarning keltirilishi Vatan tushunchasining asrlar osha avlodlar tarbiyasida muhim omil bo'lib kelganini ko'rsatadi.

Ona zamindagi tabiiy sharoit avlod-ajdodlarimizning hayot tarziga ham ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas edi. Aynan shu holat o'zga yurtlarda bu zaminga qiziqish uyg'otganligining yorqin dalili sifatida arablar, mo'g'ullar, chor Rossiyasi, keyinchalik esa sho'rolar bosqinini misol qilib keltirish mumkin. Aslida Pyotr I davridan bosqinchilik siyosati XIX asrning ikkinchi yarmida chor Rossiyasining g'alabasi bilan yakun topdi. Natijada XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Turkistonda g'oyatda murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat vujudga kelganligi tarixdan ma'lum. Bir tomonda chor istibdodi, ikkinchi tomonda mahalliy hokimiyatlardagi boshboshdoqlik, parokandalik, milliy mahdudlik, boz ustiga birinchi jahon urushining ayanchli oqibatlarini xalq hayotini boshi berk ko'chaga kiritib qo'ydi.

¹⁷ Бу ҳақда қаранг: Чориев А., Чориев И. Педагогиканинг методологик асоси ва илмий тадқиқот методлари. -Тошкент: "Nishon noshir", 2016. -109-бет.

Bosqinchilarning dahshatli mustamlakachilik siyosati o'ziga qaram o'lkalarda qarshi kuchlarni ham yuzaga keltirmasligi mumkin emas edi. Ma'rifatparvarlik g'oyasi zaminida qaror topgan milliy uyg'onish bilan bog'liq jadidlar harakati shu tariqa kurash maydoniga chiqqan edi.

Bu davrdagi vatanparvarlik tarbiyasida milliy uyg'onish g'oyasi targ'ibotchilaridan Buxoro muftiysi Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmatlari kattadir.

“Taxmin qilish mumkinki, - deb yozadi Begali Qosimov, - yosh Mahmudxo'ja dunyoqarashining shakllanishida Qrim va Rusiya jadidchiligining asoschisi Ismoilbek Gaspiraling xizmati katta bo'lgan. Sharqu G'arbning tarix va madaniyatini chuqur bilgan, arab, fors tillari bilan bir qatorda ingliz, nemis (olmon), frantsuz tillarida erkin so'zlasha olgan bu kishi (Ismoilbek Gaspirali) 1881-yilda rus tilida “Rusiya musulmonlari” kitobini yozadi. Bu kitobda u, Rusiyada (ya'ni, Rossiya mustamlakalarida – Sh.U.) yashovchi barcha musulmonlarning o'zligini saqlab qolish yo'li bitta, u ham bo'lsa ma'rifat va u orqali mamlakatning (Rusiya imperiyasining) ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotiga tengma-teng (ya'ni, tenghuquqlilik asosida – Sh.U.) qatnashuvga erishmoqdir, degan fikrni ilgari suradi”¹⁸. Bu yo'ldagi birinchi qadam “usuli jadid”, “usuli savtiya” maktablarini tashkil etish bo'lsa, ikkinchi qadam va eng muhimi – yangi, musulmoncha matbuot nashrlari, gazeta va jurnallar orqali millionlab mehnatkashlarni va ularning bolalarini milliy uyg'onish ruhida tarbiyalash edi. Shu maqsadda 1883-yilda Ismoilbek Gaspirali Buxoroga va Turkiston general-gubernatorligi markazi Toshkentga keladi. Mahalliy hukmdorlarga xat bilan murojaat qilib, yangi usuldagi maktablarni tashkil etish taklifini bildiradi. O'sha vaqtda Turkiston general-gubernatori N.O.Rozenbax qrimlik ma'rifatchining bu xatini “Turkiston viloyatining gazetasi” bosh muharriri N.P.Ostroumov va harbiy mansabdor V.P.Nalivkin (u rus ofitserlariga o'zbek tilini o'rgatish uchun darslik yozgan – Sh.U.)ga o'rganib chiqib, javob yozish topshirig'ini beradi. N.P.Ostroumov rasmiy yozma javobida Ismoilbek Gaspiraling taklifini rad qilar ekan, uni Rusiya imperiyasi uchun zararli odam,

¹⁸ Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар.-Т.: “Маънавият”, 1997. -7-бет.

biz mahalliy aholini ruslashtirishga harakat qilmoqdamiz, I.Gaspirali esa, bunga qarshi deb ko'rsatadi¹⁹.

Mustamlakachilarning bu qarashlariga qaramay, Ismoilbek Gaspirali 1897-yilda yana Turkistonga keladi va yangi maktablar ochadi. 1905-yil voqealarining kuchli ta'sirida o'sha yilning 15-avgustida Nijniy Novgorodda Rossiya musulmonlarining 1-syezdi, 1906 yilning 13-23-yanvar kunlari Peterburgda II syezdi chaqiriladi. 1906-yilning 23-avgustida Nijniy Novgorod shahrida Rossiya musulmonlarining turmushi va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoyda Mahmudxo'ja Behbudiy turkistonliklar guruhining rahbari sifatida katta nutq so'zlaydi²⁰.

Bir qarashda jadidlarning maktab-maorif sohasida islohot qilishlari, xalqni podshoh hukumatini inqilob qilish bilan ag'darishga chaqirmay, ilmu ma'rifatni rivojlantirish yo'li bilan hukumat ishlarida qatnashishga da'vat qilishi chor hukumatiga ma'qul kelishi kerak edi. 1905-1907-yildagi xalq norozilik harakatlaridan so'ng chor hukumati xalqqa biroz yon berib, mustamlaka xalqlarining vakillarini ham Davlat Dumasiga saylanishga, boshqaruv ishlariga qisman aralashuvga ruxsat bergan edi.

Toshkentlik boy ziyolilardan, taniqli ma'rifatchi Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev ana shunday vakil – Duma a'zosi bo'lib, mahalliy xalq manfaatlarini himoya qilish huquqini qo'lga kiritadi.

“Barcha narsaga qiziquvchan Mahmudxo'janing yaqin va o'rta Sharqda nomi tanilgan Ismoilbek Gaspiralining Turkiston safarlaridan bexabar qolishi qiyin edi, - deb yozadi Begali Qosimov. – To'g'ri, Ismoilbek kelib Turkistonda ochib ketgan yangi maktablar uzoq davom etmadi, g'ayri shar'iy deb, mutaassiblar tomonidan yopildi.” (Bu borada ruhoniylarga Turkiston mustamlakachi ma'muriyati ta'sir o'tkazib, topshiriq bergani shubhasiz – Sh.U.)

Chorizm mustamlakachilarining ming yillar avval qudratli davlat bo'lib, dunyoga Forobiy, Xorazmiy, imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Zamaxshariy, Beruniy, ibn Sino, Muhammad Avfiy Buxoriy, Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Abu Xafs Nasafiy, Abu-Lays Samarqandiy, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Boburlarni yetishtirgan, so'nggi davrda xonlarning o'zaro nizolari va ojizligi tufayli Rossiya

¹⁹ Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар.-Т.: “Маънавият”, 1997. -10-бет.

²⁰ Ўша манба. 11-бет.

imperiya­si­ning itoatkor bir viloyatiga aylangan Turkistonda mahalliy aholining milliy va diniy birligiga rahna solish uchun makkorona yo‘l tutib, maktablarda diniy darslar (kalom, tafsir, hadis, fikh-shariat ahkomi) ni kamaytirishdan boshqa chorasi yo‘q edi.

Farg‘ona general-gubernatori general-leytenant N.I.Korolkovning 1898-yil imperatorga yo‘llagan hisobotida qayd etgan o‘lka aholisini asta-sekin ruslashtirish haqidagi dasturi hamda Turkistondagi yirik shaharlarda ochilgan bilim yurtlari mahalliy aholini ruslashtirish va milliy ruhni yo‘qotishning muhim o‘chog‘i bo‘lib xizmat qildi.

1882-1884-yillarda Turkiston general-gubernatori bo‘lgan M.G.Chernyaev Shveytsariyalik sayyoh olim Genrix Mozer bilan suhbatda mehmonning “Turkistonliklarni ruslashtirishni qachon oxiriga yetkazasiz?” – degan savoliga harbiylarcha jangarilik bilan “Mahalliy aholi rus arog‘i va tamakisiga o‘rganib bo‘lganidan keyin”²¹ deb javob bergan.

1905-1907-yillarda Rossiyadagi inqilobiy harakatlar Turkiston o‘lkasi xalqlarida ham chor istibdodi, mustamlakachilarning zulmidan qutulish umidini uyg‘otadi. “1905-yilgi inqilob harakati ta’siri natijasida siyosiy maslak va maqsadlarni tushuna va o‘rgana bordim. 1907-yilda “Shuhrat” ismli gazeta chiqardim”²², - deb yozadi Abdulla Avloniy.

Tarjimai holida qayd etganidek, 1904-yildan jadid ma’rifatchilari qatorida yangi usulda maktab ochib dars bera boshlagan Abdulla Avloniy ta’lim-tarbiyaga doir milliy ruhdagi she’rlari, darsliklari, sahna asarlari bilan o‘sha davrdagi murakkab tarixiy madaniy muhitda alohida o‘rin tutadi.

Atoqli pedagog va adabiyotshunos olim Begali Qosimov A.Avloniyning “Tanlangan asarlar”iga yozgan kirish so‘zida o‘lkadagi ijtimoiy-tarixiy muhit yuzasidan quyidagilarni qayd etadi: “1905-yilgi inqilobiy ko‘tarilishlar behuda ketmadi. Podsho hukumati tomonidan mahalliy aholiga yon berish, vijdon, so‘z, yig‘ilishlar (namoyishlar) erkinligi ta’minlanishi haqida va’dalar berildi. Manifest matbuot ishlarining yurishib ketishiga yo‘l ochdi. Rusiyaning barcha shaharlaridagi kabi Turkiston shaharlarida ham

²¹ Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. -Тошкент: “Шарк”, 2000. 255-бет.

²² Абдулла Авлоний. Ўсон, миллат. –Т.: “Шарк”, 1993. -8-бет.

gazeta va jurnallar chop etila boshlandi. “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Osiyo” gazetolari chiqa boshladi. 1907-yilda esa Avloniy muharrirligida “Shuhrat” gazetasi chiqa boshladi. Gazeta o‘z dasturini bunday belgilaydi:

Zamona gulshanida qumriyi tanhosifat so‘zlar,
Gulistonlarda doim sayr etar sayyoradur “Shuhrat”²³.

Lekin “Shuhrat” gazetasining faqat 10 ta soni chiqarilgach, bu yerdagi hur fikrlardan cho‘chigan chor hukumati gazetani yopib, tahririyatning nashr dastgohlarini musodara qiladi. Begali Qosimov haqqoniy ko‘rsatganiday, chor hukumati ham, uning o‘rniga kelgan sovetlar ham mahalliy xalqning milliy va siyosiy ongi o‘shiga turli yo‘llar bilan to‘sqinlik qiladi. Turkistonning 1916-1917-yillardagi general-gubernatori N.A.Kuropatkin Peterburgga yozgan hisobotida: “Biz 50 yil davomida mahalliy aholini (tuzemlarni) taraqqiyotdan chetda tutdik”, degan edi. Bundan avvalroq, 1882-yilda esa Rossiya maorif vaziri o‘rinbosari Logofet mustamlakachilarning maqsadi haqida bunday so‘zlarni aytgan: birinchi, bosh printsip ularni ruslashtirish, ikkinchi printsip islom dinini buzish, prozelitizmdan (din erkinligidan) voz kechish, bizga yot musulmonlarning umuman diniy qadriyatlarini yo‘qotishdir”²⁴.

1916-yilda mahalliy xalqdan ishga yaroqli yigitlarni Sibir o‘rmonlarida daraxt kesish va yuk tashish ishlariga mardikorlikka olish haqida farmon chiqarilishi xalqning sabr-kosasini to‘ldiradi. Garchi ijtimoiy-siyosiy jihatdan uyushmagan bo‘lsa-da, qo‘zg‘olonlar boshlanadi. Ilg‘or fikrli ziyolilardan Sidqiy Xondayliqiyning “Rusiya inqilobi” dostonida 1916-yil qo‘zg‘olonlarining asl sabablari to‘g‘ri ko‘rsatiladi. Shoirning yozishicha, chor hukumatining bu farmonida hammasi bo‘lib qancha mardikor olinishi va qancha muddatga olinishi ma‘lum emas edi. Bundan foydalangan chor ma‘murlari mahalliy xalqning oilalarini boquvchisiz qoldirib, ochlik va qahatchilikka mahkum etadi. Natijada poraxo‘rlik avj oladi.

Mustamlakachilarning yovuz niyatlarini chuqur anglagan shoir yozadi:

Zulm ahli, oh, bizni nokom ayladilar,
Bas, yaxshi nomimizni badnom ayladilar.

²³ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 1-жилд. –Т.: “Маънавият”, 1998. -8-бет.

²⁴ Шу манба. 9-бет.

Chun ro‘zi ravshan erdi baxt ila tolemiz,
Qoplab qaro bulutdek chun shom ayladilar.
Jon rishdasig‘a, ey jon, sanchib taadi tiyg‘in,
Har lahzalarda kori hajjom ayladilar.
Biz sodda xalqlarning yo‘liga makru fandin
Poband aylamoqg‘a yuz dom ayladilar.
Ko‘rganda zulm elini ikrom ayladuk biz,
Bizlarga lek tarkiikrom ayladilar²⁵.

Vatan, millat istiqbolini o‘ylash, xalqning milliy ongini uyg‘otish, milliy ruhini, Vatan tuyg‘usini kamol toptirish XX asr boshlaridagi jadid ma‘rifatparvarlari ijodining asosiy mazmunini tashkil etadi. Xalqni ozod, Vatanni obod ko‘rish orzusi ma‘rifatparvarlar dunyoqarashining ruhan yaqinligini ko‘rsatadi.

O‘sha davrdagi ta‘lim-tarbiyaga doir yuksak badiiyat va insonparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan she‘rlari hamda “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi asarlariga asoslanib, Abdulla Avloniyning jahonga mashhur pedagogika asoschilaridan biri “Buyuk didaktika” asari muallifi Yan Amos Komenskiyga qiyoslash mumkin. Agar chex mutafakkiri o‘zining juda ko‘p tillarda nashr etilgan ijodiy va ta‘lim-tarbiyaga doir ishlari bilan xalqaro maydonda shuhrat qozonib, Ovro‘poning juda ko‘p hukmdorlari tomonidan qadrlangan, turli mamlakatlardagi ma‘rifiy ishlarga taklif etilgan bo‘lsa, Abdulla Avloniyning sermahsul, rang-barang ijodi, fidokorona pedagogik faoliyati XX asr boshlaridagi g‘oyatda sermashaqqat tarixiy muhitda mustamlakachilar ta‘qibiga uchradi.

O‘sha qizg‘in siyosiy islohotlar, yangi milliy mafkuraning tug‘ilishi haqida Abdulla Avloniy “Tarjimai hol”ida bunday eslaydi: “1904-yilda rus-yapon urushi chiqib, bizning ham ko‘zimiz ochildi. 1905-yilda Rusiyada boshlangan inqilob to‘lqini (bu zavod, fabrika egalarining jabr-zulmiga qarshi ezilgan mehnat ahlining iqtisodiy va siyosiy hurriyat uchun kurashi avj olgan vaqt edi – U.Sh.) bizga ham zo‘r ta‘sir qildi. Bizning tashkilotimiz (“Turon”) jamiyati, jamoatchilik (hozirgi tilda nodavlat tashkiloti) siyosiy maslaklarga tushunib, birinchi navbatda, qora xalqni (mehnat ahlini) oqartirmoq va ko‘zin ochmoq chorasiga kirishdi”²⁶.

²⁵ Сидкий Хондайликий. Танланган асарлар. –Т.: “Маънавият”, 1998. -121-бет.

²⁶ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 1-том. –Т.: “Маънавият”, 1998. -12-бет.

Mahalliy millat bolalarini yangicha – jadid maktablarida turli dunyoviy fanlarni o‘qitib, milliy ongini uyg‘otib, o‘zligini tanitish “qora xalqni oqartirish”ning mazmuni edi. Rossiya imperiyasida 1905-yilgi inqilobiy ko‘tarilishlar behuda ketmadi. Podsho hukumati yon berishga majbur bo‘ldi. 1905-yil 17-oktyabrda podsho hukumati chiqargan manifest – hujjatda Rossiya xalqlari uchun (u vaqtda Turkiston Rossiya mustamlakasi bo‘lgani sababli bu yerdagi xalqlar uchun ham) shaxs daxlsizligi, vijdon, diniy e‘tiqod erkinligi, so‘z erkinligi, fuqarolarning yig‘ilishlari erkinligini ta‘minlash haqida va‘da berildi.

O‘sha davrda adabiy muhit nochorligi tufayli faqat Shayx Sa‘diy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab g‘azallarigina sevib mutolaa qilingani uchun bo‘lsa kerak, xalqni ilm-ma‘rifatga da‘vat qiluvchi maqola va hatto e‘lonlar ham she‘riy san‘at bilan yozilgani ma‘lum. Jumladan, Abdulla Avloniy “Shuhrat” gazetasiga yozgan she‘riy bosh maqolasida yangi nashrning dasturi, maqsadi va vazifalarini san‘atkorona tarzda quyidagicha ifodalaydi:

Kalomi xush takallum to‘tiyi zebo sifat so‘zlar,
Maqomi hurriyatda bulbuli shaydosifat so‘zlar...
Tuyub sarlavhasini ilm istar muddaosini,
Yana debochasida sharh etar millat bahosini.
Qani xushfahm, bilsa, gavhari qimmatbahosini,
Zamona ma‘danida bir zumurradporadur “Shuhrat”.

Rossiyaning markaziy shaharlarida avj olgan xalq ozodlik harakatlaridan ilhomlanib, Turkiston xalqlari ham yaqin yillarda mustamlaka qulligidan, xorijiy bosqinchilar zulmidan qutulib, erkin, bunyodkor mehnati bilan ozod va farovon yashashni orzu qilishi tabiiy edi. Binobarin, Abdulla Avloniy shu ozodlik kurashida “Shuhrat” gazetasi hurriyat bulbuli bo‘lib “sayrab”, ilm istagan xalqni tinch yo‘l bilan yorug‘likka chiqarishga xizmat qiladi deb ishonadi.

Mazkur she‘riy bosh maqolada o‘sha vaqtda milliy ongi o‘smagan, xalqi g‘aflatda yotgan Turkiston “xarobatxona” deb ataladi.

Xarobatxonada yotsang, bizim-chun kim qilur ta‘mir?
Buzilsin, qadri ketsin deb qilur hamsoyamiz tadbir.

Begali Qosimov “Shuhrat” gazetasi muharririning bu she’ridagi “hamsoya” so‘zining yashirin ma’nolarini teran sharhlab bergan: “Xarobatxona”ni, inson yashab bo‘lmaydigan holga kelgan turmushni (ya’ni, Vatan binosini – U.Sh.) kim tuzatib, ta’mirlab beradi? “Hamsoyamizmi?” U, bu xarobatxonani yanada ko‘proq buzish, battarroq qadrsizlantirish uchun tadbir izlaydi.

Turkiston xalqlari – o‘zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq, turkman, qirg‘izlarning tili bir, dini bir bo‘lgani uchun, agar ahil yashasalar katta kuchga aylanishi mumkinligini nazarda tutgan Abdulhamid Cho‘lpon “Xalq – dengizdir, xalq – to‘lqindir, xalq – kuchdir” deb yozganida haqli edi.

Mustamlakachilar Turkiston xalqlarining ahilligi, birligini buzish uchun ular qalbidagi yagona Vatan tuyg‘usini yo‘qotish, milliy ruh va milliy g‘oyani tag-tomiri bilan yulib tashlash uchun, avvalo, islom dini va diniy-milliy qadriyatlarni yo‘qotishga urindilar. Chunki dinsiz, dahriy xalq iymoni, insof va diyonatidan mosuvo bo‘lgach, shaxsiy manfaati yo‘lida o‘z vatani va millatiga bemalol xoinlik qilishi, mustamlakachi dushmanlar bilan hamkorlikka yuz tutishi mumkin edi.

Mustamlakachilarning mana shu yashirin va yovuz maqsadlarini bilgan Avloniy, Munavvar Qori, Ibrat, Hamza, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va boshqalar millat dushmanlarining rejalariga qarshi turib, maktab, maorif, matbuot orqali xalqning milliy ongini uyg‘otish, vatan tuyg‘usini tarbiyalash uchun bor qobiliyati, iste’dodi, kuch-g‘ayratini ishga soldilar. Ma’rifiy tarbiyaviy asarlarida g‘aflat va jaholatni qoralab, ilm-ma’rifatni targ‘ib qildilar.

Milliy istiqlol fidoyilari o‘zlarining butun ongli hayoti va ijodiy faoliyati davomida Vatan va xalq ozodligi eng buyuk qadriyat, oliy saodat ekanligini targ‘ib etib, Vatanni sevish hamda unga xizmat qilishning chinakam namunalarini ko‘rsatdilar. Ulardan Behbudiy, Ibrat, Sidqiy Xondayliqiy, Hamza va Avloniyalar chorizm mustamlakachiligining og‘ir sharoitlarida jasorat ko‘rsatib, xalqimizni qullikdan qutqazish uchun ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiyada jiddiy islohotlar qilish zarurligini targ‘ib etish bilan cheklanmasdan, yangi usul maktablarini ochib, yosh avlodga ham diniy, ham dunyoviy bilimlar berish bilan mashg‘ul bo‘ldilar,

mazkur maktablar uchun darsliklar, o‘qish kitoblari yozib, nashriyot ishlari bilan ham shug‘ullandilar.

Ular Sharq tarixnavislari (Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirza Haydar)ning asarlari bilan bir qatorda Yevropa tillarini ancha mukammal bilgan, V.V Radlov, V.V.Bartold, H.Vamberi, V.Nalivkinlarning asarlarini rus tilida o‘qiganlar. Ishoqxon To‘ra Ibrat Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining aslida uyg‘urcha-o‘zbekcha yozilganini va uni V.V.Radlov ruscha, turkcha, olmoncha ko‘p jildda nashr qilganini, H.Vamberi Turkiston tarixidan ko‘p asarlar yozganini ta’kidlar ekan, nega bizning ziyolilarimiz bunday asarlar yozmayotganiga afsuslanadi. O‘zi namuna ko‘rsatib, “Tarixi Farg‘ona” asarini yaratadi.

Abdulla Avloniy 1909-yilda yangi usuldagi – jadid maktablari o‘quvchilariga mo‘ljallangan “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” kitobining “Ifodai maxsusa” deb atalgan muqaddimasida bu haqda quyidagicha fikrlarni bildiradi:

“Bizning Turkistondagi islomiy maktablarda avvaldan oxirigacha ta’lim beriladigan, o‘rganiladigan kitoblar “Chahor kitob”, “Sabotul ojizin” (So‘fi Olloyor), Fuzuliy, Navoiy, Xoja Hofiz, Bedil, “Maslakul-muttaqiyn” kabi she’riy kitoblar bo‘lgani ma’lumdir. Bu kitoblarning ba’zisi oshiqona nazmlardan va ba’zilari e’tiqod (din) va amaliyoti islomiyatga (toat, ibodat, shariat qoidalariga) taalluqli mushkul masalalardan iborat bo‘lgani uchun va ko‘pchiligi arabiy va forsiy tilda yozilgani uchun turk o‘g‘illari (turkiy xalqlar farzandlari) bu kitoblarni o‘qib tushunishi imkondan tashqari edi. Voqean, o‘z ona tilini yaxshi bilmagan, endigina harflarni bir-biridan ayirgan (farqlayotgan) bir yosh bolaning qo‘liga “Chahor kitob” berib (Bu kitobning ma’nosiga yetmay, katta nomi Xudo” (ya’ni, “Bismilloh, Xudo nomi bilan boshladim ”) yoki “Sabotul-ojiziyn” berib, “Sano lil xoliqi g‘abrovu aflok” yoki Fuzuliy (kitobini) berib, “Alo yo ayyuxos – soqiy, adar ka’san va novilho” deb va boshqa (shu kabi) forsiy, arabiy lisonlarda (tillarda) yozilmish eng adabiy va hikmatli (falsafiy) jummlarni o‘qitmoq

bilan Yerdan turib yulduzlarga qo‘l uzatmoq yoki igna bilan quduq qazimoq orasida farq yo‘qdur”²⁷.

Inson baxt-saodati xalq va vatan taqdiri, erk va haq-huquqi bilan chambarchas bog‘liq deb bilgan Abdulla Avloniyning fikricha, “bizim yerlarda ihvat (ahillik, birodarlik) shaxsiy rohatdan iboratdur. Hama a‘molimiz (ishlarimiz) shaxsiy adovatdan iboratdur”. Chindan ham chorizm mustamlakachiligi yillarida keng ko‘lamda ildiz otgan ijtimoiy loqaydlik, millat, xalq taqdiriga befarqlik, faqat o‘zini o‘ylash, millatdoshlariga yaxshilik, mehr-shafqat bilan qarash o‘rniga o‘zaro mol- dunyo, mansab, obro‘ talashib yovlashuv, maishatparastlik kabi illatlar bir asr davomida xalqimizning qon-qoniga singib ketdi.

Shoir qayg‘u-hasratining asosiy sababi mustamlakachilar tomonidan ming yillik diniy, milliy, ma‘naviy qadriyatlardan ayrilib, jaholatda saqlangan xalqning oxir-oqibat ma‘naviy inqirozga uchraganligidir.

U mahalliy xalq vakillarining chorizm siyosati tufayli hech qanday kasb-hunar egallasdan ko‘cha supuruvchi, yamoqchi, tilanchi bo‘lib qolganligini inqiroz natijasi deb biladi.

Aynan shu davrda bo‘lg‘usi o‘zbek she‘riyatining yulduzi Abdulhamid Cho‘lpon Qo‘qon, Farg‘ona, Toshkent, Boku, Bog‘chasaroy (Qrim), Istanbulda chiqib turgan taraqqiyparvarlik ruhidagi gazeta va jurnallarni chanqoqlik bilan o‘qigan. Hali 15 yoshdagi o‘spirin bo‘la turib Turkiston xalqlarining ma‘rifatsizligi xususida Ismoil Gaspiraliga yozgan maktubining Bog‘chasaroyda bosiladigan mashhur “Tarjimon” gazetasida e‘lon etilishi xalq va vatan taqdiriga befarq bo‘lmagan, bo‘lolmaydigan katta qalb egasining ijtimoiy-siyosiy ongu shuuri shakllanayotganligidan dalolat beradi. Buni “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914-yil 18-aprelda “Turkistonlik qardoshlarimizga” she‘ri oldidan keltirilgan quyidagi e‘tirofi ham tasdiqlaydi: “Dunyoning qaysi bir chetiga ko‘z solsak va qaysi millatning ahvoliga nazar qilsak, ul millatning saodati, rivoji va taraqqiysi uchun boshlab shul millatning yoshlari va yosh fikrli qahramonlari sabab bo‘lmakdadir. Olarning yosh ko‘ngillari har bir narsadan g‘olib bo‘lub, g‘aflat, jaholat qal‘alarini

²⁷ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 1-том. –Т.: “Маънавият”, 1998. -27-бет.

zo‘r ila urub yo‘q qilmak orzusida bo‘lurlar. Ham ba‘zilari orzulariga muvaffaq bo‘lub, butun bir millatning yoshi, qarisi, erkak va xotiniga yolg‘uz o‘zlari rahbar bo‘lurlar. Yoshgina qalblari ila yorug‘lik va ilm, maorif nuriga boshlarlar. Bunday yoshlar har bir mamlakatda, oz-ko‘p, o‘ziga yarasha bordir. Alhamdulillah, bizim Turkiston turklari orasidan ham shunday yoshlarimiz va yosh fikrli bolalarimiz ko‘rinmakka boshladi. Dalil uchun o‘shli 12 yashar M.Sanjarbek afandi ila andijonli 15 yashar Abdulhamid afandini ko‘rsatuv yetsa kerak”²⁸.

Bu borada akademik Naim Karimovning Cho‘lponning “kelgusidagi ijodiy dasturi ilk asarlaridayoq o‘z ifodasini topgan”²⁹ligi haqidagi fikrlari ayni haqiqatdir.

Cho‘lponning 1914-yil 4-iyun kuni bosilib chiqqan birinchi adabiy-tanqidiy asari “Adabiyot nadir?” degan maqolasi shaklan juda ixcham bo‘lsa-da, mazmunan g‘oyat teran. “Undagi fikr va mulohazalar shu qadar pishiqlik,” - deb yozgan edi O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov, - o‘n olti yashar o‘smirning shunchalik tiyraklik bilan qalam tebratganiga qoyil qolmay ilojimiz yo‘q.

Xuddi shu yillarda qo‘shni Qozog‘istonda ham, Ozarbayjon yohud tatarlar yurtida ham adabiyotning mohiyatini izlash, uning jamiyat hayotidagi, millat ravnaqidagi ahamiyatini aniqlashga urinishlar bo‘lgan. Ozarbayjon adiblari Jalil Mamatqulizoda, Abdurahim Haqverdievlarning, tatar yozuvchilari Abdulla To‘qay yohud Olimjon Ibrohimovlarning XX asr boshlarida chop etilgan adabiyot haqidagi maqolalari fikrimizning dalilidir”³⁰.

Abdulhamid Cho‘lpon fikricha, adabiyot – millatni taraqqiy ettirish vositasi, uning ma’naviy boyligidir. Ajabki, Cho‘lpon hali o‘smirligidayoq millat taqdiri, demakki, vatan taqdirini, istiqbolini ma’rifatparvarlik bilan bog‘laydi. “Adabiyot o‘lmag‘an (bo‘lmag‘an) va adabiyotning taraqqiysiga chalishmag‘an (ko‘maklashmagan) va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan,

²⁸ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. -Тошкент: Akadernashr, 2016. -330-бет.

²⁹ Каримов Н. Чўлпон ҳақида сўз./Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд.-Тошкент: Akadernashr, 2016. -7-бет.

³⁰ Шарафиддинов О.Адабиёт яшаса, миллат яшар // Шарқ юлдузи. – Тошкент:1993 - №9, 34-бет.

fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo‘lur”. Uning xulosasi ham keskin va aniq: “Adabiyot yashasa – millat yashar”³¹.

Cho‘lponning ushbu fikr-mulohazalari xalq hayotidagi boshboshdoqlik, chor istibdodi tufayli yuz berayotgan adolatsizlik, mustamlaka tizimidagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarning keskinligi, boshi-keti yo‘q xunrezliklar hali o‘smir yoshidagi Abdulhamidni o‘z vaqtidan oldin ulg‘aytirib, millat qayg‘usiga sherik qilib qo‘yganidan dalolat beradi.

Umumturkiy adabiyot tarixi allomasi Ahmad Zakiy Validiy Tug‘onning xotiralari o‘n besh yoshli Cho‘lponning yuksak iqtidoridan darak beradi: “Men sayohatim davomida Toshkent, Farg‘ona, Samarqand va Buxoroda bir qancha yangi do‘stlar orttirdim. Bulardan ko‘pchiligi menga shu yildan e‘tiboran Turkiston madaniy hayotida va keyinroq siyosiy hayotida ishtirok etishimda foydalari tegdi va har biri bilan bo‘lgan do‘stligim juda ko‘p shirin xotiralar qoldirdi... Qozoqlardan hali litsey talabasi va keyinchalik kommunist bo‘lgan Nazir To‘raqul va Toshkentda Peterburg Universiteti huquq talabasi Mustafo Cho‘qaev, o‘zbeklardan shoir andijonlik Abdulhamid Sulaymon (Cho‘lpon), yana Toshkentda tarixchi Po‘lat Soliev, o‘zbeklardan Munavvar Qori va Ubaydulloh Hoja, Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Buxoroda Sharifjon Mahmud, yana qirg‘izlardan oliy maktab talabasi Jonuzoq o‘g‘li Ibrohim shu jumladandir.

Turkistonda tengdoshlarimdan zikr etilganlar orasida Nazir To‘raqul va Abdulhamid Sulaymon (taxallusi Cho‘lpon) haqlarida alohida to‘xtalishim lozim bo‘lgan yelkadosh do‘stlarimdandir.

Keyinchalik o‘zbeklarning eng buyuk shoiri bo‘lgan Cho‘lpon o‘sha paytlar ehtimol 15 yoshlarda edi. Menga tarix kitobimni o‘qib ilhomlangan va g‘oyibona duoda hamda qadrdonim bo‘lganini bildiruvchi maktub yo‘llab, Andijonga, uylariga taklif etgandi. Men Nazir To‘raqul bilan birga uylariga borganimda katta va boy bir tujjor otasi Sulaymon bizni:

– Bir bola otasidan ruxsatsiz mehmon chaqirishi mumkinmi? – deya sovuq, hatto minnat bilan zardali qarshiladi. Abdulhamid uyda yo‘q edi, keyinroq keldi. Lekin, haqiqatan hali bir bola ekan, holbuki,

³¹ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. -Тошкент: Akademnashr, 2016.-4-бет.

biz uni yetuk bir kishi deb o‘ylagan edik. Biz mehmonxonaga ketmoqchi bo‘ldik. Otasi:

– U holda taomdan so‘ng ketarsiz,- dedi. Abdulhamid otasiga bir so‘z deyolmadi. Faqat taomlanish asnosida biz ota bilan suhbatlashayotganimizda, u ham yonidagi do‘sti bilan so‘zlashardi, bundan otasining jahli chiqdi. Men esa Mavlono Rumiyning:

Garchi bulbulon guzinand,

Murg‘oni digar xomush na nishinand

Ya’ni: “Bulbullar mumtoz ersa-da, o‘zga qushlar jim o‘tirmaslar” degan so‘zni aytdim. Sulaymon og‘a zakiy odam ekanlar, bundan juda sevindilar. Bizni sovuq qarshilagan Sulaymon og‘a fikrlarini darhol o‘zgartirdilar va:

– Siz endi o‘g‘limning emas, mening mehmonim bo‘lgaysiz, - deya lutf etdilar. Mehmonxonaga ketishimizga ruxsat etmadilar. Bo‘lajak buyuk turk shoiri Cho‘lponning otasi fors tilini juda-juda sevar va bu tilga nisbatan ziyoda hurmatda ekanlar. Unga o‘zimni tanitmoq uchun tashrifnomamni berdim. Bunday narsani hech ko‘rmagan emishlar.

– Demak, bu sizning ismingiz, demak, siz buni chop ettirgansiz, - dedilar va tashrif qog‘ozimni qaytarib berdilar.

Shu tariqa buyuk o‘zbek modern shoiri va tamoman o‘rta asr ziyolilariga xos bir boy bo‘lgan otasi bilan do‘st bo‘ldik.

Sulaymon og‘aning duolarini olib xayrlashdik”³².

Zakiy Validiy keyinchalik, sovetlar mustamlakachiligi avj olgan, milliy-ozodlik, istiqlol uchun kurashchilarni qatag‘on qilish, qatl etish boshlanganida yosh shoir Cho‘lponni Boshqirdistonda milliy ozodlik kurashiga jalb etdi. So‘ng unga zarar yetmasin, deb Bokuda va Moskvada san‘at, teatr ishlari bilan shug‘ullanishiga qo‘ldan kelgancha yordam berdi.

Abdulhamidning bolaligi va o‘smirligi Turkistonda va butun Sharq mamlakatlarida G‘arb imperializmi va mustamlakachiligiga qarshi xalq milliy – ozodlik harakatlari kuchaygan, milliy uyg‘onish boshlangan davrga to‘g‘ri keldi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Sayid Rizo Alizoda, Munavvar Qori, Ubaydulla Asadullaxo‘jaev, Ahmad Zakiy Validiy, Abdurauf Fitrat, Ishoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy,

³² Закий Валидий Туғон. Хотиралар./ Ш.Турдиев таржимаси// Шарқ юлдузи. 1993. № 5.- 8-бет.

Fayzulla Xo‘jaev va boshqa jadid ma’rifatchilari jamiyat hayotini isloh qilish, yangilash tarafdorlari sifatida, mahalliy maktab va madrasalarda diniy ilmlar bilan birga, biologiya, zoologiya, geografiya, astronomiya, tarix, fizika, geometriya kabi dunyoviy ilmlarni o‘qitish talabi bilan chiqdilar. Jadid ma’rifatchilari qrimlik buyuk pedagog Ismoil Gaspirali nashr etayotgan “Tarjimon” gazetasida bosilib turgan milliy uyg‘onishga bag‘ishlangan asarlardan ruhlanib, yangi gazetalar nashrini yo‘lga qo‘yish bilan birga, yangi usuldagi maktablar ochdilar. Jadid ma’rifatchilari Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligida xon va amirlarni ham vatanparvarlik harakatiga tortishga urindilar.

Fitratning Buxoro amiri Olimxonga kuchli zaxarxandalik ruhida yozgan quyidagi maktubi buning yorqin dalilidir. Maktubda shularni o‘qiymiz: “Sening qodir qo‘ling idora qilayotgani musulmon yurtida iymonimizni po‘pg‘a, azonimizni qo‘ng‘iroqqa, masjidimizni cherkovga almashtirmoqdan o‘zga chora qolmas. Bizning xaloskorimiz kim? Bizning ojiz qo‘limizdan tutib, bu balo girdobidan kim qutqara oladi? Kofirlar butun olam oqillarining nazdida o‘z nomini Inson yozdirlasalar, bizning jimod?.. Kofirlar kamoli davlatmandlik va osudalik bilan hayot kechirlasalar-u, biz nega gadoylikka rozi?”³³

O‘sha davrdagi murakkab vaziyat to‘g‘risida Cho‘lpon “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914-yil 6-iyun sonidagi “Vatanimiz Turkistonda temir yo‘llar” maqolasida quyidagilarni yozadi: “Ey qarindoshlar! Ovruponing mo‘dasidan, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bularg‘a bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, san‘atga o‘xshashlik madaniyatlaridan namuna olib, bul jihatdan taqlid qilmoqingiz lozimdur. Ovruponing mo‘dasi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan asir-qul qiladur. Bundan saqlaningiz”³⁴.

Adibning “Ishtirokiyun” gazetasining 1920-yil 10-yanvar sonidagi “Marhum Tavfiq Fikrat” maqolasida o‘sha davr hayotini “vahshatobod” deb atashi bejiz emas edi. “Dunyoning vahshatlari, – deyiladi maqolada, – hamon davom etmoqda, mazlumlar inqilobigina

³³ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. -Тошкент: Маънавият, 2000. -95-96-бетлар.

³⁴ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 4-жилд. -Тошкент: Akademnashr, 2016. -10-бет.

nihoyat bermasa (chek qo‘ymasa – U.Sh.) boshqa najot ko‘rilmaydir”³⁵.

Natijada najot ma‘rifatparvarlikda deb belgilangan milliy uyg‘onish mafkurasi milliy-ozodlik harakatlari bilan uyg‘unlashib ketdi.

Buyuk ma‘rifatchi, millatning tarbiyachisi Abdulla Avloniyga kichik zamondosh va maslakdosh bo‘lgan Abdulhamid Cho‘lpon “Buzilgan o‘lkaga” she‘rida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘ngilga borib tegadigan quyidagicha o‘tli satrlar bitishi ana shunday qarashlar mahsulidir:

...Salqin suvlar tog‘dan quyi tusharkan,
Tomchilari yomg‘ir kabi ucharkan,
Nima uchun yig‘lar kabi ingraylar?
Yov bormi deb to‘rt tarafni tinglaylar?!³⁶

She‘rda shoir yurt qayg‘usini izhor qilar ekan, bu o‘lkaning tog‘lari yuksakligini, buloqlari jannatdagi kavsar suviday toza va tiniqligini, lekin bu suvlarning haqiqiy egalari g‘aflatdaligini, egalari loqaydligi bois yovlar kelib, izg‘ib yurganini betakror poetik manzaralarda, tabiatning xalq qismati yanglig‘ majruhlik holatlarida qalamga oladi.

She‘r davomida bu qayg‘uli holat yanada chuqurlashadi hamda bu qayg‘u-izdihom sabablari asta-sekin ochila boradi:

Ko‘m-ko‘k, go‘zal o‘tloqlaring bosilg‘on,
Ustlarida na poda bor, na yilqi,
Podachilar qaysi dorg‘a osilg‘on?
Ot kishnashi, qo‘y ma‘rashi o‘rniga
- Oh, yig‘i. Bu nega?³⁷

Bu manzara tasviridan shunday ma‘no kelib chiqadiki, go‘zal buloqlar va o‘tloqlarni bosqinchilar kelib toptagan, suruv-suruv podalar, yilqilarni olib ketgan.

She‘r davomida shoir o‘zi bilsa-da, undagi yashirin ma‘noni ritorik so‘roq yordamida oshkor etadi:

Tumorchalar, hamoyillar taqingan,
Dalalarda lola bargi yopingan,

³⁵ Ўша манба. 168-бет.

³⁶ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. -Т.: “Akademnashr”, 2016. -88-бет.

³⁷ Ўша манба. 88-бет.

Tog‘-toshlarda o‘yin qilgan, chopingan –
Go‘zal qizlar, yosh kelinlar qaerda?
Javob yo‘qmi ko‘klardan-da, yerdan-da,
Xarob bo‘lgan eldan-da...³⁸

O‘quvchi sezadiki, bu savollarga javob ushbu misralar qatida ro‘y-rost o‘z ifodasini topgan: ilgari sho‘xlik qilib, o‘ynab-kulib yurgan qizlar, kelinlar endi ko‘rinmaydi, chunki el-yurt buzilgan, xalq ayanchli ahvolga tushgan. Yeru ko‘kda bunga javob yo‘q.

Vatan taqdiri ikki o‘t o‘rtasida turgan bir vaziyatda kurashga da‘vat etuvchi bunday she‘r bilan o‘quvchi ahliga murojaat qilish olov bilan o‘ynashish bo‘lib, ijodkordan so‘ngsiz jasorat talab qilishi tayin edi. Shuning uchun ham vatan qayg‘usini yurak dardi deb his etgan Cho‘lponning vatandan judolik iztiroblari, orzu-armonlari hozirgi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi, istiqlolni qadrlashga o‘rgatadi.

Mana shunday ijtimoiy-madaniy muhitda o‘sib, ulg‘aygan Abdulhamid Cho‘lpon o‘zining yuksak badiiy nafosat bilan yo‘g‘rilgan go‘zal she‘rlarida aziz vatanini tutqunlikka solgan dushmanlarni, mustamlakachilarning yovuzligini fosh etib, la‘natladi. Bir qarashda tabiatdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq peyzaj lirikasini esga soluvchi “Kuz” she‘rida tabiat tasviri o‘z mohiyatida tilga olinmasdan, shoirning asosiy g‘oyasini ifodalashda bir fon vazifasini o‘taganini ko‘rish mumkin. Shoir yozadi:

Qora bulut to‘dasikim, ko‘katlarni
Sharqni yopgan parda yanglig‘ yopmishdir.
Kuz qo‘shini og‘u to‘lug‘ o‘qlarin
Yoz bag‘riga hech sanoqsiz otmishdir.

Balo yanglig‘ qator-qator chizilib,
Ko‘k yuzidan qarg‘alar ham o‘talar.
Sharqdek ichdan yashiringina ezilib,
Ko‘k jonlilar so‘nggi tinni kutalar...³⁹

Aslida bulut haqida gap ketganda dastlab kuzdagi tabiat manzarasi, namxush havo, dov-daraxtlar, o‘t-o‘lanlardagi so‘lg‘inlik tufayli shoir kechinmalarida tug‘iladigan ezgin kayfiyat tasviri

³⁸ Ўша манба. 88-бет.

³⁹ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. -Т.: “Академнашр”, 2016. -86-бет.

xayolga uriladi. Lekin she'ning ma'no-mantig'iga chuqur singdirilgan osmonni qoplagan "qora bulut to'dasi" garchi tabiat hodisasi bo'lsa-da, Cho'lponning o'quvchida tushkun kayfiyat uyg'otishdan maqsadi aslo tabiat hodisasiga bog'liq bo'lmasdan, inson ruhiyatidagi tushkunlikka ishora qilish orqali uning kelib chiqish sabablariga diqqat qaratishdir. Shoir kechinmalaridagi mahzunlik holatining asl sababi shunchaki bulut emas, Vatanning "qora bulut to'dasi" tomonidan bosib olinishiga ishora ekanligini anglash qiyin kechmaydi. Gap shundaki, ushbu she'r yozilishidan uch yil avval (1918-yilning mart oyida) qizil imperiya qo'shinlari yosh, mustaqil davlat – Turkiston muxtoriyatini bosib olib, shaharga o't qo'yib, o'n minglab xalqni qonga botirgan edi. Shoir mana shu fojeaga, vatan va millat qayg'usiga ishora qilar ekan, xalqni o'z nomusi, g'ururi toptalgani uchun o'ch olishga chaqiradi.

O'quvchilarga ushbu she'ning badiiy-g'oyaviy xususiyatlarini, estetik-tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirishda uning xalqparvarlik, mazlum xalqlarga chuqur hamdardlik ruhida yozilganini ta'kidlash zarur.

Shuni ham aytish joizki, insonparvarlik bilan xalqparvarlik bir-biridan ayri-ayri tushunchalar bo'lmay, vatanparvarlik bilan chambarchas bog'liqdir va shu jihatdan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-huquqiy tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

Sho'rolar davlati barcha millatlarning milliy o'ziga xosligini, ma'naviy meroslarini yo'qotib, sun'iy xalq – sovet xalqini vujudga keltirishga urindi. Tarixga bunday zo'ravonlik qilish o'zini oqlamadi, mazlum xalqlar o'zlarining necha ming yillik milliy davlatchiligini, milliy ma'naviy-diniy qadriyatlarini unutmadilar.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti yoshlarning ma'naviy musaffoligini saqlashda pedagoglar bilan bir qatorda ijodkor ziyolilar, shoir va yozuvchilarning asarlari muhim ahamiyatga ega ekanligini bejiz ta'kidlamagan edi. "Barchamizga ayonki, - deb yozgan edi u "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" risolasida, - XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, biz ilgari ko'rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyat ertangi kunini o'ylab, odamlarni ezgulikka,

insof-diyonatga, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda"⁴⁰.

Bu fikrlar Cho'lpon ijodiga ham to'la taalluqli bo'lib, mustaqillikning qadriga yetish, ogohlikka da'vat qilish, vatanga muhabbat tuyg'usini kamol toptirish jihatidan barkamol shaxs tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyotiga nazar tashlansa, inson ma'naviy kamolotida Vatan timsoli yuksak maqomda turganini, xalqni ulug' maqsadlar yo'lida birlashtiruvchi qudratli kuch ekanini ko'rish mumkin.

Shuning uchun ham umumiy o'rta ta'lim tizimida millat va vatan tarixiga daxldor ajdodlarimiz merosini o'rganish ma'naviy-intellektual ehtiyoj natijasida yuzaga kelgan. Ana shu zarurat tufayli adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarda Vatan tarixini chuqur o'rganish, ma'naviy-madaniy merosimizga ehtirom uyg'otish, Vatanga muhabbat tuyg'usini kamol toptirishda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi tarixiy, adabiy-badiiy manbalar, xususan, Cho'lponning vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'liq pedagogik qarashlarini o'rganish zamini mustahkam ijtimoiy omil vazifasini o'taydi.

Tarixiy manbalar Vatan va vatanparvarlik tushunchalari kecha yoki bugun yuzaga kelmaganini anglatadi. Milliy ta'lim-tarbiyaga oid adabiyotlar tahlili vatanparvarlik tarbiyasi o'zining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida turfa o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, O'rta Osiyo hududida yuz bergan har bir davrning ijtimoiy-siyosiy voqealari vatanparvarlik tarbiyasining kamol topishi uchun o'ziga xos zamin hozirlagan, deyish mumkin. "Avesto", "Bexustun", O'rxun-Enasoy yodnomalari hamda Gerodot va Polien kabi qadimgi yunon tarixchilari asarlari orqali bizgacha yetib kelgan "To'maris", "Shiroq" singari tarixiy afsonalar, shuningdek, tildan-tilga, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelgan xalq qo'shiqlari, rivoyatlar, maqol va dostonlardan ma'lumki, mazkur tushunchalar aslida butun insoniyatga xos bo'lgan tarixiy va muqaddas qadriyatlaridir. Zero,

⁴⁰ Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. –Т.: "Ўзбекистон" 2009.- 11-12-бетлар.

yozma adabiyotlar ham Vatan timsoliga oid “vatanparvarlik” tushunchasi bilan bog‘liq xalq dahosining nechog‘li keng qamrovli va teranligidan dalolat beradi.

Vatan mavzusiga oid ilmiy adabiyotlarda, tarixiy, adabiy-badiiy manbalarda har bir xalq va har bir avlodning Vatanga bo‘lgan munosabati hayoti va kurash yo‘li misolida o‘ziga xos tarzda turlicha ifoda etilgan, turlicha ta’rif berilgan bo‘lsa-da, ularni Vatanga bo‘lgan adoqsiz muhabbat va uning taqdiri uchun yuksak mas’uliyat tuyg‘usi birlashtirib turadi.

Milliy uyg‘onish davrida vatanparvarlik Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat, Hoji Muin, Cho‘lponlar ijodida da’vatkorlik, mushohadakorlik, jangovarlik, kurashchanlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan bo‘lsa, mustaqillik davri adabiyotida shukronalik, mas’uliyat, kelajakka ishonch, faxr va g‘urur tuyg‘ulari bilan to‘yintirilganini kuzatish mumkin.

Shu jihatdan qaraganda, Cho‘lpon ijodidagi yetakchi g‘oya Vatan timsoli zimmasiga yuklanganini anglash mumkin.

“Go‘zal”, “Xalq”, “Xayol”, “Aldanish” she‘rlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, Cho‘lpon ijodida Vatan tuyg‘usi shoirning bevosita o‘z shaxsiy kechinmalari, faqat o‘zigagina tegishli tuyg‘u sifatida qalamga olinishi asarlarining nafaqat aqliy, balki chuqur hissiy idrok qilinishiga ham yordam beradigan, Vatan timsolining inson taqdiri bilan bog‘liqligi yuzasidan teran o‘yga toldiradigan botiniy ichki omillardandir.

Cho‘lpon ijodini hayotidan alohida o‘rganganda ko‘zlangan maqsadga to‘liq erishib bo‘lmaydi. Negaki shoirning har bir asari o‘zi yashagan davr voqeligi tufayli qalbidan kechgan Vatan erki bilan bog‘liq inja tuyg‘ularning shaffof ifodasidir. Boshqacha aytganda, Cho‘lpon “nazmda tuyg‘ular musavviri (Bahrom Ro‘zimuhammad)dir. U Vatanga muhabbatini faqat shoir sifatida emas, balki farzandlik mehri ila majnunnamo xokisorlik bilan kuyga soladi. Shuning uchun ham asarlarida Vatan taqdiri bilan bog‘liq o‘z e’tiqodini insoniylik mezoni deb bilgan shoirning tiyrak nigohi ayon sezilib turadi.

Ushbu bobda ko‘rib chiqilgan masalalar yuzasidan quyidagicha xulosaga kelindi. Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyotiga nazar tashlansa, inson ma’naviy kamolotida Vatan timsoli yuksak

maqomda turganini, xalqni ulug‘ maqsadlar yo‘lida birlashtiruvchi qudratli kuch ekanini ko‘rish mumkin.

Shuning uchun ham umumiy o‘rta ta‘lim tizimida millat va vatan tarixiga daxldor ajdodlarimiz merosini o‘rganish ma‘naviy-intellektual ehtiyoj natijasida yuzaga kelgan. Ana shu zarurat tufayli adabiy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda Vatan tarixini chuqur o‘rganish, ma‘naviy-madaniy merosimizga ehtirom uyg‘otish, Vatanga muhabbat tuyg‘usini kamol toptirishda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi tarixiy, adabiy-badiiy manbalar, xususan, Cho‘lponning vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog‘liq pedagogik qarashlarini o‘rganish zamini mustahkam ijtimoiy omil vazifasini o‘taydi.

Tarixiy manbalar Vatan va vatanparvarlik tushunchalari kecha yoki bugun yuzaga kelmaganini anglatadi. Milliy ta‘lim-tarbiyaga oid adabiyotlar tahlili vatanparvarlik tarbiyasi o‘zining ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida turfa o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa-da, O‘rta Osiyo hududida yuz bergan har bir davrning ijtimoiy-siyosiy voqealari vatanparvarlik tarbiyasining kamol topishi uchun o‘ziga xos zamin hozirlagan, deyish mumkin. “Avesto”, “Bexustun”, O‘rxun-Enasoy yodnomalari hamda Gerodot va Polien kabi qadimgi yunon tarixchilari asarlari orqali bizgacha yetib kelgan “To‘maris”, ”Shiroq” singari tarixiy afsonalar, shuningdek, tildan-tilga, avlodlardan-avlodlarga o‘tib kelgan xalq qo‘shiqlari, rivoyatlar, maqol va dostonlardan ma‘lumki, mazkur tushunchalar aslida butun insoniyatga xos bo‘lgan tarixiy va muqaddas qadriyatlaridir. Zero, yozma adabiyotlar ham Vatan timsoliga oid “vatanparvarlik” tushunchasi bilan bog‘liq xalq dahosining nechog‘li keng qamrovli va teranligidan dalolat beradi.

Vatan mavzusiga oid ilmiy adabiyotlarda, tarixiy, adabiy-badiiy manbalarda har bir xalq va har bir avlodning Vatanga bo‘lgan munosabati hayoti va kurash yo‘li misolida o‘ziga xos tarzda turlicha ifoda etilgan, turlicha ta‘rif berilgan bo‘lsa-da, ularni Vatanga bo‘lgan adoqsiz muhabbat va uning taqdiri uchun yuksak mas‘uliyat tuyg‘usi birlashtirib turadi.

Milliy uyg‘onish davrida vatanparvarlik Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat, Hoji Muin, Cho‘lponlar ijodida da‘vatkorlik, mushohadakorlik, jangovarlik, kurashchanlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan

bo'lsa, mustaqillik davri adabiyotida shukronalik, mas'uliyat, kelajakka ishonch, faxr va g'urur tuyg'ulari bilan to'yintirilganini kuzatish mumkin.

Shu jihatdan qaraganda, Cho'lpon ijodidagi yetakchi g'oya Vatan timsoli zimmasiga yuklanganini anglash mumkin.

“Go'zal”, “Xalq”, “Xayol”, “Aldanish” she'rlari tahlili shuni ko'rsatdiki, Cho'lpon ijodida Vatan tuyg'usi shoirning bevosita o'z shaxsiy kechinmalari, faqat o'zigagina tegishli tuyg'u sifatida qalamga olinishi asarlarining nafaqat aqliy, balki chuqur hissiy idrok qilinishiga ham yordam beradigan, Vatan timsolining inson taqdiri bilan bog'liqligi yuzasidan teran o'yg'a toldiradigan botiniy ichki omillardandir.

Cho'lpon ijodini hayotidan alohida o'rganganda ko'zlangan maqsadga to'liq erishib bo'lmaydi. Negaki shoirning har bir asari o'zi yashagan davr voqeligi tufayli qalbidan kechgan Vatan erki bilan bog'liq inja tuyg'ularning shaffof ifodasidir. Boshqacha aytganda, Cho'lpon “nazmda tuyg'ular musavviri (Bahrom Ro'zimuhammad)dir. U Vatanga muhabbatini faqat shoir sifatida emas, balki farzandlik mehri ila majnunnamo xokisorlik bilan kuyga soladi. Shuning uchun ham asarlarida Vatan taqdiri bilan bog'liq o'z e'tiqodini insoniylik mezoni deb bilgan shoirning tiyrak nigohi ayon sezilib turadi.

II BOB. VATANPARVARLIK TARBIYASIDA CHO‘LPON IJODIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

2.1-§. Cho‘lpon she‘riyatida Vatan timsolining badiiy-estetik talqini va uning ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyati

Vatanparvarlik tuyg‘usi bilan bog‘liq komil inson tarbiyasining nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishda biologik, ijtimoiy-falsafiy va pedagogik omillarning uyg‘unligi, biri ikkinchisini to‘ldirib kelishi, ijtimoiy voqelik qonuniyatlarining bir-biri bilan bog‘liqligi uzviy o‘rganiladi.

Grekcha aesthesis – hissiy idrok ma‘nosini anglatuvchi falsafiy estetik tafakkur o‘z mohiyatiga ko‘ra insonning voqelikka estetik munosabatlari va olamni o‘zlashtirish qonuniyatlari asosida estetik ong, his-tuyg‘u va san‘atning ijtimoiy borliqqa, inson hayotiga munosabati masalasini diqqat markazida tutar ekan, go‘zallik va xunuklik, olijanoblik va qabihlik, yaxshilik va yomonlik kategoriyalari misolida birini ma‘qullaydi, ikkinchisini rad etadi hamda aynan shu xususiyati tufayli falsafiy, axloqiy-estetik qarashlar rivojiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Cho‘lponning adabiy, axloqiy-estetik qarashlarining pedagogik nuqtai nazardan kamol topishida “shaxs – millat – Vatan” kontseptsiyasining kontseptual asoslari qanday manbalarga suyanadi degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bizningcha, bu borada mustamlaka sharoitida muqarrar yuzaga keladigan milliy-ozodlik harakatlarini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Bundan shaxs erki milliy ozodligi va Vatan obodligi negizida turishini anglash qiyin kechmaydi. Milliy uyg‘onish tafakkuridan milliy-ozodlik g‘oyasining tug‘ilishi Cho‘lpon ijodiga jo‘shqin ruh bag‘ishlagan adabiy-estetik qarashlar mohiyatini tashkil etadi, ijodiy ruh beradi, kurashchanlik tuyg‘usini oziqlantiradi, deb tushunsak to‘g‘ri bo‘ladi. Adabiyot darslarida bu g‘oyani o‘quvchilarga yetkazishda tarixiy-madaniy tahlil usullariga murojaat qilish ijobiy samara berishi mumkin.

Tadqiqotchi D.Jabborovning fikricha, adabiyotshunoslikda tarixiy-madaniy tahlil maktabi sifatida ta‘riflanadigan yo‘nalish G‘arbiy Yevropada XVIII asrda vujudga kelgan.

Darhaqiqat, “Методы изучения литературы” (“Adabiyotni o‘rganish metodlari”) nomli o‘quv qo‘llanmada (2002) I.Ten asos solgan tarixiy-madaniy metodning adabiyotga, muayyan bir ijodkor yoki badiiy asarga yondashish bilan bog‘liq xususiyatlari to‘g‘risida atroflicha ma’lumot berilgan.

Ularning fikricha, tasvir va talqin obyektiga madaniy-tarixiy yondashuvda muallifning (aksariyat mualliflar tarixshunos, adabiyotshunos yoki biror-bir soha mutaxassisi bo‘lishi bilan izohlanadi) ilmiy salohiyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ayni shu xususiyat bevosita Cho‘lpon ijodiga ham tegishlidir.

Adabiyotshunoslar Qozoqboy Yo‘ldosh va Muhayyo Yo‘ldosh “Badiiy tahlil asoslari” kitobida madaniy-tarixiy yondashuvga xos xususiyatni shunday ta’riflaydi: “...birinchidan, xuddi tabiat hodisalari singari badiiy matnlarning dunyoga kelishi va ularga xos xususiyatlarni ham deterministik usulda, ya’ni ijtimoiy-tarixiy sabab-oqibat munosabatlari asosida izohlash mumkin. Ikkinchidan, adabiy-ijodiy hodisalardagi formal mantiqqa bo‘y bermaydigan jihatlarga ortiqcha e’tibor qaratib, ularni kuchaytirmay, badiiy yaratilarga tabiat hodisalarini izohlagandagi kabi faktlarni sharhlash va qonuniyatlarni qarshi qo‘yish kerak. Uchinchidan, personajning irqiy yoki milliy temperamenti, u shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy va jo‘g‘rofiy muhit, uning hayoti kechayotgan davr tasviri, u mansub millatning madaniy darajasi hamda mavjud badiiy an’analar kabi omillar har qanday san’at hodisasining yuzaga kelishini ilmiy izohlash va uning qonuniyatlarini tayin etish uchun yetarli asos bo‘la olishi ko‘zda tutilishi lozim”⁴¹.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Cho‘lpon she’rlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, mavzu doirasi hamda yetakchi kontseptsiyasining muallif shaxsi, axloqiy-estetik qarashlari va ijodiy-ijtimoiy faoliyati bilan bog‘lab talqin qilinganini ko‘rish mumkin.

Professor Olim Sharafiddinovning o‘sha davrdagi qarashlari buning yorqin dalilidir.

Munaqqid fikricha, Cho‘lpon she’rlarining barchasini nazardan o‘tkazib yaxlit tasavvur hosil qilinsa, to‘laqonli lirik qahramon

⁴¹ Йўлдошев К., Йўлдошева М. Бадий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. -354-б.

siymosi namoyon bo'ladi⁴². "Zamon g'oyat shiddatli, g'oyat ziddiyatli edi, shuning uchun Cho'lponning lirik qahramoni ham g'oyat murakkab xarakter kasb etadi. Shoirning bunday she'rlarini shiddatli ijtimoiy o'zgarishlar davrining badiiy hujjati deyish mumkin"⁴³.

Shuning uchun ham Cho'lpon ijodi tahlilida shoir she'rlarining yuksak badiiyat namunalari bo'lish bilan birga, ayni paytda o'sha davrdagi vatanparvarlik tarbiyasiga oid qarashlarning badiiy hujjati ekanligiga ham e'tibor qaratish zarur.

Adabiyotshunos Sh.Hojievaning quyidagi mulohazasi ham fikrimizni tasdiqlaydi. "Turkiy xalqlar boshida, - deb yozadi olima, - asrlar bo'yi davom etib kelayotgan milliy inqirozni bartaraf etish va dunyoning ilg'or xalqlari qatoriga olib chiqishni ko'zda tutuvchi jadidchilik harakati, milliy uyg'onish g'oyalari shoir (Cho'lpon) ijodining mafkuraviy asosini tashkil etar edi"⁴⁴.

Sh.Hojievaning "Cho'lpon va milliy she'riyatning yangilanishi" mavzusidagi tadqiqot ishida *o'ta murakkab tarixiy sharoit; ma'naviy yetuk va moliyaviy to'kis oila muhiti; yurt ozodligi uchun kurash maydoniga kirish; rus va turk adabiyoti orqali jahon adabiyoti bilan tanishuv; ruhiy bosimga qarshi tura olish* omillari shoir badiiy-estetik tafakkurining shakllanishi va rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy va biografik omillar sifatida qayd qilinishi aslida Cho'lponning publitsistik va nasriy asarlariga ham to'la taalluqlidir.

Zero, Aristotel qayd qilganidek, "har qanday sezgi, istak-mayl yoki o'y-xayol biror narsa, hodisaga (xilqatga – U.Sh.) intilar ekan, o'sha narsadan qandaydir rohat-farog'at oladi, shu ma'noda o'sha hodisa ajib yoki go'zal (yoki barkamol) bo'ladi. O'sha xilqatni tilash, mayl yoki hamdardlik bildirish bilan u haqda fikr bildirish muvofiq, uyg'unlashgandagina barkamollik yuzaga keladi"⁴⁵.

Bundan Cho'lponning milliy-ozodlik g'oyasi bilan yo'g'rilgan vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'liq adabiy-estetik qarashlarining

⁴²Жабборова Д. Чўлпоншунослик. – Т.:Мухаррир nashriyoti, 2019. -90-б.

⁴³Шарафиддинов О. Чўлпон. – Т.: Чўлпон, 1991. - 29-31-б.

⁴⁴ Ҳожиева Ш. Чўлпон ва миллий шеъриятнинг янгиланиши.-Тошкент: "Мухаррир nashriyoti", 2019.- 31-бет.

⁴⁵ Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир.-Тошкент: Янги аср, 2004.-47-бет.

asarlarida uyg'un aks etishini adibning ijodiy yutug'ini ta'minlagan muhim omillardandir degan xulosaga kelish mumkin.

Shunisi e'tiborliki, inson hayot va tabiat go'zalliklaridan bahra olishi, zavqlanishi bilan birga qayg'uli, fojeali hodisalardan ham saboq oladi, ruhi poklanadi. Yunon faylasufining "Poetika" asarida san'at asarlari tufayli insonning ruhiy poklanishini "katarsis" deb atashidan ma'lumki, estetik tarbiya inson xulqini nafosat bilan bezashi haqidagi mushohadalar qadimdan olimlarning diqqat markazida bo'lganligini ko'rsatadi.

7-sinf adabiyot darslarida Cho'lponning Vatan tuyg'usiga bag'ishlangan she'riy asarlarida lirik qahramonlar qalbidan chuqur joy olgan go'zallik va nafosat, qayg'u va quvonch tuyg'ularining nozik tovlanishlari ko'proq tabiat tasviri fonida berilganini kuzatish mumkin. Zero, shoir tabiat go'zalliklariga nisbatan oshiqona munosabati orqali Vatanga bo'lgan inja tuyg'ularini g'oyatda nafis va nozik pardalar qatiga joylaydi.

1919-yilning fevralida yozilgan mashhur "Go'zal" she'rida shoir ona Vatan go'zalligi va muqaddasligini, yulduz, Oy, Kun (Quyosh)ning ulug'vorligi bilan muqoyasa qilish orqali ayon etadi:

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'rayman.
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,
Aytadir: "Men uni tushda ko'ramen:
Tushimda ko'ramen, shunchalar go'zal,
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!..."⁴⁶

Ko'rinadiki, lirik qahramonning tasavvur ufqi nihoyatda keng. Uning qorong'u kechada ko'kka ko'z tikishi, "yulduzning uyalib boshini bukishi", hatto tushlarida ko'rishi, shamolning sochlarini yoyib yo'ldan adashishi bir nuqtada – vatanning go'zalligi qarshisida to'qnashishidan ma'lumki, yetti iqlimda uning o'xshashi yo'qdir.

O'rta umumiy ta'lim maktablarida mazkur she'r Cho'lpon ijodi bilan tanishtirish avvalida beriladi. Darslik mualliflarining o'quvchilarni Cho'lpon ijodi bilan ilk tanishuvda aynan shu she'rni tanlashi bejiz emas. Zero, she'r o'zining jozibador tili, badiiy san'atlarning qo'llanishi ko'lami kengligi bilan alohida ajralib turadi.

⁴⁶ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1- жилд.-Т.: Akademnashr, 2016.-31-бет.

Adabiyotshunoslikda she'r tahlili yuzasidan talaygina olimlar o'z fikrlarini bildirishgan. Jumladan, akademik olim Naim Karimov she'r tahlilida she'rning bosh qahramoni go'zal timsolida sevikli yor nazarda tutilganini ta'kidlash bilan birga yor go'zalligini majoziy obrazlar yordamida tasvirlashi haqida gapirgan.

She'r yuzasidan T.Abdukarimovning bildirgan fikrlari ham diqqatga sazovor. Metodistning she'r mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtirishda shoirning g'oyaviy niyati Vatan sevgisini ulug'lash ekanligi haqidagi fikrlari kishini mushohadaga chorlaydi.

Olima Sh.Hojieva she'r tahlili ustida to'xtalib, Cho'lpon ijodida folkloriy obrazlar ko'lami, "Go'zal" she'rida ham folga aloqador motivlarning mavjudligini aytib o'tgan: "Quyidagi misralarda, - deb yozadi olima,- lirik qahramonning osmon ruhlariga murojaat qilib, yulduz va oy chiqishiga qarab o'z taqdirini oldindan bilishga intilishlari ayonlashadi:

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib

Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen..."⁴⁷

She'rning o'quvchini diqqatini tortadigan jihati uning tuzilishidir. Cho'lpon bu she'rini yaratishda Alisher Navoiydan andoza olgani sezilib turadi. Cho'lpon ijodining bu jihati haqida navoiyshunos olim Homil Yoqubov: "U (Cho'lpon – U.Sh.) Navoiy lirikasining badiiylik siru asroridan ozmi-ko'pmi xabardor bo'lib, undan ijodiy isti'foda etish va o'zlashtirishga urinishda Alloh ato qilgan fitriy (tug'ma) salohiyatini kashf etishda muvaffaqiyat qozonib, o'zbek xalqining milliy iftixoriga sazovor bo'ladi... Cho'lpon Navoiyning milliy (turkiygo'ylik ma'nosida) lirik an'anasining son-sanoqsiz hamma turlarini emas, boshlicha bir turini o'z talantiga xos usulda o'zlashtirdi"⁴⁸. Bizningcha, shunday o'zlashtirishlardan biri "Go'zal" she'rining yaratilish shaklidir.

She'r ko'p jihatdan badiiy san'atlardan biri tadrij (she'rda hisni, manzarani va ta'sirni poyama-poya tadrij bilan kuchaytirishga xizmat qiluvchi usul)⁴⁹ ning qo'llanishi jihatidan Navoiyning "Jonga chun dermen..." deb boshlanuvchi g'azaliga o'xshaydi. Navoiy

⁴⁷ Хожиева Ш. Чўлпон ва миллий шеърятнинг янгиланиши.-Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2019, - 70-бет.

⁴⁸ Ёқубов Х. Чўлпон ва Навоий.-Тошкент: Шарқ, 1997. - 22-бет.

⁴⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. -636-б.

ko'ngilga ishq o'ti tushishi sabablarini jondan, jismdan, bag'irdan, ko'ngildan, ko'zdan so'ragani kabi Cho'lpon ham sevgisini so'roqlab yulduz, oy, quyosh va shamolga murojaat qiladi. Natijada lirik qahramon qalb kechinmalari Navoiy g'azalida bo'lgani kabi darajama-daraja o'sib boradi.

Cho'lpon she'rining xotimasida ham Navoiy g'azaliga monandlik ko'zga tashlanadi. Navoiy o'z g'azalini:

Ey Navoiy, barcha o'z uzrin dedi, o'lguncha kuy,

Kim sanga ishq o'ti – o'q ermish azalning qismati,⁵⁰ - deya yakunlasa, Cho'lpon ham she'r yakunida Navoiy an'anasiga sodiq qoladi:

Men yo'qsil, na bo'lib uni suyubmen,
Uningchun yonibmen, yonib-kuyibmen,
Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen,
Men suyib...men suyib, kimni suyibmen?
Men suygan suyukli shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!⁵¹

Hayotda nimaiki go'zal ekan, u axloqiy (Flober)ligi nazarda tutilsa, Cho'lponning Vatan erki bilan bog'liq go'zallik tushunchasining qay darajada teranlik va cheksizlik kasb etishini anglash qiyin kechmaydi.

Yoshlarni Vatan va xalq tarixini shunchaki biluvchi kishilar emas, balki uni qalbdan his etuvchi, tushunuvchi, samarali faoliyati orqali uning taraqqiyotiga xizmat qiluvchi chin vatanparvar va xalqparvar qilib tarbiyalashda Cho'lpon she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'zlashtirish muhim vosita vazifasini o'taydi.

Shunisi e'tiborliki, Cho'lpon she'riyatida tabiat manzaralarining Vatan tuyg'usi bilan hamohangligi shoirning vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'liq muhim estetik va siyosiy idealini ichdan nurlantirishga xizmat qiladi.

Cho'lpon tarjimai holidan ma'lumki, 1920-yilda go'zal she'rlari bilan ancha taniqli bo'lib qolgan shoirni Bokuga, Sharq xalqlari qurultoyiga yuboradilar. Shu qurultoydan keyin uning she'riyatida mazlum Sharq mavzusi, mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash

⁵⁰ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик, 1-том. – Тошкент: Фан, 1987. 520 б.

⁵¹ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. -Т.: “Академнашр”, 2016. -31-бет.

ohanglari kuchayadi, erkni kuylash, Vatan taqdiriga daxldorlik yanada teranroq mazmun kasb etadi. U shu safar vaqtida yozilgan “Yorug‘ yulduzga” (Hazar esdaliklari) (1921) she’rida dengiz manzaralarini tasvirlash orqali vatanimizni chet el bosqinchilaridan himoya qilolmagan, faqat o‘z kayfu safosini o‘ylab, xalqni ezgan xonlarni qoralaydi.

Falokatlar ko‘rgan ota-bobolar,
Istiqlolning qimmatini bilmagan.
El va yurtni saqlar uchun so‘ng xonlar
Tuzukkina chora, tadbir qilmagan⁵².

She’rda lirik qahramonning bir qadar mahzun kayfiyati, sezimlarining tarangligi oxirigacha shunday qolib ketmaydi, balki Vatan muhabbati tufayli ruhlantiruvchi, kurashlarga chorlovchi kuch-qudrati junbushga keladi.

Cho‘lpon “Tabiatga” she’rida Vatan tabiatining go‘zalligini sevikli yor go‘zalligidan ham a’lo deb biladi, uni ijobiy ma’noda ideallashtiradi – estetik idealga aylantiradi:

...Tanlaring nur, yuzlaring nur, tenglaring hurdir sening,
Yoqut oylardin qo‘yilg‘on yog‘dular dandur taning.
Ko‘k yuzida barcha yulduzlar suyunchingdur sening,
Kulmagingdur bog‘chalarga turli gullarin sochar,
Ko‘z qarashingdur sening, elga saodatlar ochar...
O‘ynashingdur o‘ynoqi yumshoq shamolni qo‘zg‘atar,
To‘xtashingdur, dunyoda barcha qushni sayratar.
Bir tabassum qilmog‘ingdur, barcha jonni yayratar.
Kuylashingdur, uyquda qotgan jahonni uyg‘otar⁵³.

O‘quvchilarni she’riy asarlar tahliliga o‘rgatishda Cho‘lponning mazkur she’rda qudratli tabiat stixiyasini rassomlarday jonli manzaralarda chizib ko‘rsatishiga, tabiat hodisalariga Vatanning bir parchasi sifatida quyidagicha botiniy va serqatlam ma’nolar yuklashiga e’tibor qaratiladi:

1. Haqiqiy tabiat qahri kelganda ham juda go‘zal va qudratli.
2. Tabiat qudrati oldida odamlarning eng qudratlisi ham ojiz bo‘lib qoladi.

⁵² Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. -Т.: “Akademnashr”, 2016. -58-бет.

⁵³ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. -Т.: “Akademnashr”, 2016. -51-бет.

3. Ijtimoiy, ramziy ma'no: xalq ommasi qullikka, mustamlakachilikka qarshi qo'zg'olsa, "tog'day qumlar ko'chib, do'llar quyib, to'fon bosishi mumkin. Katta to'lqinlar kelsa, kichik to'lqinlar qochadi..."

Xuddi shuningdek, Cho'lponning tabiat haqidagi "Po'rtana" she'rida ham Vatan timsoli bilan bog'liq bir necha qatlamdan iborat ma'nolar tajassumini kuzatish mumkin:

1. Haqiqiy, realistik dengiz notinchligi manzarasi. Bu bizga rassomning "Dolg'a" kartinasini eslatadi.

Po'rtana qo'zg'aldi, po'rtana yurdi,
Po'rtana o'zini qirg'oqqa urdi.
Po'rtana oldida bir kema ko'rdi:
Ichida zich odam...o'ynatdi, surdi...

...Faryod der qirg'oqlar, undan shu tug'roliq,
Shahardek kemalar unga bir "luqma!..."⁵⁴

Mutolaa jarayonining o'zida g'azab, norozilik, tug'yonning sababi nimada ekanligi o'quvchini bezovta qilishi tayin. Shoir bu sababni she'rning oxirida shaxs erki va Vatan ozodligi uchun kurashga da'vat etish bilan bog'laydi:

Ko'p ezgan dushmandan,
past jondan
O'chni ol, o'chni ol, o'ch ol!⁵⁵

Mazkur she'r 1920-yili Toshkentda yozilgan. She'r mazmuniga ko'ra, u Turkiston muxtoriyati qizil imperiyaning yovuz kuchlari tomonidan qonga botirilgan, Qo'qon va uning atrofidagi mahalla, ko'chalarda ko'p minglab begunoh aholi qirib tashlangan vaqtda yozilgan bo'lib, "Ko'p ezgan dushmandan, past jondan O'chni ol, o'chni ol, o'ch ol!" deb, behuda aytilmagan.

2. Shoir dengiz dolg'asi (po'rtana) ifodasida "kuchli, botir, qo'rqmas, mag'rur, kerilgan, majnun, hovliqma" kabi shaxslantiruvchi sifatlashlar orqali aslida o'sha qaltis vaziyatdagi xalq qismati, Vatan taqdiri yuzasidan jiddiy mushohadaga chorlaydi, kurashga da'vat etadi. Muqanna, Dukchi eshon qo'zg'olonlari uning tiynatiga ta'sir

⁵⁴ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. -Т.: "Академнashr", 2016. -53-бет.

⁵⁵ Ўша манба.53-бет.

ko'rsatmagani, e'tiqodida sobitligi she'r ruhiyatida ayon sezilib turadi.

3. She'ning ikkinchi qatlamdagi mazmuni ramziy va xayoliy bo'lib, shu cheksiz qudratli po'rtana ham bir qizga, suv parisiga asir, tutqun ekanligini bildiradi.

Ul o'zi qon ichar, jon olur bo'lsa—da,
Bag'rida sevgisi kuchli.
Baqirib, o'kirib, yugurib yursa—da,
Go'zalni suyuvga o'chli...⁵⁶

4. Shoir suv qizi – parining go'zalligini tasvirlash orqali o'z idealiga, ilohiy go'zallikning qudratiga ishora qiladi:

Ko'zlari kiyikni ko'r qildi, ko'rmading,
So'zlari bulbulni tutqun.
Yuzlari oylarni botirdi, bilmading,
Bulutlar ostiga qochib kirdi kun⁵⁷.

5. She'ning uchinchi ma'no qatlamida yana dengiz dolg'alari, po'rtana quturganida oppoq ko'piklar paydo bo'lishi, buni tushunmaganlar u ko'piklarni chiroyli deb, uni sevishi aytiladi. Shoir ushbu manzaraning ramziy ma'nosi orqali qizil imperiyaning hokimiyatni qo'lga olish uchun qilgan inqilobining tashqi ko'rinishi ko'pikday oq, chiroyli bo'lsa—da, bu aldamchi manzara ekanini, aslida bu – borliqqa falokat, halokat keltirishiga diqqat qaratadi:

Jonivorlar qo'rqadir...dahshatda titraydir,
Baliqlar o'limni kutalar;

Kuchliga kuchsizni yutmaydir, sitmaydir,
Qo'rquvdan og'ular yutalar!..⁵⁸

6. She'ning to'rtinchi ma'no qatlamida bu cheksiz qahr-g'azab to'lqinlari, dolg'alari, to'polonlar yo'qsillar – kambag'allarning ko'nglida ekanligi aytiladi. Shoir o'zini shu ezilgan, zo'rlangan xalqning bir vakili sifatida mavjud vaziyatdagi Vatan taqdiri bilan bog'liq bezovta qalb tug'yonlarini qog'ozga to'kadi:

Bu mening keng ko'nglim g'alvani, janjalni,
To'polon, qo'zg'olish, chuvalash,
Isyonni, to'fonni

⁵⁶ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. -Т.: “Академнashr”, 2016. -53-бет.

⁵⁷ Ўша манба. 53-бет.

⁵⁸ Ўша манба. 53-бет.

Suyadir,
Shuning-chun dunyoni, jahonni
Tog‘ va tosh –
Hammasi ag‘darmoq istaydir,
Yonadir, kuyadir...⁵⁹

Shoir ta’biricha, tabiat stixiyasining qudratli dolg‘alari faqatgina bir odamning ko‘nglidamas, balki mol-mulki tortib olingan barcha yo‘qsillarning ko‘nglidir:

Bu mahshar, qiyomat po‘rtana. To‘lqinlar
Hammasi yo‘qsilning ko‘nglida.
Bir damda dunyoni kuydirur vulqon.
Ojizning u o‘tlik dilida...⁶⁰

Cho‘lpon vatani va xalqining ozodlikka chiqishiga yo‘l bermagan, proletariat diktaturasi shiori ostida milliy davlat – Turkiston muxtoriyatini ag‘darib tashlagan, yosh mustaqil davlatning yo‘lboshchilaridan ko‘pchiligini va tinch aholini qirib qo‘li qonga botgan bolsheviklarning aldovlariga qarshi amaliy kurashga qo‘shilmasligining iloji yo‘q edi.

Ahmad Zakiy Validiy Tuvg‘onning “Xotiralar” kitobida yozishicha, bolsheviklar bir vaqtning o‘zida Turkiston, Zakavkaze, Boshqirdiston, Qozog‘iston, Sibirdagi turkiy xalqlarning yangi tashkil topgan milliy davlatlarini ag‘darish bilan cheklanmay, ularning ba’zi boshliqlarini hibsga olib, yo‘q qiladi. Jumladan, milliy istiqlolchi Mahmudxo‘ja Behbudiyning qismati ham shu tariqa yakun topdi. U sovetlar bosqinchiligiga qarshi xorijiy davlatlardan yordam so‘rashga ketayotgan vaqtida Buxoro amiri tomonidan maxfiy ravishda o‘ldiriladi. Cho‘lponning Behbudiy xotirasiga atab yozgan she’ridan quyidagi misralarni o‘qiymiz:

Amalimning yulduzi-kim, ko‘z tikdi
Qora, jirkanch, o‘lim koni – yerlarga.
Savol berdim: “Yo‘qotganim qayda?” deb,
O‘zimni ham yutmoq bo‘lgan erlarga..⁶¹

Bundan o‘sha kunlari Cho‘lponning o‘zining boshiga ham o‘lim xavfi soya solib turganini sezish mumkin. Lekin uni qadrllovchi

⁵⁹ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. -Т.: “Академнashr”, 2016. -53-бет.

⁶⁰ Ўша манба.53-бет.

⁶¹ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1- жилд. – Т.: “Академнashr”, 2016. - 62-бет.

Zakiy Validiy Hazar – Kaspiy dengizi orqali uni Boshqirdistonga olib ketib, o‘ziga kotib qilib oladi.

Cho‘lponning pedagogik va estetik qarashlarida uning tabiat go‘zalliklarini nozik his etishi o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qilishini ta’kidlash bilan birga, tabiatning qudratli a’molini tasvirlash orqali shoir vatanining sho‘rolar tomonidan bosib olinishiga, o‘lka xalqlarining insoniy haq-huquqlari oyoqosti qilinishiga qarshi kuchli qahr-g‘azabi, alami va isyonining ham ifodalanganiga alohida urg‘u beriladi.

XX asrning 20-yillari boshidayoq sho‘rolar davlati o‘zining bosqinchiligi va zolimligini fosh etuvchi qudratli bir kuch yetishayotganini sezgan va uni turli yo‘llar bilan bo‘lsa-da, bo‘g‘ib tashlashga qaror qilgan edi. Cho‘lpon ijodi milliy-ozodlik kurashiga da’vatkor kuchning oldingi safida bo‘lgani bois u haqda keskin qoralovchi, hukmfarmo baholar avj oladi. Jumladan, Ayn (Olim Sharafiddinov) Cho‘lpon iste’dodi xususidagi qarashlarini quyidagicha ifoda etadi:

“Bu kungacha Cho‘lpon to‘g‘risida ma’ruza o‘qiganlar, unga madhiya yozganlar nima desa desinlar, uni bo‘yab ko‘rsatsalar ko‘rsatsinlar; biz ularga qo‘shilolmaymiz. “Cho‘lpon kim?” “U kimning shoiri?” degan so‘roqqa, qisqa qilib, Cho‘lpon butun kirlikdan ozod bir insondir, bir shoirdir. U yo‘qsil xalqning shoiridir” deb, chiroyli jumla bilan javob beruvchilar, unga (yuksak) baho quyuvchilar oramizda bor” (baho qo‘yuvchilar deganda Vadud Mahmud, Oybek, Abdulla Qodiriylar ko‘zda tutiladi – U.Sh.)

Ayn buning bilan cheklanmasdan, quyidagicha keskin hukm chiqaradi: “Cho‘lponning bu kungacha yozganlarini tekshirib chiqsak, yuqoridagi bahoning butunlay noto‘g‘ri ekanini anglaymiz, chunki Cho‘lpon yo‘qsil xalqning shoiri emas, u millatchi, vatanparast, badbin ziyolilarning shoiridir. Uning mafkurasi shularning mafkurasidir. Uning yuraklari, tomirlari muhit – zamon ta’siri bilan tepmaydi. Boyagi his va mafkura bilan tepadi”⁶².

Tabiiyki, mavjud tuzum ijodkorning ijtimoiy, siyosiy, estetik qarashlariga u yoki bu darajada ta’sir etadi. Xususan, Oktabr to‘ntarishidan ma’lum fursat o‘tgandan so‘ng ijod erkinligining

⁶² Чўлпон ва танқид.-Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси, 2004.- 29-бет.

bo'g'ilishi natijasida vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'liq ijtimoiy estetik tafakkurini turli ramziy shakllarda aks ettirish tamoyillari ustivorlik qilganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, 20-yillar o'zbek adabiyotidagi eng muhim tendentsiyalardan biri hayot haqiqati, inson erki-huquqlariga oid muammolarning tabiat tasviri bilan bog'liq holda berilishi shoir she'rlarida alohida o'rin tutadi.

“Cho'lpon she'rlarida, - deb yozadi B.Qosimov, - tabiat manzaralari, fasllar tasviri aksariyat shoirning ruh va kayfiyatinigina emas, qay bir darajada g'oya va maslagini ham o'zida namoyon etadi. 1921-23-yillarda yozilgan she'rlarda tabiatga ijtimoiy sifatlar berilardi. Manzaraga mos zamon voqealari – haqsizliklarga ishora qilinardi. Bir so'z bilan aytganda, tabiat ijtimoiylashardi”⁶³.

Sharq adabiyotidagi, xususan, Cho'lpon ijodidagi inson va tabiat munosabatlari muammosi aslida so'z san'atining asosida turuvchi oliy qadriyatlardandir “...tabiat va insonni bir-biriga tamsil tarzida tasvirlaydi”,⁶⁴ deb yozgan edi adabiyotshunos Yo. Is'hoqov. Haqiqatan, tabiat insonni yaratuvchi “ilohiy qudrat” va bu “ilohiy qudrat”ning o'z farzandiga mehr-muhabbati cheksiz. U insonni foniy dunyoda ham, boqiy dunyoda ham o'z bag'riga oladi. Shu jihatdan, inson tabiatning bir bo'lagidir.

“Tabiat san'atning doimiy timsoli, undagi eng oliy predmet esa inson” (V.G.Belinskiy) ekanligi nazarda tutilsa, Cho'lpon she'riyatidagi tabiat falsafasining mohiyatini tushunish qiyin kechmaydi. Shoir ijodida ham tabiat – maqsad emas, aksincha, uning zamirida inson erki – huquqlari bilan bog'liq qator masalalar yotadi. E'tibor berilsa, shoirning tabiat lirikasidagi kuz, qish, bahor, binafsha, bulut, barg, tun kabi obrazlarning poetik dunyosi nihoyatda keng. Aytish joizki, ular vatanparvarlik tarbiyasiga doir ijodkor kontseptsiyasini belgilovchi she'riy vositalarga aylanib ketgan.

Jahon adabiyoti tarixiga nazar tashlansa, inson kechinmalarini tabiat hodisalari bilan bog'liqlikda tasvirlash an'anasi qadimdan mavjudligini ko'rish mumkin. O'tgan asrning 20-yillarida o'zbek adabiyotining faol munaqqidlaridan A.Sa'diy bu haqda shunday deb yozadi: “...tabiatdagi bir narsa, bir hodisa, bir voqea, moddiy bir

⁶³ Миллий уйғониш даври адабиёти / Қосимов Б., Долимов У. ва бошқалар/ -Т.: Маънавият, 2004.-11-бет.

⁶⁴ Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси.-Т.: Ўқитувчи, 1983.-34-бет.

ko‘rinish tasvir etilar ekan, shundan asl maqsad shularning o‘zlarining tasviri bo‘lmaydir. Balki shul tasvir va shakl orqali ma‘nolarg‘a, fikr, his va xayollarg‘a ishora va imo qilish bo‘ladir. Shular orqali ruhiy bir holat, bir tasavvur, ruhiy bir hayajon iqoda etiladur...⁶⁵”

Ma‘lumki, san‘atkor borliqni tasvirlaganda undan nusxa ko‘chirmaydi, balki andoza oladi. Inson qalbi va ruhiyatining takrorlanmas lahzalarini tabiat obrazlarida gavdalantiradi. Shu jihatdan aytish mumkinki, peyzaj ham, jonsiz predmetlar ham badiiy asarda ilgari surilgan fikrni, g‘oyaviy-estetik maqsadni nurlantirish, qahramon qalbining, hayotining u yoki bu dunyoqarashidan kelib chiquvchi g‘oyaviy-estetik kontseptsiya birinchi planda turadi”⁶⁶.

Cho‘lpon poeziyasida tabiat tasviri Vatan tuyg‘usi – “mangu tutqunlikka kirgan o‘lka” qismati bilan chambarchas bog‘langan. Ayniqsa, Turkistonning shoir o‘zi tavallud topgan Farg‘ona vodiysini milliy mushohada davom etgan yillarda “chechaklar vodiysi” – qonlar vodiysi holiga kelmishdir” deb yozishini vatanga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbati, uning boshiga tushgan og‘ir kunlar tufayli qayg‘u-alami ifodasi deb baholash mumkin. Cho‘lponning o‘sha davr manzarasiga bag‘ishlangan “Go‘zal Farg‘ona” she‘rida vatan qismatiga bog‘liq qayg‘u-alami yana yangicha rang oladi. H.Olimjon Farg‘onani “Baxtlar vodiysi” – gullar o‘lkasi deb tasvirlagan paytda haqiqatda vodiyning bahori o‘tib, kuzi boshlangan, “ko‘m-ko‘k” liboslar o‘rniga “qonli ko‘ylaklar” kiygan edi:

Ey go‘zal Farg‘ona, qonli ko‘ylagingdan aylanay,
Tarqalib ketgan qaro, vahshiy sochingda boylanay.
Vahshiy bir o‘rmon kabi bag‘rimni bosmishdir qamish,
Ko‘zlaringda hech ko‘rinmas bir olov, bir o‘t yonish.
Keng, cho‘ziq yaylovlaring yaylovda ochmish ko‘ksini,
Bir qaro parda bosibdur tuprog‘ingning ustiga
Ko‘zlaring so‘lg‘in, o‘lik ruhing bilan boqding menga,
Qutulishning yulduzi aslo ko‘rinmasmi senga?
Ul baland zo‘r tog‘laring nega to‘solmas yov yo‘lin?
Yo‘qmidir o‘tkir qilich, kesmakka yovlarning qo‘lin?
Biz bugun ojiz, zaif, bag‘ri ezilgan sen uchun,

⁶⁵ Саъдий А. Амалий ҳам назарий адабиёт дарслиги.-Т.: 1925.- 110-бет.

⁶⁶ Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси.-Т.: Ўқитувчи, 1979. -63-бет.

Bul qadar qonlar to‘kildi ul daxldordir sen uchun.
Yig‘lama, yurtim, agarchi bul kuningda yo‘q bahor,
Kelgusi kunlarda baxting yulduzi o‘ynab kelar⁶⁷.

She‘rning har bir satridan Qo‘qon fojeasida shahid ketganlarning “oh-voh” nola-faryodlari eshilib turgandek bo‘ladi. Shu boisdan “Go‘zal Farg‘ona” tugal bir doston, “Buzilgan o‘lka” singari fojiali dramaga yaqin turadi. “Qonli ko‘ylak kiygan, sochlari vahshiy tarqalgan”, osmonini qora bulutlar qoplagan Vatanning mahzun timsoli o‘quvchi ko‘z o‘ngida shu holatda muhrlanib qoladi.

O‘qituvchi Cho‘lponning Vatan tuyg‘usiga oid qarashlari tahlilida sho‘ro tarixchilari, adabiyotshunoslarining ko‘p yillar davomida bu she‘rning taqdiriga qora chiziq tortib kelganini: “O‘zbek sotsialistik millati” kitobidan keltirilgan quyidagi ko‘chirmaga murojaat qilishi mazkur buzg‘unchi g‘oyaning tub mohiyatini anglashga yordam beradi: “...Grajdanlar urushi yillarida millat shoirlaridan Cho‘lpon o‘zining “Go‘zal Farg‘ona”, “Farg‘ona”, “Farg‘ona eli” she‘rlarida vodiyning og‘ir ahvolga tushib qolganligiga Sovet hukumati va bolsheviklarni sabab qilib ko‘rsatadi, mavjud vaziyatdan qutulish uchun Chingiz, Temurlarni yordamga chaqiradi. Uning sovetlarga qarshi bu she‘riga javoban Zavqiy o‘zining “Farg‘ona” degan she‘rini yozadi. Bunda muxtoriyatchilar va bosmachilarning xalqqa qilayotgan zulmlari va Farg‘onani xonavayron qilganliklarini ko‘rsatib o‘tadi. Zavqiy bu ahvoldan qutulish uchun Chingiz va Temurlarga murojaat qilmasdan, bolsheviklardan madad kutadi”⁶⁸.

Ajablanarlisi shuki, jadid adabiyotiga bo‘lgan bu xildagi fosh qiluvchi qarash, vatanparvarlik tarbiyasini butkul noto‘g‘ri talqin qilish undan so‘nggi yillarda ham davom etadi. Aks holda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining dastlabki rahbarlaridan bo‘lgan, keyinchalik sho‘rolar qatag‘oniga uchragan Rahmat Majidiy 1917-yilda nashr etilgan kitobida O‘zbekiston yozuvchilarining 1934-yil mart oyida bo‘lib o‘tgan I Qurultoyidagi ma‘ruzasida Fitrat ijodi yuzasidan bildirgan quyidagi fikrlarini o‘tgan asrning 70-yillarida yana bayroq qilib ko‘tarmagan bo‘lar edi. “Bizning yurtimizda, - deb yozadi u, - Fitrat faqat “tubanlik”ni, “xo‘rlik”ni ko‘radi. Lekin shoir Fitrat umidsiz emas. U tez kunda sovet

⁶⁷ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. -Т.: “Академнashr”, 2016. -97-бет.

⁶⁸ Ваҳобов М. Ўзбек социалистик миллати.-Тошкент: Ўқитувчи, 1960. -306-бет.

sistemasining tugatilishiga umid bildiradi... Oktabr inqilobini, sovetlar hokimiyatini bir yel, bir qattiq shamol kelsa yo‘q bo‘ladi, deb o‘ylaydi. Bu davrda oktabr inqilobini, sovetlar hokimiyatini muvaqqat bir narsa, erta-indin ketadi deb tushuntirish, shu asosda kurash olib borish yolg‘iz Fitratning fikri emas edi. Bunday harakatni biz Cho‘lpon, Botu va boshqalarning she‘rlarida ham uchratamiz”⁶⁹.

Endilikda sovet tarixining soxtaligi barchaga ayon. Cho‘lpon madad kutgan “muxtoriyatchilar va bosmachilar”ga ham, Zavqiy umid bog‘lagan “Sovet hukumati va bolsheviklar”ga ham tarix o‘z hukmini o‘qidi...

O‘tgan asrning 20-yillarida vatanparvarlik tarbiyasiga oid ma‘naviy-axloqiy qarashlar tahlilida o‘sha davrda inson dardini tabiat voqea-hodisalariga bog‘lab poetik talqin qilish an‘anasi Cho‘lponning “Yorug‘ yulduzga”, “Po‘rtana”, “Ko‘klam qayg‘isi”, “Norin daryo” kabi talay she‘rlaridan tashqari Fitratning “Mirrix yulduziga”, Botuning “Temirqoziq yulduziga”, Elbekning “Mungli qush” she‘rlarida ham davom etganiga, binobarin, badiiy ijodda tabiat hodisalari va jismlariga murojaat qilish o‘ziga xos an‘anaga aylanganiga e‘tibor qaratish lozim.

Sharq mifologiyasida Yulduz to‘g‘risida bir qancha afsona va rivoyatlar mavjud. Yulduzlar qadimdan insoniyatning haqiqat va adolat yo‘lini yorituvchi mayoq sifatida talqin etilgan. Rahmat Majidiy tanqidiga uchragan “Mirrix yulduziga” she‘rida Fitrat yerimizning “eng qadrli tuvg‘oni” go‘zal yulduz bilan sirlashadi:

Go‘zal yulduz yerimizning eng qadrli tuvg‘oni!
Nega bizdan qochib buncha uzoqlarga tushibsan?
Tuvg‘oningga nechuk sira gapurmasdan turibsan?
So‘yla yulduz, holing nadur? Nechuk topding dunyoni?
Bizning yerda bo‘lib turg‘on tubanliklar, xorliklar
So‘yla, yulduz, sening dag‘i quchog‘ingda bo‘lurmi?⁷⁰

Shoir nigohida yulduzlar olami Erk olami – erkinlik dunyosi. Lekin “yerda bo‘lib turg‘on tubanliklar, xorliklar”dan yuragi iztirobga to‘lgan yulduz so‘ylashdan ojiz. Shoir yulduzning bag‘rini

⁶⁹ Раҳмат Мажидий. Истеъдод ва бурч.-Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. -14-15-бетлар.

⁷⁰ Абдурауф Фитрат. Нажот йўли. – Тошкент:Маънавият, 2003.-57-бет.

yanada o‘rtab, javobsiz savollar yomg‘irini yog‘diradi: “Nega bizdan uzoqlarga qochasan?”, “Nega gapurmasdan turibsan?”

Shunga o‘xshash Botuning “Temirqoziq yulduziga” she‘rida “keng bo‘shliqning yuksagida qo‘zg‘almay, ko‘zlaridan o‘tli yoshlar oqizib, suyganini eslayturg‘on oshiq” yulduz obrazi yaratilgan. Shoir marhamatli yulduzga murojaat qilib yo‘ldan adashganlarga yo‘l ko‘rsat, u sening ko‘maging-la qo‘riqchilardan, qaro tunlardan qutulsin, deydi. She‘rning so‘nggi bandida lirik qahramon o‘zini “qo‘rqinch, jonsiz, ulkan alam cho‘lida” adashgan, yo‘qsil deb his qiladi. Temirqoziq yulduzi yordamida “ko‘nglidagi eng muqaddas armoni, tilagi” – yorug‘lik, ozodlik yo‘liga yetmoq istaydi. Bu yo‘l nihoyatda mashaqqatli, zahmatli, so‘qmoqqa yo‘l – Istiqlol yo‘lidir:

Qo‘rqinch, jonsiz, ulkan, qayg‘u, alam cho‘lida,
Qiynoq bila bitayozgan men yo‘qsilga yo‘l ko‘rsat.
U yo‘l bilan bu keng cho‘ldan uzoqlashib ketayin,
Ko‘nglimdagi eng muqaddas tilagimga yetayin.
Ketib, ko‘rib, so‘ngra... istar ekan bitayin!⁷¹

Yulduz – Cho‘lponning ham suygani. Uning yulduzga muhabbati shunchalik cheksizki, uni “go‘zal yulduz”, “nurli yulduz”, “Erk yulduzi”, “tilak yulduzi”, “najot yulduzi”, “tole yulduzi” deya erkalaydi. Yulduz – “otalarning tarixdagi xatosin”, “el ko‘ksida surgan ishrat, safosin” ko‘rgan, “yurt uchun jonlar berib, qonlar to‘kkan erlar”ni tanigan yagona guvoh:

Go‘zal yulduz, nurli yulduz, tez so‘yla,
Otalarning tarixdagi xatosin.
Shul xatodan osug‘lanib, yovlarning
El ko‘ksida surgan ishrat, safosin.

So‘zla, anglat, o‘tgandagi turmushning
Butun qonli, shonli, jonli yerlarin,
Ko‘z oldimda jilvalanur yurt uchun
Jonlar berib qonlar to‘kkan erlaring...⁷²

Cho‘lpon Turkistonning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishini –Vatanning mustamlakaga aylanishini “otalarning tarixdagi

⁷¹ Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти/ Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Ахмедов С. – Т.:Маънавият, 2004.-168-бет.

⁷² Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. -Т.: “Akademnashr”, 2016. -58-бет.

xatosi” deb baholaydi. Uning nigohida “o‘tgan turmushning butun qonli, jonli, shonli yerlari” va yerlar uchun “jonlar berib qonlar to‘kkan erlar”i gavdalanadi: ... Biroq yulduzning so‘ylamakdan tili lol. Chunki uning so‘zlaydigan yaxshi so‘zi yo‘q erur, “og‘iz ochsa, yo‘qsil elni ezmakka, qon qilmoqqa hasratlari ko‘p erur”.

Nega jimsen, nega javob bermaysen,
Nega ko‘zing qizarindi, yoshlandi?
Nega yuzing so‘lgan kabi yumshardi?
Nega senda bir talvasa boshlandi?⁷³

Cho‘lponning yulduzlari ichra uning yuragiga yaqini – Erk yulduzi. Qafasdagi qushning ozodlikdan o‘zga orzusi bo‘lmaganidek, “qullik qo‘shig‘ini tinglayotgan” tutqunning xayolida ham erk yashaydi. U Cho‘lponning Vatan erki haqidagi qarashlarining tub mohiyatini tashkil etadi.

Bu haqda cho‘lponshunos olimi Zamira Eshonova shunday deb yozadi: “Shoirilar hamma zamonlarda millat erkinining mangu kuychilaridir... Cho‘lpon ijodidan “qizil ip” bo‘lib o‘tadigan bu motivlarni “boshqalarga qul bo‘lib, chet oyoqlar tomonidan ezilgan”, “har yaramas, har buzuqning tagida alam tortgan, jabr ko‘rgan” millat isyoni tarzida qabul qilinsa o‘rinli bo‘ladi. Shoirning yulduzga ham kinoyali, ham iltijoli, ham hasratli, ham do‘stona murojaatlari **MILLAT DARD**ining zo‘rligidan tug‘ilgan:

So‘zla, sen-da tillaringni o‘ynatib,
Eski alam ichra bizni olib bor.
Yashirin yotgan pardalarni, zulmatni
Qarab turma, nuring bilan yirt, yubor”⁷⁴.

Afsuski, Cho‘lponning bosgan qadamini o‘lchab yuradigan, undan “siyosiy xato” izlaydigan “ziyrak tanqidchilar” “Yorug‘ yulduzga” she‘rining qismatiga qora chiziq tortdilar. Xususan, Miyon Buzruk Solihovning izohicha: “Cho‘lpon she‘rining borishida qandaydir bir yig‘loqilik ko‘rinsa-da, bu yig‘loqilik ostida milliy ong berish uchun kuchli tashviqot bekinib yotqonni anglatib turadir. Bunday qora so‘zlarni so‘zlab, matbuotga chiqishga qodir bo‘ling‘on bir zamonda yig‘loqilik yo‘li bilan ta‘sir bermak metodini kuzatgan,

⁷³ Ўша манба.58-бет.

⁷⁴ Эшоновва З. Ҳақ йўли, албатта бир ўтилғуси // Жаҳон адабиёти, 1997, №1.-162-бет.

demakdir”⁷⁵. Ko‘rinadiki, munaqqid milliy ongni shakllantirmasdan milliy g‘urur, millatni shakllantirib bo‘lmasligini tushunsa-da, tushunmaslikka oladi.

Cho‘lpondagi “yig‘loqilik” – ojizlik, chorasizlik belgilari emas, aksincha, “bir hovuch tuproqqa qurbon bo‘lgan tutqunlarning haqqi-haqlig‘i”dan tug‘ilgan “chechaklar undirg‘uchi” ko‘z yoshlaridan tug‘ilgan inja tuyg‘ulari ohanglaridir.

1924-yilda atoqli olim Abdurahmon Sa‘diy “O‘zbek yosh shoirlari. Cho‘lpon” maqolasida shoir she‘rlarida vatan tuyg‘usi kuchli ekanligini ijobiy hodisa sifatida baholaydi. U Cho‘lponning 1919-1922-yillarda “O‘zbek shoirlari”, “Uyg‘onish”, “Buloqlar” to‘plamlarida bosilgan she‘rlarini tahlil qilib bunday deb yozadi: “Cho‘lponning bu davrdagi she‘rlari uni “Uyg‘onish” bo‘ylaridan, Turkiston tog‘lari orasidan chiqqan bir yonartog‘ ravishda tanitadir. Yoki biz uni kinoya yo‘lida (aytgan):

Zo‘r dengizning to‘lqinidir, bag‘rida –
Yuz yillarning qonli, qo‘rqinch izi bor.
Yumshoq suvdan berkitilgan ogzida
Shafqat bilmas isyonlarning so‘zi bor, -

deb sifatlovchi “o‘tli suv”ning o‘zi deb taniy olamiz. U yonadir ham yondiradir. Biroq u:

Ohimning o‘tidan chiqqan shu alamlar,
Sharqning ko‘kragida bir joy topmasmi?
Ko‘ksimdan qisilib chiqqan na‘ralar
Uxlag‘on dillarga sanchib oqmasmi? –

deb, o‘z o‘tidan o‘zi kuygandek, boshqalarni ham shu o‘tda kuydirmak bo‘ladir”⁷⁶.

Munaqqid shoir Cho‘lponning o‘z vatanining o‘tmishdagi va hozirgi ahvoli (vatani, xalqi zolimlarning zulmi ostida qolganda) kuyib, yonishini haqqoniy ta‘riflaydi: “Ortiq sezg‘ich yuraklik Cho‘lponning ham o‘lkasining va shu o‘lkasidagi xalqining o‘tmishi bilan hozirini yondiradir.

Tarixdan ma‘lumki, qizil imperiyaning yovuz kuchlari 1919-yilning 28-noyabrida tashkil topgan yosh mustaqil davlat – Turkiston

⁷⁵ Миён Бузрук Солиҳов. Ўзбек адабиётида миллатчилик кўринишлари.-Т.: 1933.-59-бет.

⁷⁶ Чўлпон ва танқид. -Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси, 2004.-20-бет.

muxtoriyatini oradan ko‘p o‘tmay, yondirib qonga botirganligi tufayli Cho‘lponning sho‘rolar tuzumini maqtashi mumkin emas edi.

Shoirning “Yana qor” she‘rida ana shu unutilmas voqea tufayli vatan qayg‘usi yaqqol seziladi:

Yana qor! Oq kafan o‘raldi yana,
Yana ko‘k quydi yerga parlarini.
Qarg‘aning tillari buraldi yana,
Yana qish chorladi navkarlarini⁷⁷.

She‘rda tasvirlanishicha, bahor kelgan edi: “Kutdilar yoz qizi – bahor oyining yangi kunda (navro‘zda) yasalguvsi to‘yini. Yoz kabi turli gulga boyning dedilar: bo‘lg‘uvsi chechak o‘yini”.

Lekin el-yurt uchun bahor (Turkiston muxtoriyati) kelgan vaqtda, yangi mustaqil davlat ilk bor navro‘z bayramini nishonlay deb turgan vaqtda chorizmning vorisi – sho‘ro mustamlakachilari timsoli – “Qarigan qish boboy chidolmasdan, to‘y kutilganda qildi bir bosqin. Nega ergashdi unga qorli bo‘ron, Ko‘p qo‘pol edi asti ul ozg‘in... Faqat qarg‘alar qor ustida qag‘illashib qish boboyni alqaydilar. To‘ngdiruvchi zahar sovuq tunda beva-bechoralar yomonlaydilar. Har yetim ko‘zda tomchi-tomchi zahar. Har faqir uyida ingrash va yig‘i. Har sarig‘ yuzda so‘nggi shu‘la so‘nar. Har tomon, har tarafda bir qayg‘u...”

She‘rda yurt va azim vatan qayg‘usi tabiat manzaralari fonida tasvirlansa-da, qayg‘u go‘zal estetik mohiyat kasb etadi.

Cho‘lpon ijodida vatanparvarlik tarbiyasining tarixiy-pedagogik xususiyatlari haqida gap ketganda shoirning 1920-yilda yozgan “Sharq qizi” she‘rida bahor faslida borliqning yashillanib, gulga oshiq qushlar sayrab, yayrab parvoz qilishi bilan to‘rt devor ichidagi asira Sharq qizi qalbining izhorini kontrast usulida tasvirga olinishiga to‘xtalish o‘sha davrdagi tarixiy vaziyatga tiyrak nigoh bilan nazar tashlashga imkon beradi:

Men bir Sharq qizimen, Sharqning o‘zidek,
Butun tanim, jonim – xayol uyasi.
Menim qora ko‘zim kiyik ko‘zidek,
Belgisi ovchining o‘qin ko‘rgusi.

⁷⁷ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1- жилд.-Т.: Akademyashr, 2016. -95-бет.

Aytalarkim, yozda har bir joni bor,
Erkin nafas olar, shodlanar, yayrar.
Aytmaylarkim, Sharqda bog‘liq xotinlar,
Ul yorug‘ dunyoga ne zamon kirar?⁷⁸

Shoir xalq tilidagi mavjud to‘rt devor ichi bilan bog‘liq tushuncha asosida mustamlakachilik kishanlari ostidagi millat va Vatanning fojiali qismatini qiyoslash orqali milliy-ozodlik kurashi yo‘lida g‘aflat uyqusidan uyg‘onishga da‘vat etadi.

Vatanning achchiq qismatidan ko‘ngli ozurda lirik qahramon – Sharq qizining qora ko‘zlari ovchi o‘qidan kiyik ko‘zidek hurkak va besaranjom. Uning xayolida erkin nafas olish, yuragi yozga (mustaqillikka) kuchli ishtiyoq o‘ti bilan yonadi.

Xayoli Vatan tuyg‘usi bilan band Sharq qizining ko‘ngil nolasi “Men va boshqalar” she‘rida ham mantiqiy davom etadi:

Kulgan boshqalardir, yig‘lagan menman,
O‘ynagan boshqalar, ingragan menman.
Erk ertaklarini eshitgan boshqa,
Qullik qo‘shig‘ini tinglagan menman⁷⁹.

Shoirning fikricha, bog‘larda daraxtdan daraxtga, shoxdan shoxga uchib qo‘nib yurgan qushlar Sharq qizlariga nisbatan baxtliroqdir. Sharq qizining shaxs erki bilan bog‘liq Vatan tuyg‘usiga oid dardchil nolasi kishi qalbini tug‘yonga keltiradi. Olovkor bu tug‘yon she‘rning da‘vatkorlik ruhi bilan yo‘g‘rilishi mahsulidir:

Menda-da qanot bor, lekin bog‘langan,
Bog‘ yo‘qdir, shox yo‘qdir, qalin devor bor.
So‘zlari sadafdek, tovushi naydek –
Kuyim bor...Uni-da devorlar tinglar.

G‘oyaviy-badiiy jihatdan hamohang bo‘lgan “Amalning o‘limi” she‘rida Sharq ayollarining og‘ir qismati biri-biridan ayovsiz savollar qatiga singdiriladi: “Ko‘nglimda yig‘lagan malaklar kimlar? Sharqning onalari, juvonlarimi? Qarshimda yig‘lagan bu jononlar kimlar? Qullar o‘lkasining insonlarimi? ...Kenglik xayollari uchdimi ko‘kka? Butun umidlarni yovlarmi ko‘mdi? Mangu tutqunlikka kirdimi o‘lka? Xayolda porlagan shamlarmi so‘ndi?”

⁷⁸ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1- жилд.-Т.: Akademnashr, 2016.-50-бет.

⁷⁹ Ўша манба. 75-бет.

Shoirning bir qarashda javob talab qilmaydigan, ammo javob berish mas'uliyatini soqit ham qilmaydigan bunday keskin savollari Turkiston muxtoriyatining qizillar va arman dashmoqlari tomonidan qonga botirilganidan keyin, bolsheviklarning yangi bosqiniga ochiq ishoradir. Shoirning osmondagi qora bulutni o'z ko'ngliga o'xshatishi she'rning zohiriy – tashqi ma'no qatlamidir. Bu so'zlarda o'quvchi o'zi kashf etadigan, fahmlab, tushunib oladigan ikkinchi ma'no qatlami ham bor. Bu Turkiston osmonini qoplab olgan qora bulutlardir.

Abdurahmon Sa'diy yuqorida tilga olingan maqolasida Cho'lponning “qisilgan ko'nglidagi qora bulut” uning vatani, yurt xayoli ekanligini nazarda tutib yozadi:

“Yozilmag'onmi bu tunlar so'ngida tong otmoq? – deb ochiq xitob qiluvchi shoirning ikki ko'zi yalt-yult etib, ko'kdan tilagining yulduzini qaraydir.

Bu tilak yana uning, umuman o'z xalqining tilagi, yalpi mazlum Sharq xalqlarining istagidir”⁸⁰.

Shu tariqa Abdurahmon Sa'diy vatanparvarlik va xalqparvarlik g'oyalari bilan bog'liq Cho'lpon ijodini o'sha davrda avj olgan vulgar sotsiologizm va siyosiy qatag'on ruhida talqin etmasdan, shoirning erk va ozodlik yo'lida jonini kurashga tikkan yuksak iste'dod egasi ekanligiga e'tibor qaratadi.

“Cho'lpon, - deb yozadi olim, - chin ma'nosi bilan romantik bir yurak shoiri(lirik)dir. Lekin uning yuragi shaxsiy hissiyot bilan emas, ijtimoiy hissiyot bilan to'lg'on bir yurakdir. Shuning bilan birga, u o'zbeklarda ramzchilik – simvolizm eshigini ochquvchidir”.

Cho'lponning simvolizm ruhidagi she'rlaridan biri “Tortishuv tongi” deb ataladi. Unda shoir Sharq xalqlarining mustamlakachilarga tobe bo'lgan vaqtini quyoshning botishiga o'xshatadi. Lekin, uning fikricha, quyosh abadiy botib ketmaydi. Yana tong otadi. Faqat nodonlargina Quyosh butunlay botdi, endi qaytib chiqmaydi deb sevinadilar. Holbuki, quyosh abadiy so'nmaydi.

Mazkur she'r 1920-yilda Toshkentda yozilgan. O'sha yillari Afg'oniston, Kavkaz, Boshqirdiston, Ukraina va olis Oltoyda

⁸⁰ Чўлпон ва танқид. -Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси, 2004.-20-бет.

Angliya istilochilariga qarshi, bolsheviklar diktaturasiga qarshi milliy-ozodlik kurashlari kuchayib borayotgan davr edi.

Adabiyotshunoslikda mumtoz yozuvchilarimiz ijodiy merosini xronologik tarzda yoki davrlashtirish misolida, shuningdek, janriy xususiyatlariga ko'ra hamda mavzu doirasi jihatidan o'rganish bilan bog'liq turlicha yondashuvlar mavjud. Bunday yondashuvlarning har biri albatta muayyan mantiqqa bo'ysunadi va muammo yuzasidan tegishli xulosalar chiqarishga zamin yaratadi. Shu jihatdan ustoz O.Sharafiddinovning Cho'lponning 1920-yil Boku qurultoyidan qaytib kelgandan keyingi ijodida jiddiy o'zgarish sezilganiga doir mulohazalari buyuk shoirning 1919-1922-yillarda "O'zbek shoirlari", "Buloqlar" to'plamlarida bosilgan she'rlarida Vatan timsolining adabiy tahliliga ilmiy-pedagogik jihatdan yondashuvimizga asos bo'ldi.

Xulosa qilganda, jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ta'lim-tarbiya tizimida shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlashga qaratilgan texnologik jarayonlar markazida shaxs – millat – vatan munosabatlari turishi bejiz emas. Shu jihatdan Cho'lpon ijodiga nazar tashlaganda uning adabiy-estetik va pedagogik qarashlarida ham mazkur tushunchalar mushtarakligi diqqatni tortadi. Zero, ta'lim tizimidagi islohotlar maqsad-mohiyatining shaxs ravnaqi, ma'naviy-axloqiy kamoloti, bir so'z bilan aytganda, inson kapitali bilan bog'liqligi millat va Vatan manfaatlarini ham taqozo etadi.

2.2-§. Cho'lponning adabiy-estetik va pedagogik qarashlarida kurashchanlik motivlaridan foydalanishning pedagogik xususiyatlari

Tarixdan ma'lumki, XX asr boshlarida yuzaga kelgan milliy-ozodlik harakatlari tarixiy vaziyat tufayli bolsheviklar diktaturasiga qarshi kurash bilan uyg'unlashib ketdi. Ayni shu holat Cho'lponning adabiy-estetik va pedagogik qarashlariga turtki bermasligi, ijodiga qanot bag'ishlamasligi mumkin emas edi. Shuning uchun ham shoir she'riyatida lirik qahramonning Vatan erki bilan bog'liq kechinmalari chegara bilmaydi.

Shoir milliy ozodlik kurashi zolimlar ustidan albatta g'alaba qozonishiga qattiq ishonadi: "Chiqadiringan quyoshni siz behuda etak

bilan to'smoq uchun tirishmang. Ahmoq bo'lib, Azroilning oldida, Jon talashing, to o'lguncha berishmang".

O'sha yillari Turkistonda sovetlar, Sharq mamlakatlarining ko'pchiligida ingliz mustamlakachilari o'z hukmronligini o'rnatgan edilar. Cho'lpon "Qizil baynalmilal" she'rida ham tabiatga aloqador ramziy obrazlar vositasida go'yo butun dunyo yo'qsullari, proletarlarini birlashuvga chaqirishga qaratgandek taassurot qoldiradi, sovetlarning sinfiy kurash shiorini, kambag'allarning boylarga, ezuvchilarga qarshi kurashini tashviq qilganday ko'rinadi.

U, Sharqda havo aynigani, buzilgani, Sharq osmonida "ko'mir kabi qop-qora bulutlar to'planganini", Sharq havosini buzgan "oppoq qo'llar (oq tanlilar) jafosi" ekanligini aytadi, ko'kda yashin chaqishini "Iblislarning ko'zlariday op-ola" yonayotgan "oltin o'choq" yorug'i deb tasvirlaydi.

Ko'k yuzida qator-qator chizilg'on

Ko'mir kabi bulutlari – yot ellar.

Ul ellarning qulligida ezilg'on

Sharq ellari...bug'uq, quruq ko'p yerlar.

Sharq ellari asir kabi ishlarlar

Bir hovuch ham kelmaydigan xalq uchun...⁸¹

"Qizil Baynalmilal" she'rida aytilgan "bir hovuch ham kelmaydigan xalq" aslida bu, kichik bir orolda turib, ko'pchilik Sharq mamlakatlarini bosib olib, boyliklarini talab ketayotgan, u yerdagi xalqlarni qul qilib ishlatayotgan Angliya siyosatchilaridir.

Shoir bu she'rida ingliz mustamlakachilarining talonchiligi sababli Sharq xalqlari, xususan yo'qsul, kambag'allar juda og'ir ahvolga tushib qolganligini tasvirlar ekan, Turkistonni bosib olgan bolsheviklarning yovuz niyatini, mustamlakachilik siyosatini fosh etish yo'lini tutadi.

Sharqli kishi qatiq yesa, non topmas,

Non topolsa, quruq non bor, choyi yo'q.

Bir hovuchlar yemagiga nom topmas.

Boyliklarni sig'dirishga joyi yo'q.

Sharqda mana, bir oila ichida.

Olti, yetti kishi ochdan o'lmishdir.

⁸¹Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1- жилд.-Т.: Akademnashr, 2016.-61-бет.

Ana, qara, yosh bog‘chaning ichida

Ko‘p chechaklar ochilmasdan so‘lmishdir...⁸²

Mazkur misralar Cho‘lponning mustamlaka zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakatiga katta umid bog‘laganidan dalolat beradi. Shu harakatning faol ishtirokchilaridan Zakiy Validiyning xotirlashicha, 1923-yilning 25-noyabrida Istambulda chiqadigan “Vaqt” gazetasida Anvar Poshshoning bunday so‘zlari bosilgan: “Turkiston uchun kurashish kerak. Haq ish uchun o‘limdan qo‘rqsang, o‘zingni ham it holida yashashga duchor qilasan. Agar bu ishga kirishmasak, kelajak avlodlarning la’nati og‘ir bo‘ladi. Qutulish yo‘lini o‘ylab, o‘lsak ham o‘zimizdan keyin keladigan avlodlarga ozodlik va baxt yo‘lini ta’minlagan bo‘lamiz”⁸³.

Cho‘lpon bu damlarni tongni kutgandek intizorlik bilan kutdi. U “kishanlarni yasovchi ustalarga”, “boshqalarni tubanlar deb o‘ylovchi xo‘ja”larga “yoz boshining qoridek eruv kunlar, olbostining zoridek yig‘lar kunlar” keladir deyish bilan yaqinda boshlanadigan kurashga ishora qiladi. Cho‘lponning “xamletona” ruhdagi: “Ulug‘, qattiq ag‘darg‘uvchi zo‘r kurash, U bor bo‘lish yo‘yo‘q bo‘lish, yo‘q yarash” misralari Turkistonda mustaqillik uchun hayot-mamot jangi olib borayotgan Anvar poshsho rahbarlik qilgan milliy-ozodlik harakatining “Yengsak g‘ozi, yengilsak shahid bo‘lamiz” degan shioriga hamohangdir.

Turkiston milliy-ozodlik harakatining rahbari Anvar poshshoning 1923-yil 4-avgust (juma) kuni Baljuvondan yetti-sakkiz chaqirim uzoqlikdagi Chekken qishlog‘ida ruslar bilan bo‘lgan jangda halok bo‘lishi, “Turkiston musulmonlari birligi” jamiyatining raisi Zakiy Validiy xorijga ketishi Cho‘lponning so‘nggi umidlarini chilparchin qildi. Umidlarning sarobga aylanishi, aldanish iztiroblari Cho‘lpon she’riyatiga chuqur mung, hazin ohanglar olib keldi. “Ko‘klam qayg‘isi” she’rida shoirning bu haqdagi kechinmalari o‘zining chuqur aksini topgan. Bu mung, hazin ruh iztiroblari she’rda tabiat ohanglari bilan uyg‘unlik kasb etadi. She’r davomida hatto o‘z go‘zalligini yilda bir marta ko‘z-ko‘z qiladigan bahor ham “aldanish

⁸² Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. Ж.И.-Тошкент: Akademnashr, 2016.-45-бет.

⁸³ Закий Валидий Туғон. Хотиралар./ Ш.Турдиев таржимаси// Шарқ юлдузи. 1993. № 5.-10-бет.

azobini” boshidan o‘tkazayotgan shoir kayfiyatini ko‘tara olmasligiga guvoh bo‘lamiz.

Ko‘klam chog‘i sayroq bulbul sayramas,
Na uchunkim tamburimning tili yo‘q.
Ul go‘zal qiz chin qarashda qaramas,
Na uchunkim umidimning yo‘li yo‘q...⁸⁴

“Tillarida har ko‘klamning qo‘shig‘i”ni kuylagan shoirning yuragida go‘zalning sevgisi yashaydi, ko‘zlarida har qayg‘idan bir yig‘i” paydo bo‘ladi. Oqibatda lirik qahramon o‘z qo‘li bilan o‘z qalbining suvrati va siyratiga chizgi beradi:

Yolg‘iz menmi ko‘klam chog‘i yig‘lagan?
Yolg‘iz menmi har umidda aldangan?⁸⁵

Shoir millat ziyolilarining boshi uzra yaltillab o‘ynayotgan qilich erta-indin o‘z boshiga tushishini bilar edi. “Bashariyatning umumiy saodati” bosqinchilarga qarshi kurashda ekanini anglagan Cho‘lpon o‘zini Norin daryo timsolida ko‘radi:

Erta-indin sen jinniga tegajaklar,
Irodangni – metin bo‘lsin – egajaklar!..⁸⁶

O‘z taqdirining fojiali yakunini qalbdan his etgan Cho‘lponning she‘rlari, roman va hikoyalari, dramatik va publitsistik asarlari boshdan-oyoq milliy ruh, milliy-ozodlik g‘oyalari – Vatan tuyg‘usi bilan sug‘orilgan. Uning asarlaridagi o‘z Vatanini jonidan sevgan, tabiat – yam-yashil vodiylar, dala va bog‘lar, daryolar va tog‘lar, jannatmakon o‘lkaning go‘zalliklarini nozik his etuvchi, chin insonlik kamolini biluvchi, Vatan yovlariga cheksiz nafrat bildiruvchi yorqin taqdir egalarining qalb urishi aslida Cho‘lponning o‘ziga tegishlidir.

Uning vatanparvarlik bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-mafkuraviy qarashlariga oid tadqiqotlarda buyuk shoirning ijodiy faoliyatiga turli jihatdan yondashilishiga shoir she‘riyatining g‘oyaviyligi, “Turkiston Muxtoriyati”ga munosabati aks etgan asarlari, O‘zbekiston jumhuriyatining ikkinchi madaniyatchilar qurultoyiga arznomasi, KP(b) Markazqo‘mining O‘rta Osiyo byurosi kotibi Baumanga yozgan “bayonotnoma”si (1-ilova),

⁸⁴ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1- жилд.-Т.: Akademnashr, 2016.-109-бет

⁸⁵ Ўша манба. 109-бет.

⁸⁶ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1- жилд.-Т.: Akademnashr, 2016.-297-бет.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 1937-yil 7-8-apreldagi plenum yig‘ilishida qilgan nutqi va u haqdagi tanqidiy maqolalar kabi talay manbalar asos bo‘lgan.

Hamkasblari tarafidan o‘ziga nisbatan g‘oyaviy-siyosiy ayblovlar kuchaygan davrda “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalining 1927-yil 12-sonida “O‘zbekiston ijtimoiy sho‘rolar jumhuriyatining ikkinchi madaniyatchilar qurultoyi muhtaram rayosat hay‘atiga Cho‘lpon (Abdulhamid Sulaymon) tomonidan e‘tazor” (arabcha – uzr, avf) arzi holida “shoirlik va yoshlik mayllari bilan” “ba‘zi xatolarga yo‘l qo‘yganini, chunonchi, millatchilik va vatanparvarlik ruhida she‘rlar va nasrlar” yozganini aytgan, o‘zi uchun eng qaltis pallada – 1937 yil “Uyushma” yig‘ilishida o‘sha davrda “millatchi” so‘zining salbiy ma‘noda ishlatilishini nazarda tutib, U. Shekspirning “Hamlet” tragediyasi tarjimasida arabcha so‘zlarning ishlatilishiga doir da‘volarda o‘zining “otboqar”, “mirshab” degan so‘klarga uchraganini ma‘lum qilib “Men arab emasman! Men millatchi emasman! Men arabchani yomon ko‘raman! Qursin arab so‘zlari!” deya uzrxohlik qilgan bo‘lsa-da, Vatan tuyg‘usi uni hech qachon tark etmagan.

Shunisi ham borki, Cho‘lponni dastlab Oktabr to‘ntarishiga umid ko‘zi bilan qaragan, deganga o‘xshash fikrlar ham aytilgan. Buni, 1932-yil Baumanga yozgan “Bayonotnoma”sidagi quyidagi ko‘rsatmasi ham tasdiqlaydi: “1917-yilda, hali o‘zbeklardan biron kishi ishchilar harakati nima demak ekanini, burjua emas, ishchilar inqilobi nima demak ekanini bilmagan bir chog‘da mening she‘rlarimning birida (“Yurt” jurnali) mana bunday satrlar uchraydi: “Qizil bayroq – qip-qizil qon, bu qon – ishchilar qoni!”⁸⁷

Ammo har qanday holatda ham Cho‘lpon mustamlakachilarning munofiqligini yurakdan sezgan bo‘lishi aniq. Aks holda oktyabr to‘ntarishidan bor-yo‘g‘i 3 oy o‘tar-o‘tmas “El bayrog‘i” gazetasida quyidagicha keskin fikr bildirmas edi. “Bolsheviklarga kelsak, - deb yozadi shoir gazetaning 1918-yil 26-yanvar sonida “Teshaboy” imzosi bilan e‘lon qilgan maqolasida, - ularning nazarlari juda ochiq va qat‘iy: “Bizning so‘zga unasang unading, unamasang – shop!” Boshlaringda qizil gvardiyaning nemisni urib, Berlinni olib, Angliya

⁸⁷ M.Қаршибоев. Муҳит эркидаги тутқунлик. // “Шарқ юлдузи”, 1990 йил, №10.-58-бет.

va Avstriyadagi mazlum millatlarni qutqazub, frantsuzlarning Tunsin (Tunis) yerlilariga olib bergan qutlik qilichi kapalakday pirillar... Xulosa: “xo‘b”mi? “xo‘b” bo‘lmasa, Allohu akbar”⁸⁸.

Cho‘lpon endigina tashkil topgan qizil imperiyaning ilk damlardagi siyosati tufayli o‘zida tug‘ilgan fikr-mulohazalarga maqola so‘ngida manfur davlat tutumining Chor Rossiyasi siyosatining aynan o‘zi ekanligiga oydinlik kiritadi.

“O‘ylamoq kerak: hozir Nikolay vaqti bilan zamonamizning farqi yo‘q! Nikolay vaqtida gubernaturlar biror kishini hokimlik va boshqa ishlarga o‘zlari tayinlab qo‘yarlar edi...Shuning uchun hurriyat, adolat va musovot kabi shu‘lalar yorqiragan bir zamonda bo‘lg‘an voqealar yana bizning Nikolay asrinda yashadigimizni ko‘rsatadir!..”⁸⁹

Tarixiy manbalar 20-yillar oxiriga kelib sho‘rolar saltanatining uzil-kesil g‘alabaga erishish yo‘lidagi say‘-harakatlari natijasi o‘laroq NEPning qabul qilinishi o‘sha davr mafkurasining muhim tayanchi bo‘lgan adabiyot jabhasida ham nazoratni kuchaytiradi. Jumladan, RKP (b) Markaziy Komitetining “Partiyaning badiiy adabiyot sohasidagi siyosati haqida” 1925-yil 18-iyunda e‘lon qilingan rezolyutsiyasidagi “bizda umuman sinfiy kurash to‘xtamaganidek, bu kurash adabiyot frontida ham to‘xtagani yo‘q” degan ko‘rsatmasi o‘laroq adabiyotga sinfiy kurash nuqtai nazaridan tanqidiy munosabat kuchayadi. Ayniqsa, Akmal Ikromovning O‘zbekiston madaniy-maorif xodimlarining I, II qurultoylarida (1926-1927) adabiyotning g‘oyaviyligi yuzasidan qilgan ma‘ruzasidan keyin bu borada jiddiy bahslar boshlanadi. Olim Sharafiddinovning “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1927-yil 14-fevral sonidagi “O‘zbek shoirlari. Cho‘lpon”, Komil Alievning o‘sha gazetaning 1927-yil 12-oktyabr sonidagi “Aqlli jinni”, 1928-yil 27-iyuldagi “Qora kiyingan qizil to‘n” kabi maqola-feletonlari Cho‘lpon ijodi yuzasidan dastlabki aybnomalar bo‘lib jaranglaydi.

O‘sha davrda Cho‘lponga nisbatan ijtimoiy-siyosiy tazyiqning kuchayishi to‘g‘risida M.Qarshiboev quyidagilarni yozadi: “1931-yil matbuotida Cho‘lpon ijodi shunchaki tanqid qilib qolinmasdan, balki unga siyosiy-mafkuraviy ayblar taqash ham kuchayadi. Uning

⁸⁸ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. Ж.IV. -Тошкент: Akademnashr, 2016.-173-бет.

⁸⁹ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. Ж.IV.-Тошкент: Akademnashr, 2016.-174-бет.

nomi bilan bog‘liq atama – “cho‘lponchilik” keng iste‘molga tushadi, “qosimovchilik”, kabi “chig‘atoychilik” singari atamalar bilan yonma-yon qo‘llanadi, o‘sha atamalar dahshatli ma‘no urg‘usiga ega bo‘ladi.

“Qosimovchilik” degan atama O‘zbekiston Oliy sudining raisi bo‘lib ishlagan, 1930-yilda sudlanib, otuvga hukm qilingan Sa‘dulla Qosimovning nomi bilan bog‘liq edi. O‘sha yillarda bu atamasiz biror bir tanqidiy maqola yozilmasdi. Agarda “qosimovchilik” atamasi Qosimovning sud jarayonidan so‘ng juda og‘izga tusha boshlaganini hisobga olsak, “cho‘lponchilik” atamasining paydo bo‘lishi ham shoir hayotiga tajovuz boshlaganini bildiradi”⁹⁰.

Darhaqiqat, “Pravda Vostoka” gazetasining 1931-yil 14-yanvar sonida “O‘quvchi” imzosi bilan e‘lon qilingan “Madaniy jabhadagi o‘pirilish”, shu gazetaning 15 yanvarъ sonida Mixail Sheverdinning “O‘zbek yo‘qsul adabiyotining ilk katta asari”, 31-dekabr sonida “Badiiy adabiyotdagi chirkin liberalizmga qarshi”, “Uzbekistanskaya pravda” gazetasining 1931-yil 24-25-mart sonlarida Abdurahmon Sa‘diyning “O‘zbek nafis adabiyotida millatchi aksilinqilobchilik” nomli maqolalarida Cho‘lpon ijodidagi “g‘oyaviy-siyosiy buzg‘unchilik” mafkurasini “fosh” qilishga qaratilishi uning hayotini xavf ostiga qo‘ymasligi mumkin emas edi. Shuning uchun ham shoir 1932-yil 27-mayda KP (b) Markazqo‘mining O‘rta Osiyo byurosi kotibi Baumanga bayonotnoma yozishga majbur bo‘ladi. O‘zbekiston Davlat Xavfsizlik qo‘mitasida saqlanayotgan P-224777-arxiv raqamli “Jinoiy ish”ga tirkalgan “bayonotnoma”da Cho‘lpon o‘z faoliyatiga ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan yondashishni so‘raydi. Ijtimoiy adolat esa masalaga qanday mafkura jihatidan yondashishga bog‘liq. Binobarin, erkinlik qatag‘on qilingan zamonda undan erkinlik so‘rash ijobiy natija bermasligi mazkur “bayonotnoma” taqdiriga ham taalluqlidir (1- ilova qarang).

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, RKP(b) ning “Partiyaning badiiy adabiyot sohasidagi siyosati to‘g‘risida”gi 1925-yil 18-iyun, VKP(b) ning “Adabiy-badiiy tashkilotlarni qayta qurish haqidagi” 1932-yil, 23-aprel qarorlaridan so‘ng ijod erkinligi bo‘g‘ilib, adabiyotning barcha estetik printsiplari faqat bir maqsadga – “qizil

⁹⁰ М.Қаршибоев. Муҳит эркидаги тутқунлик.// “Шарқ юлдузи”, 1990 йил 10-сон.-33-бет.

imperiya” siyosatini targ‘ib etishga qaratildi. Xususan, 30-yillardagi faol munaqqidlardan Miyon Buzruk Solihovning “O‘zbek adabiyotida millatchilik ko‘rinishlari” risolasida Cho‘lpon ijodi shu mafkura nuqtai nazaridan turib tahlil etiladi. Risolada Cho‘lpon she‘riyatiga “millatchilik”, “panturkizm” yorliqlari yopishtirildi. Jumladan, u “Uyg‘onish” majmuasi xususida shunday yozadi: “Asar o‘zbek millatchilik adabiyotining tarixini go‘zal bir tusda yozish vazifasini o‘z oldiga qo‘ymadi. Balki uning mohiyatini va metodlarini izohlab va uning bo‘lib kelgan va bo‘lmog‘i mumkin bo‘lg‘an ta’siri va qoldiqlari bilan kurashish maqsadini ko‘zda tutib bordi. Shu sababli unda san‘at darajalari, uslub, texnika kabi nuqtalarga ayrim tusda to‘xtalishga hojat ko‘rinmadi. Asar har bir maqsad va analizni mumkin qadar millatchilik adabiyoti qahramonlarining o‘z taraflaridan yozilib qolg‘on hujjatlar bilan isbotlashga urindi...”⁹¹. Konservativ tanqidning Cho‘lpon ijodiga nisbatan bu kabi munosabatlari haqida yana ko‘plab misollar keltirish mumkin.

1957-yilda Cho‘lpon rasman “oqlandi”. Biroq adabiy tanqidchilik Cho‘lpon ijodi haqida haqiqatni aytishga yana o‘ttiz yil jur‘at qilmadi. Hatto 1968-yilda chop etilgan kollektiv majmua – Cho‘lponning yigirma uch she‘ri kiritilgan “Tirik satrlar”ning boshiga qiyin kunlar tushdi. Cho‘lponshunos Zamira Eshonova yozishicha, adabiyotshunos Mahmudali Yunusov 1965-yilda chop etilgan “Traditsiya va novatorlik problemi” kitobida Cho‘lponni “burjua intelegentsiyasining adabiyotdagi ikkinchi yirik vakili” sifatida taqdim etadi. Munaqqid fikricha: “Fitrat singari Cho‘lpon ham o‘z oldiga bor imkoniyatlarning barchasidan foydalanib, ishchi va dehqonlar hokimiyatini mustahkamlashga qarshilik ko‘rsatish, sotsialistik ideologiyaning omma ongiga singishiga xalal berish va o‘taketgan pessimistik, ishonchsizlik kayfiyatlarini yoyish orqali xalqdagi tetiklik va hayotni sevishtirish e‘tiqodiga zarba berishga urinadi. Bu reaksion niyat ochiqdan ochiq, ba‘zan simvolik obrazlar vositasi bilan amalga oshirilsa, aksariyat chog‘larda quruq naturalizmdan iborat peyzaj, quruq sub‘ektivizm ruhi bilan sug‘orilgan muhabbat

⁹¹ Миён Бузрук Солихов. Ўзбек адабиётида миллатчилик кўринишлари.-Т.: 1933.-65-бет.

lirikasi bilan ifoda qilinadi”⁹². Ko‘rinadiki, M.Yunusov Cho‘lpon ijodiga Ayn pozitsiyasidan turib yondashadi.

XX asrning 20-30-yillarida proletariat diktaturasi pedagogika, tarix, adabiyotshunoslik kabi ijtimoiy fanlarga tatbiq qilinib, pedagogika va badiiy adabiyotning insonparvarlik, hurlikka, ezgulikka daxldorligi inkor etiladi.

Vatanparvarlik bilan bog‘liq milliy g‘oyani sovetlarga qarshi jinoyat deb baholovchi mafkura targ‘ibotchilari milliy istiqloqlarning yetakchilari bo‘lmish Fitrat, A.Qodiriy, Cho‘lpon, Oybekka va ularning yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalovchi asarlariga qarshi maqolalar bilan chiqdilar.

Ayn (Olim Sharafiddinov) “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1927-yil 17-fevral sonida bosilgan “O‘zbek shoirlari. Cho‘lpon” maqolasida yosh shoirlarga “g‘amxo‘rlik” bahonasida ularning milliy istiqloq, vatanparvarlik ruhidagi she‘rlarini shafqatsiz va asossiz tanqid qiladi. Ayn yozadi: “Cho‘lpon xayolparastdir. Chunki millatchilar, ziyolilar va shu mafkurani (milliy mafkurani – U.Sh.) qabul qilganlar uchun xayoldan shirin, xayoldan lazzevatlik narsa yo‘q. Shunga o‘xshash Cho‘lpon ham ming qavat ko‘klarda yuradi. U yerda (ko‘kda) “husni mutloqni” (bu so‘z mistitsizm (tasavvuf) atamasidir) axtaradi, har haqiqatni xayol ko‘zi bilan ko‘radi. Shundan zavq oladi. U ko‘klarda “jinnilarcha hovliqib” yurishda ba‘zan charchaydi, faqat yerga tushkisi kelmaydi, undan (yerdan) lazzevat olmaydi. Mabodo qaytib yerga tushgudek bo‘lsa o‘zini haqoratlar, safolatlar, tubanliklar ichida his qiladi. Ko‘nglining kishanlar bilan bog‘langanini ko‘radi. Tezda ko‘ngliga xitoban:

Ko‘ngil! Sen bunchalar nega
Kishanlar bilan do‘stlashding?

– deb yerda yurishdan chidami tugaydi-da, “Bas endi!” deydi.

Etar, bas, chekdan oshqondir
Bu qarg‘ish, bu haqoratlar...⁹³

Nag‘masini o‘qib, ko‘kka uchadi. Yerga tushgan onlarida juda qattiq millatchi bo‘lib ketadi. Chunki bu safolatlariga, tubanlikka sabab bo‘luvchi ajnabiylarni ko‘radi. Ular ruslardan iboratdir. Shoir ruslarni hech bir guruhga, qavmga ajratmaydi. Butun ruslar uning

⁹² Юнусов М. Традиция ва новаторлик проблемаси.-Т.: Ўқитувчи, 1965.- 46-бет.

⁹³ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1- жилд.-Т.: Академнashr, 2016.-121-бет.

nazarida mustamlakachilardir”. (Bu bilan munaqqid Cho‘lponni sovet ruslarini chorizm mustamlakachilariga tenglashtirishda ayblaydi. – U.Sh.) “Og‘ir tojning zaharli o‘qlari vatanga istaganlarini qilmoqdalar,” – deb yig‘laydi. Umidsizlanadi. Cho‘lpon inqilobdan rozi, faqat ruslardan, ruslarning vatanda qolishlaridan rozi emas. U milliy jumhuriyatlarga, unda bo‘layotgan ishlarga o‘zicha ma’no beradi”⁹⁴.

Shu maqolasida Ayn yana shoirning tabiat, qushlar mavzusidagi she’ridan ham siyosiy, g‘oyaviy xato izlaydi. Bu ayblovlarni tasavvur qilish uchun Cho‘lponning “Qushning hadigi” she’rini to‘liq keltiramiz. Bu she’r Ayn maqolasi chiqishidan uch yil avval (1924) yozilgan.

Qush bechora qo‘rqadurkim, uyasidan ayirgaylar,
Uyasidan ayirmoq-la qayirgaylar.
Mayda simdan silliq qilib, mohirona to‘qilgan bir
Qafas topib, darchasini ochib, derlar “Maskanga kir!”

Miskin qush ham yangi maskan “chekyasi”ga qo‘nib olar,
Maskaniga ko‘z yugurtar, tegrasiga nazar solar.
Va ko‘rarkim, maskan o‘zi mashinada qo‘yilmishdir,
Uni hozir qilmoq uchun ko‘p zehniyat sarf bo‘lmishdir.

Darchalari mahkamgina, puxtagina, xotirjamlik.
Suv ichgali, don yegali teshiklar bor kichik-kichik.

Simlar bilan ishi yo‘qdir, chiqmoq uchun uchib ko‘rar,
O‘rmonlarning xayolida har tomonga o‘zni urar.
Tomni teshib chiqmoq uchun shiplarga ham ko‘p yalinar,
Unday qilib bir intilar, - munday qilib bir intilar.

Faqat, zaif vujudini qancha ursin devorlarga,
Balki uning yumshoq tani, to‘lib ketsin ol qonlarga.
Devorlarning sezgisi yo‘q, tuyg‘usi yo‘q, tovush bermas.
Tegra butun ruhsiz gavda:
“Nechun bundoq bo‘ldi?” – demas.

⁹⁴ Чўлпон ва танкид.-Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси “Адабиёт жамғармаси” нашриёти, 2004. -31-бет.

Uning butun tasallisi to‘lib-toshib sayramoqdir,
Ko‘m-ko‘k dala, o‘rmonlarni eslab-eslab yig‘lamoqdir,
Yig‘lamoqdir...⁹⁵

Ayn Cho‘lponning romantik va simvolizm ruhidagi bu go‘zal she‘rini chaquv – “donos” yozgandek, bunday deydi:

“Bu she‘r ramziyunlarcha (simvolizm yo‘lida) yozilg‘oni uchun qorong‘i, kinoyalidir. Uning (Cho‘lponning) fikricha: “Inqilob natijasida ozod bo‘ldik. O‘zimizga maxsus maskan (uya)ga ega bo‘ldik. Lekin... jilovimizni yana o‘shal mustamlakachilarning qo‘liga tutquzdik. Maskanimiz, ko‘p zehniyat (hiylakorlik) sarf qilib, mashinada qo‘yilgan. Don yegali unda kichik teshiklar bor. Biz ana shunga aldanganmiz”, deydi. Buni yanada ochiqroq qilib, “Cho‘lponning muhiblaridan (muxlislaridan – U.Sh.) Vadud afandining tili bilan aytsak: “Biz ruslarning qo‘lida o‘yinchoqmiz. Moskov buyurgandan so‘ng har narsani qilishga majburmiz” bo‘lib chiqadi. “Qush hadigi”ning ma‘nosi mana shundan iborat”⁹⁶.

Ijodkor taqdirini hal qiluvchi o‘sha qizg‘in bahslarda Vadud Mahmud va iste‘dodli shoir Oybek ustoz Cho‘lponni himoya qilib, uning she‘rlaridagi go‘zallik va nafosatni ishonarli tarzda ko‘rsatib berdilar.

“Turkiston” gazetasining 1923-yil, 10-dekabr sonida Vadud Mahmud “Cho‘lponning “Buloqlar”i” sarlavhali maqolasida shoir she‘rlariga yuksak baho berib, bunday yozadi: “Cho‘lpon o‘zbekning yangi shoiridir. Shuning uchun o‘zbek elining bu kungi ruhi, holi (ahvoli), sezgisi (his-tuyg‘ulari) “Buloqlar”da qaynaydir. O‘zbek tili, o‘zbek ohangi “Buloqlar”da sayraydir. O‘zbekning ruhiy to‘lqinlari bunda ko‘puradir, ko‘klar tomon uchadir, ko‘tariladir”⁹⁷.

Vadud Mahmud shoirni asossiz tanqid qilgan mustamlakachilarning malaylari ustidan kulib, bunday deydi: “O‘zbek yangi shoirlarining “ohangsiz” bo‘lishini uyalmayin so‘ylayturg‘on og‘izlarga “Buloqlar” tupuradur. O‘zbek adabiyotiga

⁹⁵ Чўлпон. Асарлар. I жилд. 4 жилдлик.-Тошкент: Akademnashr, 2016, 183-184-бетлар.

⁹⁶ Чўлпон ва танқид.-Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси “Адабиёт жамғармаси”нашр, 2004.- 31-32-бетлар.

⁹⁷ Чўлпон ва танқид.-Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси “Адабиёт жамғармаси”нашр, 2004.- 16-бет.

til tegdirmakchi bo'lg'on "mashg'ur" nodonlarga bu "Buloqlar" kuladir"⁹⁸.

Vadud Mahmud keng dunyoqarash va milliy adabiyotning chuqur bilimdoni sifatida "Amalning o'lumi" she'ridan quyidagi parchani keltirib, tahlilga tortadi:

Ko'nglimda yig'lagan malaklar kimlar,
Sharqning onalari, juvonlarimi?
Qarshimda egilgan bu jonlar kimlar?
Qullar o'lkasining insonlarimi?

– deb, shu qisqa parchaning o'zidagina qancha she'riyat, qancha ohang uydirdi (uyushtirgan), shu bilan birga yurtining dardini, qullarning anglagan jonlar bo'lishini, ko'nglida yig'lagan malaklarning Sharqning onalari, juvonlari ekanini qancha ochiq (ravshan), muassir (ta'sirli) va e'joz (ixchamlik, mo'jazzalik) bilan tasvir etadi"⁹⁹.

Cho'lponning iste'dodli shogirdi, nafosatni nozik his etuvchi yosh shoir Oybek adabiyot nazariyasini ham sinfiy kurashga bog'lovchi "Ayn"ning xato qarashlarini tanqid qilar ekan, Cho'lpon she'riyatining yuksakligiga alohida urg'u beradi. "Ayn"ning maqolasida, – deb yozadi Oybek, – yana shunday tuturuqsiz narsalar bor. "Cho'lpon xayolparastdir. Chunki millatchilar, ziyolilar va shu mafkurani (milliy mafkurani – U.Sh.) qabul qilganlar uchun xayoldan shirin, xayoldan lazziyatlik narsa yo'q. Shunga o'xshash Cho'lpon ham ming qavat ko'klarda yuradi", deydi. Ana, "Ayn"ning mantiqiy tushunchasi. Demak, kimki millatchi bo'lsa – xayolchi, millatchi bo'lmagan kishi – xayolsiz. (Ayn fikricha) ehtimol, millatchilar o'z g'oyalariga erisha olmay, xayolot quchog'iga otilg'ondirlar. Lekin bir shoirni tekshirib turgan munaqqidning shoirdagi yaratuvchi xayoliy manbani millatchilikka bog'lab qo'yishi, meningcha, xato. Bashariy tuyg'ular bilan toshqon proletariat shoirlarida xayol yo'q, deysizmi? Agar millatchilik bilan xayol bir-biriga bog'liq bo'lsa, butun (barcha) shoirlar millatchi ekan-da. Dunyoda hech kim xayolsiz adabiyot(ni) tasavvur eta

⁹⁸ Ўша манба. 16-бет.

⁹⁹ Ўша манба. 16-бет.

olmas, balki munaqqid “Ayn” tasavvur etmasa”¹⁰⁰. Oybek shu maqolasida buyuk rus shoiri Pushkin proletariat shoiri bo‘lmay, aslzoda, dvoryanlardan chiqqan shoir bo‘lsa ham, uni bugungi kunda rus ishchisi, komsomoli, firqalisi, olimi – hammasi sevadi, hammasi o‘qiydi, deydi. Ruslar buyuk adabiy merosidan voz kechmasligini aytadi. “Biz ham Cho‘lpondan voz kechmaymiz”, - degan fikrni ilgari suradi.

Yosh shoir Oybekning bu maqolasi xalqimiz milliy istiqlolga erishgan hozirgi kunlarimizda ham Cho‘lpon ijodining tarixiy-pedagogik mazmun-mohiyatini o‘rganishda, shubhasiz, muhim ahamiyat kasb etadi.

Qizil imperiya Cho‘lpon ijodiga bo‘lgan munosabatida boltaning sopini o‘zidan chiqardi. Natijada O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 1937-yil sentyabr Plenumida qayd etilgan quyidagi talab uning ayanchli qismatiga muhr bo‘lib bosildi: Bitsin bizning oramizdan haydalgan va bizning adabiyotimizni buzishga uringan xalq dushmanlari: trotskiychi, buxarinchi, millatchi, aksilinqilobchi Z.Said, Elbek, Cho‘lpon, Fitratlar!

Sho‘rolar saltanatining shundan keyingi davrida, mustamlakachilik siyosati, kommunistik mafkura va diktatura rejimi tazyiqi bilan milliy istiqlol fidoyilaridan biri bo‘lgan Cho‘lponning “ashaddiy millatchi”, “xalq dushmani” sifatida asarlarini o‘qish va hatto nomini tilga olish ta‘qiqlab qo‘yildi.

Holbuki, Cho‘lpon buyuk san’atkor sifatida o‘zbek adabiyoti rivojiga yosh shoirlarga ustozlik qilish orqali beqiyos katta hissa qo‘shgan buyuk so‘z san’atkori edi. “Hech ikkilanmay aytish mumkinki, - deb yozadi Ozod Sharafiddinov, - 20-yillarda Cho‘lpon she‘rlari o‘zbek poeziyasi rivojida yangi sahifa ochdi. O‘sha paytlarda adabiyot olamiga endigina qadam qo‘yayotgan Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Uyg‘un, Mirtemir kabi yosh shoirlar Cho‘lponni ustoz bilib, etagidan mahkam tutishadi. She‘riyat sirlarini egallashda, mahorat pillapoyalaridan ko‘tarilishda Cho‘lpon she‘riyati ular uchun chinakamiga dorilfunun bo‘ldi”¹⁰¹.

¹⁰⁰ Чўлпон ва танқид.-Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси “Адабиёт жамғармаси”нашр, 2004.-37-бет.

¹⁰¹ Чўлпон ва танқид.-Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси “Адабиёт жамғармаси”нашр, 2004.-34-бет.

Cho'lpon o'z ijodi davomida aruzdan boshqa, turkona erkin vaznlarda ham buyuk va nafis tilimiz xazinalari mavjudligini, bu tilda eng nozik, nafis tuyg'ularni, boy ruhiy kechinmalarni, ma'no tovlanishlarini go'zal ifodalash mumkinligini isbotladi.

Cho'lpon yosh avlodga Vatanni chin yurakdan sevishni, Vatan go'zalliklarini ko'ngil ko'zi bilan ko'rishni o'rgatdi. Cho'lpon fikricha, Vatan "Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal". Shoir Vatan timsolini murakkab, rang-barang ma'nolar, sermavj tuyg'ular, ohanrabo fikrlar ichiga yashiradi, o'zi izlayotgan go'zalning kimligini pinhon tutadi. "Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib, eng yorug' yulduzdan seni so'raymen", - deydi shoir. U kimni izlaydi? Yaxshiroq o'ylab ko'rsak, tushunamizki, shoir sho'ro mustamlakachilari tomonidan barbod bo'lgan Vatanni izlamoqda. Bu she'r 1919-yilda Toshkentda yozilgan. Turkistondagi uch xonlik davrida ham, chorizm – Romanovlar, oqposhsho Nikolay davrida ham yorug'lik ko'rmagan o'lkada mustaqil davlat – Turkiston muxtoriyatining tashkil topishi mazlum xalq orzusining ushalishi edi. Lekin, afsuski Sho'rolar bu yangi mustaqil davlatni bir oy ham yashatmay bo'g'ib tashladi, qonga botirdi. Qizil armiya bilan arman dashnoqlari bir hafta davomida Qo'qonda uy-joylarni yoqib, tinch aholini otish, chopish, qirish bilan shug'ullandi¹⁰².

Cho'lpon mana shu yo'qolgan Vatanni izlar, Quyosh va Oydan, yulduzlardan so'roqlar edi. Cho'lpon shu Vatanni va unga bo'lgan sevgisini yashirishga, sirli ma'nolarga o'rab yozishga majbur edi. Bu uslub ham juda buyuk iste'dodni talab qilardi. Yulduz esa, "uyalib, boshini egib, men uni (Vatanni) tushimda ko'ramen – shunchalar go'zal, bizdan-da go'zaldir. Oydan-da go'zal", - deydi.

Cho'lpon bu she'rida milliy, an'anaviy ertak ruhida, yo'qotgan sevgilisini Quyoshdan, Shamoldan so'raydi. Quyosh uni tushdamas, o'ngimda bir marta ko'rdim. U chindan ham Oydan-da go'zaldir, Kundan-da go'zal! - deydi. She'ning oxirgi bandida shoir bu sirli muhabbatining sohibasi kimligini aytmasa-da, uni sevish juda og'ir, fojeiy ekanligini bir necha so'z bilan ifoda qiladi: "Men yo'qsul na bo'lib, Uni suyibmen. Uning-chun yonibmen, yonib-kuyibmen, boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen", deydi.

¹⁰² Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston tarixi. 2-kitob.-T.: Sharq, 2011.- 94-ber.

Bu she'r yozilgan 1919-yilda hali sobiq mustamlaka o'lkalar batamom mahv etilmagan, rasman Sovet sotsialistik respublikalar Ittifoqi – SSSR davlati tuzilmagan edi. Shunga qaramay, poytaxti Toshkentda bo'lgan Sovetlarning Turkiston xalq komissarligi hukumati o'z harbiy va maxfiy xizmati kuchlari bilan mustaqil milliy davlat – Turkiston muxtoriyatini tag tomiri bilan yakson qildi. Boshqacha aytganda, qizillar terrori 1937-yildan ancha avval, 1918-yildayoq boshlangan edi.

Turkiston muxtoriyati tuzilishidan avvalroq, o'tkir va nozik siyosatchi, davlat arbobi, buyuk shoir va dramaturg, ma'rifatchi, pedagog Abdurauf Fitrat 1907-yilda hali bolsheviklarning proletariat diktaturasi 25-oktyabr to'ntarishida g'alaba qilmasidan avval o'zi rahbar bo'lgan "Hurriyat" gazetasida bosilgan "Siyosiy g'oyalar" maqolasida Rusiyadagi umumiy vaziyatni bunday tushuntirgan edi: "Musibat ustina musibat! Rusiyaning hozirgi holini tasvir etmak uchun mundin yarasharoq so'z yo'qdir. O'zgarishdan so'ng Rusiyaning har tarafidan ochliklar, yong'inlar, talonlar, o'limlar, o'ldurmalar bo'lib turgan chog'da...Rig'o (Riga) qo'ldan ketishini ko'zda olsak, bular orqasidan Boltiq mag'lubligini o'ylasak, Rusiyani musibat ustinda musibat bosayotibdir"¹⁰³.

Maqolada aytilishicha, F.Kerenskiy boshlig'i bo'lgan Rusiya hukumatiga qarshi "yangi balo bosh ko'tardi, bolshevik balosi! Bolshevik bu daf'a buyuk ish qo'pordi. Petrogradni olib, (1917-yil oktyabr to'ntarishida) Kerenskiyni Rusiyaning sodiq bolalarini axtarib topib, to'plab keturmak uchun maydonlarig'acha ketarg'a majbur qildilar".

Muvaqqat hukumat boshlig'i F.Kerenskiy Rossiyaning sovetlardan qutqarish, imperiyani qayta tiklash uchun Denikin, Dutov, Kolchak, Krasnov, Yudenich boshliq bo'lgan oq gvardiyachilarni to'plab, hujumga o'tadi.

Abdurauf Fitratning maqola oxirida aytgan mana bu so'zlariga e'tibor beraylik: "Biz turkistoniylar uchun har holda Kerenskiychilar bilan bolsheviklar orasidagi kurashning bitib ketmagini (tugashini) ko'zda tutib, o'z yo'llarimizni shunga ko'ra tayin etmak kerakdir. Bilasizki, bulardan birontasi istiqlol tarafdori emasdir"¹⁰⁴.

¹⁰³ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 3 жилд.-Т.: Маънавият, 2003.-197-бет.

¹⁰⁴ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 3 жилд.-Т.: Маънавият, 2003.-198-бет.

1917-yil 25-dekabrda butun Turkiston musulmon ishchi, soldat va dehqon deputatlarining 1 favqulodda syezdi ochilib, u Turkiston Muxtoriyatini qonuniy deb e'lon qildi. Abdurauf Fitrat, Behbudiy, Cho'lpon, Ayniy, Hamza va boshqalar Turkiston muxtoriyatini qutlab, she'r va tabriklar yozdilar. Abdurauf Fitrat o'z qutlovida shunday yozadi:

“Turkiston turkining qonini qaynatg'uvchi, iymonini yuksaltiruvchi bir quvvat bor esa, yolg'iz shu so'zda bordir: Turkiston muxtoriyati. Ellik yildan beri ezildik. Tahqir etildik, qo'limiz bog'landi, tilimiz kesildi, og'zimiz qoplandi, yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yemirildi, nomusimiz g'asb qilindi, huquqimizga tajovuzlar bo'ldi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi. To'zimli turdik, sabr etdik. Mahkama (chor hukumati idorasi)dan yig'lab qaytganda, yorug'siz turmalarda yotganda, yirtg'uvchi (yirtqich) jandarmning tepkisi bilan yiqilganda, yurtimiz yondirilg'anda, dindoshlarimiz osilg'anda (Dukchi eshon, Po'latxon qo'zg'olonlari ko'zda tutilgandir – U.Sh.) ongimiz yo'qoldi, miyamiz buzildi, ko'zimiz yog'dusiz qoldi, biror narsani ko'rolmadik. Shul chog'da, tushkun ruhimizni ko'tarmak uchun shul qopqorong'u dunyoning uzoq bir yerinda oydin bir yulduz yalqillab turar edi. Biror narsaga o'tmagan ko'zimiz shuni ko'rar edi: Turkiston muxtoriyati!”¹⁰⁵

Cho'lponning bu tarixiy voqeaga bag'ishlab, yangi davlat madhiyasi tarzida yaratgan “Ozod turk bayrami” she'riga 1917-yil noyabr-dekabr deb sana qo'yilgan. Madhiyaning naqorati quyidagicha:

Turkistonli – shonimiz, Turonli – unvonimiz,

Vatan – bizni(ng) jonimiz, fido o'lsun qonimiz!¹⁰⁶

Lekin, afsuski, bu mustaqil davlat Rusiyaga avtonomiya sifatida ittifoqchi bo'lib tuzilishiga qaramay, Rossiya hukumati tomonidan qurolli bosqinchilik yo'li bilan tugatildi.

Bolshevistik aldovga uchgan va mutaassiblikka berilgan “ulamoi islom” jamiyatining ruhoniylari Turkiston Muxtoriyati o'z hukumatiga musulmon ulamolaridan tashqari arman, rus, yahudiylarni qo'shganidan norozi edilar. Shu sababli, ular tor manfaatlar bilan

¹⁰⁵ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 3 жилд.-Т.: Маънавият, 2003.-198-бет.

¹⁰⁶ Чўлпон. Асарлар. I жилд. 4 жилдлик.-Тошкент: Akademyashr, 2016, 22-бетлар.

cheklanib, Turkiston Muxtoriyatining ag‘darilishida sovetlarga yordam berdilar.

Cho‘lpon 7-sinf “Adabiyot” darsligiga kiritilgan “Buzilgan o‘lkaga” she‘rida Vatanimiz tarixining eng og‘ir davri, davlat mustaqilligidan ayrilgan paytlarini ko‘rsatish orqali yurt qayg‘usini izhor qilar ekan, bu o‘lkaning tog‘lari yuksakligini, buloqlari jannatdagi kavsar suviday toza, tiniqligini, lekin bu suvlarning haqiqiy egalari yo‘qolgani, egalari o‘rniga yovlar kelib, izg‘ib yurgani nafis, poetik manzaralarda, tabiatning ruhlantirilgan holatlarida tasvirleydi.

She‘rning davomida bu qayg‘uli holat yanada chuqurlashadi, bu qayg‘uning sabablari asta-sekin ochila boradi:

Ko‘m-ko‘k, go‘zal o‘tloqlaring bosilg‘on,
Ustlarida na poda bor, na yilqi,
Podachilar qaysi dorg‘a osilg‘on?
Ot kishnashi, qo‘y ma‘rashi o‘rniga
- Oh, yig‘i. Bu nega? ¹⁰⁷

Bu manzaradan shunday ma‘no kelib chiqadiki, bu go‘zal buloq va o‘tloqlarga bosqinchilar kelgan, bu yerdagi podalar, yilqilarni qaroqchi yovlar olib ketgan, o‘tloqlar bosilib, toptalgan.

She‘r davomida shoir undagi, yashirin ma‘noga e‘tibor qaratish uchun ritorik so‘roq uslubidan foydalanadi:

Tumorchalar, hamoyillar taqingan,
Dalalarda lola bargi yopingan,
Tog‘-toshlarda o‘yin qilgan, chopingan
Go‘zal qizlar, yosh kelinlar qaerda?
Javob yo‘qmi ko‘klardan-da, yerdan-da,
Xarob bo‘lgan eldan-da...¹⁰⁸

Bu misralardan shunday ma‘no chiqadiki, o‘lkaning avval chin egalari bo‘lgan vaqtda sho‘x, quvnoq, o‘ynab, sayr qilib yurgan qizlar, kelinlar qayoqqa ketgan? O‘quvchi sezadiki, bular bosqinchi yovlar tomonidan yo‘qotilgan, otilgan yoki qamalgan. El xarob bo‘lgani aniq aytiladi.

Bu she‘rlarda shoir Cho‘lpon izhor etgan qayg‘u-alam, vatandan ayriliq, judolik iztiroblari, orzu-armonlari yosh avlodda

¹⁰⁷ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. Ж.И.-Тошкент: Akademnashr, 2016.-88-бет.

¹⁰⁸ Ўша манба. 53-бет.

vatanparvarlik tuygʻusini kamol toptirishga xizmat qiladi, istiqlolni qadrlashga oʻrgatadi.

Vatan tuygʻusi xalqparvarlik negizida kamol topadi. Chunki Vatansiz xalq quldir. Vatanni sevish xalqni sevish, xalqning qaygʻu-hasratlariga hamdard boʻlib, uni qullikdan ozod qilish uchun kurashga chorlaydi. Choʻlponning “Qizil baynalmilal” sheʼrida bir millatning yoʻqsillari – kambagʻallari bilan boylari, burjuaziyasi oʻrtasidagi sinfiy kurash emas, balki mazlum, ezilgan Sharq xalqlari bilan bosqinchilar oʻrtasidagi dushmanlikni tushuntirish, xalqning milliy ongini oʻstirish, milliy-ozodlik kurashiga chaqiriq gʻoyasi yetakchilik qiladi.

Sharq eliga qutulishga yoʻl yoʻqmi,
Unga hech kim shafqat koʻzin solmasmi?
Gʻarblilarda insof, vijdon hech yoʻqmi,
Biror quvvat bu zulmni olmasmi?¹⁰⁹

Shoir bunday quvvat oldin boʻlmasa ham endi borligini aytadi. Oʻsha vaqtda baynalmilalchi, taraqqiyparvar kuchlar tashabbusi bilan Xalqaro Qizil yarim oy jamiyati tuzilgan va bu jamiyat vakillari kambagʻallarga va tabiiy ofatga uchragan xalqlarga yordam qoʻlini choʻzmoqda edi. “Bir yildirki, koʻk yuzida tugʻildi qizil qonlar orasida qizil Oy. Bir tarafdan qahr, zulmat quvildi. Sharqni yana ul qizil Oy qutqargʻay...” Bu ilgʻor, gumanistik gʻoya sheʼrning zohiriy maʼno, mazmunini tashkil etadi.

Tarixdan maʼlumki, frantsuz shoiri Ejen Pote yozgan “Baynalmilal” sheʼri butun dunyo proletarlari – yoʻqsullar madhiyasiga aylangan. Sinfiy kurash ruhidagi mazkur sheʼrni Choʻlpon oʻzbekchaga tarjima qilgan, degan maʼlumotlar bor.

1923-yil 23-mart kuni “Turkiston” gazetasida eʼlon qilingan “Uygʻonish” deb atalgan mustamlakachi shoʻro hukumatining nuqtai nazarini aks ettiruvchi imzosiz maqolada Choʻlpon sheʼrlari xalqimizning oʻzligini anglash yoʻlida milliy ong uygʻonishiga xizmat qilishi, shoir tilining nafisligi va xalqchilligi, yangi inqilobiy davr dolgʻalarini haqqoniy aks ettirishi eʼtirof etilgani holda shoir ijodi pessimistik, tushkunlik ruhida ekanligi tanqid qilinadi.

¹⁰⁹ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. Ж.И.-Тошкент: Akademnashr, 2016.-46-бет.

“Turmushimizda o‘zgarish boshlandi. Shoirlarimiz gul va bulbul madhi o‘rnida zamon va muhit kuylarini o‘qumoqqa boshladilar.

Adabiyotimizning “rohat” davri (Amir Umarxon davridagi g‘azallar ko‘zda tutiladi) haqiqatning “qayg‘u” lariga alishlandi (almashindi). “Yaqin quyundagi uyqu (ijtimoiy, ong mudroqligi – U.Sh.), bilmaslik, sezmaslik to‘shagidan ko‘tarilgan xalqimiz hayot quyoshining issiq va achchiq nurlari ostida o‘zining ko‘zlarini uqalamoqqa kirishdilar. Xayolan haqiqatga o‘tish davri, o‘rganish (yangi, sotsialistik hayotga o‘rganish – U.Sh.) kunlarining (shoir) yuragiga ilk bergan tuyg‘ulari umidsizlik, o‘ksinish, aldanish shaklida og‘izlardan to‘kuladur:

Nechuk ochildi ko‘zim, qayga ketdi uyqularim,

Bu uyg‘onishda to‘lub-toshdi, oshdi qayg‘ularim...

Mana bu ukunish, koyish, umuman bir umidsizlik (pessimizm) bizning so‘nggi davr adabiyotimizning ko‘zga ko‘rinarlik va haqiqatan achinarliq xususiyatidir”¹¹⁰.

Imzosiz maqola muallifi bu fikrlariga ko‘ra, oddiy odam emas, balki adabiyotni, she‘riyatni yaxshi tushunadigan ijodkor, adabiyotshunos ekanligi seziladi. Ehtimol, bu o‘sha vaqtlarda “Adabiyot darsligi”ni yozgan Abdurahmon Sa‘diydir? Ehtimol, Zarif Bashir yoki Vadud Mahmuddir? Ammo, kim bo‘lsa ham, maqola muallifi Cho‘lponni eski zamondagi gul va bulbul ishqini kuylovchi emas, balki yangi davrga, xayoldan haqiqatga o‘tish davri mashaqqatlarini qalbida aks ettirgan iste‘dodli shoir deb biladi.

Imzosiz maqola juda qisqa bo‘lsa ham, unda yashirib aytilgan ma‘no – milliy istiqlol haqidagi orzular endi faqat bir xayol bo‘lib qolgan yangi davrning achchiq haqiqatlari ularni qayg‘uga solayotgani pardali qilib aytilgan. Maqola muallifi Cho‘lponga ham “ko‘p qayg‘urmangiz, bu uyg‘onish “xalqimiz hayoti quyoshining issiq va achchiq nurlaridir, endi ko‘zlaringizni uqalab, uyg‘oning, orzudan, xayoldan ayrilish achchiqligiga chidang va endi yangi davrni kuylang”, deb tasalli berishga urinadi. She‘riyatdagi tushkunlikni “haqiqatan achinarliq xususiyatdir”, deydi.

¹¹⁰ Чўлпон ва танқид.-Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси “Адабиёт жамғармаси”нашр, 2004.-11-бет.

“Uyg‘onish” maqolasi muallifining fikricha, sho‘rolardan avvalgi xalqimiz hayoti ham yaxshi, yorug‘ emas edi. Tushkunlikka berilgandan ko‘ra, yorug‘ kunlarga umid bilan yashamoq yaxshiroqdir: “Sharq o‘zbekning eski, xurofiy va xayoliy kunlarini kechirib, zamon va makonning haqiqat davrini boshladi. Har bir ishimiz, yurishimiz-turishimiz, gapimiz, so‘zimiz, hammasi ham yangi davrning yangiliklari bilan birgadir. Faqat bu yangiliklar bizga eng avval o‘zining achchig‘ini, qo‘polligini sezdiradir. Nima qilmoq kerak, haqiqatning achchig‘lig‘ini bilmagan bormi?”¹¹¹

Maqola mazmunidan muallifning jahon adabiyoti, xususan rus adabiyotidan xabardor ziyoli ekanligi sezilib turadi. Har xolda u Cho‘lponga xayrixohlik bildiradi.

Bu paytgacha Cho‘lponning “O‘zbek yosh shoirlari” to‘plamida “Suygan choqlarda”, “Go‘zal”, “Xayol”, “Zarafshon”, “Qalandar ishq”, “Tabiatga”, “Uyqu”, “Ulug‘ yo‘lda”, “Yorug‘ yulduzga”, “Po‘rtana”, “Tortishuv tongida”, “Sharq nuri”, “Kuz”, “Yupanmoq istagi”, “Xalq”, “O‘tli suv”, “Kel beri”, “Vijdon erki”, “Kurash”, “Yurt yo‘li”, “Sharq qizi”, “Men va boshqalar”, “Navro‘z kunida”, “Barg”, “Qizarish”, “Ziyon kamar”, “Sendan yiroqda”, “Ketganingda”, gazeta va jurnallarda esa “Ko‘ngil” (“Ko‘ngil, sen munchalar nega kishanlar bilan do‘stlashding?”), “Bas endi”, “Kleupatra uyqusi”, “Qo‘zg‘olish”, “Kishan” kabi vatanparvarlik ruhidagi mashhur she‘rlari bosilib chiqqan edi.

Taraqqiyparvar yoshlardan 1922-1925-yillarda Berlin universitetida tahsil ko‘rgan Ahmad Shukriy “Cho‘lpon - Cho‘lpondir” sarlavhali jajji maqolasida o‘sha paytdagi Cho‘lpon ijodining tub mohiyatini anglashga yordam beradi:

“Cho‘lpon oti qulog‘imga kirdikicha (kirganida) ko‘zimga Shekspir ruhi ko‘rinadir-da turadir, - deyiladi maqolada. - Shekspir lirizm bilan Cho‘lpon she‘riyati orasida naqadar ayirma axtarsam-da, oni topa olmadim. “Uyg‘onish”ni necha topqirlar o‘qib chiqdim. Shekspirni mutolaa etdim. So‘ng Shekspir – Cho‘lpondir yoxud Cho‘lpon – Shekspirdir fikriga keldim. Cho‘lpon she‘rlari Shekspir

¹¹¹ Чўлпон ва танқид.-Т.:Ўзбекистон уюшмаси “Адабиёт жамғармаси”нашр, 2004.-15-бет.

jo'shqinligi bilan to'ladir. Cho'lpon shoir. Cho'lpon – Cho'lpondir.¹¹²”

Ahmad Shukriyning bu kichik maqolasida Cho'lpon asarlaridan misollar keltirilib, chuqur tahlil qilinmagan bo'lsa-da, unda ijodkor talabalarga, bo'lg'usi olimlarga xos jo'shqinlik, his-hayajon ochiq seziladi.

Ahmad Shukriy aytgan Cho'lponning ma'naviy musaffo insonlarga xos samimiyligi, oqko'ngilligi ko'pchilik she'rlarida, xususan, “Men shoirmi?” she'rida yaqqol seziladi:

Xayolim bir uchib ketib qoladir,
Men ham tizginini qo'yib beraman...
Xayolim yuksakdan tushib ketadir,
Shoirlik chang bo'lib uchib ketadir...¹¹³

“Turkiston” gazetasining 1923-yil, 4-may sonida Zarif Bashir “O'zbek shoiri Cho'lpon she'rlari”, Vadud Mahmud 10-dekabr sonida “Cho'lponning “Buloqlar”i” maqolalarida Cho'lpon ijodi va uning ma'naviy-axloqiy, estetik-tarbiyaviy qarashlari ancha chuqur tahlil qilingan, Cho'lpon she'rlarining badiiy-estetik qimmati, tilining sofliqi, tiniqligi, rang-barangligi, oz so'zlarda ko'p ma'nolar anglatishi yaxshi ochib berilgan.

Jumladan, Zarif Bashir “Cho'lpon o'rtoqning “chin shoir” deb atash mumkin bo'lg'on birinchi she'ri 1920-yilda chiqqan “Tong” jurnalidagi (2-son) “Behbudiya” yozg'on she'ri bo'ldi. Uning shul kundan boshlab yozib kelgan she'rlari tekis va nafis bo'lib tizilib keladir”¹¹⁴, deb e'tirof etadi.

Aslida Cho'lpon 1920-yilgacha, avvalroq ham bir qancha go'zal, nafis she'rlar yozgan. Shoirning shundan keyingi davrda “Xalq”, “Men qochmadim”, “Vijdon erki”, “Zarafshon” she'rlari Sangzor tog'larida, Toshqo'rg'on, Yor-yaylov tog'li qishloqlarida milliy ziyolilarimizning bir qismi sovetlar tarafida, bir qismi sho'ro mustamlakachilariga qarshi, milliy istiqlol uchun kurashayotgan davrda e'lon qilingan.

¹¹² Чўлпон ва адабиёт.-Т.: Ўзбекистон уюшмаси “Адабиёт жамғармаси”нашр., 2004, -15-бет.

¹¹³ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1- жилд.-Т.: Akademnashr, 2016.-252-бет.

¹¹⁴ Чўлпон ва адабиёт.-Т.: Ўзбекистон уюшмаси “Адабиёт жамғармаси”нашр., 2004, -17-бет.

Shu davrda Vatan taqdiriga bo'lgan qarashlar o'rtasidagi ziddiyat keskin tus oladi. Boshqird ziyolisi va lashkarboshi, Turkiston Birligi jamiyatining raisi Ahmad Zakiy Validiyning "Xotiralar"ida yozishicha, sho'ro mustamlakachilari qalin do'st bo'lgan Cho'lpon bilan Nazir To'raqulni bir-biriga dushman qilib qo'yadi.

Zakiy Validiyning guvohlik berishicha, N.To'raqul bo'lg'usi daho shoirning qirg'in janglarda halok bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun uni avaylab, janglarda bevosita qatnashtirmagan. Shunga qaramay, milliy istiqlol uchun hayotini tikkan shoir butun xalq qo'zg'olsa, bosqinchi qizil imperiya qo'shinlarini uloqtirib tashlash mumkin deb, ishonar edi. Shu ishonch-e'tiqodini u Buxoroda 1921-yilda yozgan "Xalq" she'rida yorqin ifoda etadi:

Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdur, xalq o'chdir.
Xalq qo'zg'olsa, kuch yo'qdurkim, to'xtatsun,
Quvvat yo'qkim, xalq istagin yo'q etsun...¹¹⁵

Afsuski, sovetlar armiyaga mahalliy xalqdan ham askarlar olib, ularni harbiy unvonlar bilan aldab, hokimiyatning turkistonliklarga berilishiga ishontirdilar. Mana shunday tahlikali, murakkab sharoitda Fitrat va Cho'lpon zarracha ikkilanmay, milliy-ozodlik kurashchilari tarafida otashin she'rlari bilan bosqinchilarga bo'lgan nafratini izhor qildilar. Cho'lpon 1921-yilda Farg'ona, Buxoro, Zarafshon, Samarqand, G'uzor taraflarda milliy-ozodlik kuchlari birin-ketin mustamlakachi qizil qo'shinlarni tor-mor keltirayotgan vaqtlarda yozgan "Kurash" she'rida bunday deydi:

Chaqirguvchi, o'kirguvchi bir tovush
Botirlarning jon so'ragan tovshidir.
Itqitguvchi, ag'darguvchi qo'zg'olish
Yaqindagi zo'r kurashning boshidir¹¹⁶.

Shoir bu kurashga qo'shilmay, hali Buxoro amirining qaytib kelishiga umid bog'lab, hali sovetlarning Turkiston xalqlari ustidan hukmronlik qilishini tushunmay, qaerga borishini bilmay yurgan, milliy ongi uyg'onmagan odamlarni qoralaydi:

¹¹⁵ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1- жилд.-Т.: Akademnashr, 2016.-82-бет.

¹¹⁶ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1- жилд.-Т.: Akademnashr, 2016.-73-бет.

Tentaklarday borar yerin bilolmay,
Unda-bunda o‘zni urgan dushmandir.
Keng yurakda tura olmay, sig‘olmay,
Toshib ketgan yo‘qsuldagi iymondir¹¹⁷.

Cho‘lponning bu yillardagi ijodida xalqning milliy ongini uyg‘otish, vatanparvarlik, xalqparvarlik ruhida tarbiyalash asosiy o‘rin tutadi. Vatan ozodligi, xalqning hurligi g‘oyasi shoirning yuksak estetik idealidir. Hozirgi davrda istiqlolning buyuk ahamiyatini yosh avlodga anglatishda, yoshlarning milliy ongini, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda Cho‘lpon ijodining estetik tarbiyaviy qimmatini beqiyosdir.

Har bir inson faqat o‘z g‘am-tashvishi bilan o‘ralashib qolmay, o‘z Vatani ravnaqini o‘ylab ish qilsa, o‘z xalqiga xizmat qilish zaruratini, burchini anglasa, bunday insonlarning hayoti yanada mazmundor bo‘lishi, orzular qanotida parvoz qilishiga imkoniyat yo‘llari ochilishiga doir Cho‘lpon she‘riyatining tarixiy-pedagogik ahamiyati ham mana shu – Vatanga va xalqqa cheksiz mehr-muhabbat g‘oyasining mujassamlashganidadir.

Xulosa qilganda, o‘tgan asrning 20-yillarida g‘oyaviy mafkura jabhasida sinfiy kurash shiori ma‘lum tarixiy vaziyatlarda ezuvchilarga qarshi, ozodlikka intilgan yo‘qsullar, mazlumlarning shiori edi. Lekin sinfiy kurash shioridan bolsheviklar o‘zining iblisona maqsadlarida foydalanib, Turkiston, Qozog‘iston va Boshqirdistondagi milliy istiqlolchilarni proletar inqilobiga qarshi, burjua millatchilari, kontrrevolyutsion kuchlar tarzida qatag‘on qilish uchun nazariy asos qilib oldilar. Milliy istiqlolchilar ovozi bo‘g‘ish uchun, birinchi navbatda, ularning faollarini mahv etish taqozo qilinar edi. Shuning uchun ham hujumkor qarshi tomon ayovsiz tanqid tig‘ini burjua millatchilari tarzida e‘tirof etilgan Behbudiy, Cho‘lpon, Fitrat, Qodiriy, Usmon Nosir, Munavvar qori, Tavallo kabi ilg‘or ziyolilarga qaratdi. Tabiiyki, bu kurashning oldingi saflariga mahalliy millatfurushlar tashlangan edi.

Ushbu bobda ko‘rib chiqilgan masalalar yuzasidan quyidagicha xulosaga kelindi. O‘tgan asrning boshlarida milliy uyg‘onish tafakkuridan milliy-ozodlik g‘oyasining tug‘ilishi Cho‘lpon ijodiga

¹¹⁷ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1- жилд.-Т.: Akadernashr, 2016.-73-бет.

jo'shqin ruh bag'ishlagan adabiy-estetik qarashlar mohiyatini tashkil etadi. Shuning uchun ham adabiyot darslarida Cho'lpon ijodiyoti misolida o'quvchilarning vatanparvarlik bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy qarashlarini shakllantirishda tarixiy, adabiy-badiiy manbalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Cho'lpon ijodining olamshumul ahamiyati ikki jihati bilan e'tiborga loyiq: birinchidan, shoir Vatan tuyg'usi bilan yo'g'rilgan she'rlarida asrlar mobaynida shakllangan aruzni o'ynoqi va jo'shqin barmoq vazni bilan uyg'unlashtirish orqali adabiyotni yangilashga hissa qo'shadi, ikkinchidan, butun umri davomida e'tiqodida sobit qolib Vatan erki bilan bog'liq millat dard-hasratini o'zining shaxsiy dard-hasrati tarzida avj pardalarda kuylaydi va shu tufayli "millatni uyg'otgan shoir" (N.Karimov) darajasiga ko'tariladi.

Adabiy ta'lim jarayonida yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda Cho'lpon ijodidagi vatanparvarlik tarbiyasiga oid tarixiy, adabiy-badiiy manbalar bilan birga, istiqoldan keyin yaratilgan tadqiqotlar, shuningdek, "Cho'lpon"(N.Karimov) ma'rifiy romani, "Cho'lpon" (U.Azim) pyesasi, "Tegirmon" (N.Jaloliddin) romani kabi badiiy asarlar hamda Turkiya, AQSh, Germaniya kabi xorijiy davlatlarda Cho'lpon ijodining o'rganilishiga doir manbalar muhim o'rin tutadi. Shunisi ham borki, badiiy asarlar buyuk shoir faoliyatiga doir fikrimizni boyitishi mumkin, ammo ilmiy dalillash uchun asos sanalmaydi.

III BOB. CHO‘LPON IJODI VA MUSTAQIL MUTOLAA MADANIYATI

3.1-§. Umumta’lim maktablarida Cho‘lpon ijodining adabiy-pedagogik jihatdan o‘rganilishi

Falsafiy-pedagogik g‘oyalar targ‘iboti, demakki, komil inson tarbiyasida badiiy adabiyot muhim vosita ekanligi nazarda tutilsa, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek davlat siyosatini mustaqillikka erishgach, o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ygan yangi O‘zbekistonning hozirgi rivojlanish jarayonida mustaqillikning qadriga yetish, vatan taqdiri qil ustida turgan davrda unga nisbatan tug‘ilgan turlicha munosabatlardan tegishli xulosa chiqarish, shunga ko‘ra, vatan va millat tushunchalarining yakrangligini Cho‘lpon ijodi misolida o‘rganish adabiy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. Adabiyot tarixiga nazar tashlansa, mumtoz adabiyot namoyandalarining ko‘pchiligi komil inson tushunchasi doirasidagi xalqparvarlik, vatanparvarlik, o‘zlikni anglash bilan bog‘liq ta’limiy-tarbiyaviy g‘oyalarini ma’naviy-axloqiy xarakterdagi (masalan, Yusuf xos Hojib “Qutadg‘u bilig”, Kaykovus “Qobusnoma”, Alisher Navoiy “Mahbub-ul qulub”, Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi) asarlari bilan bir qatorda sof badiiy asarlari qatiga chuqur singdirganligi kuzatiladi.

Tadqiqot muammosi yuzasidan olib borgan izlanishlardan Cho‘lpon ijodida aqliy intellektual tarbiya vatanparvarlikning tub mohiyatini tashkil etishi hamda g‘oyaviy-siyosiy e‘tiqod tarbiyasini o‘z ichiga olishini ko‘rish mumkin.

Ayonki, g‘oyaviy tarbiya deganda sho‘rolar davrida yoshlarni kommunistik mafkura, marksizm-leninizm g‘oyalari asosida tarbiyalash, sho‘rolar mustamlakachiligini sotsialistik tuzum bergan baxt-saodat, proletariat diktaturasini ozodlik, milliy ziyolilarni, istiqlolchilarni qatag‘on qilgan kompartiyani baxt quyoshi, Turkiston xalqlarining asl vatanparvarlarini “bosmachilar”, “millatchilar”, “xalq dushmanlari”, deb tushuntirilgan, sanoat va qishloq xo‘jaligidagi ishbilarmonlarni, mulkdorlarni ekspluatator sinf sifatida tugatish, surgun qilish va otib tashlashni ma’qullash “g‘oyaviy yetuklik” deb hisoblangan bo‘lsa, hozirgi g‘oyaviy

tarbiya tub mohiyati bilan tamom o‘zgachadir. Bu esa g‘oyaviy tarbiyaning davlat va jamiyat taraqqiyotining muayyan davrlarida hukmron mafkuraning yetaklashidan chiqa olmaganini ko‘rsatadi.

Taniqli pedagog olim Siddiq Rajabov “Xalq maorifi va pedagogika fanining buyuk allomalari” kitobida Ya.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, A.V.Lunacharskiy, A.S.Makarenko, X.H.Niyoziyning pedagogik tajribalarini adolatli yoritish bilan birga, Firdavsiy, Beruniy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Sa’diy, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Navoiy, Munis, Ogahiyning ta’limiy qarashlariga hech qanday o‘rin ajratmagani buning yorqin dalilidir. Mazkur kitobda Sharq allomalari o‘rniga marksizm “klassik”larining maqtovi keltirilgan: “Faqat marksizm asoschilarigina ilmiy kommunizm nazariyasini yaratib, inson shaxsining kamolot yo‘llarini belgilab berdilar”¹¹⁸.

Taniqli filolog olimlar: Homil Yoqubov, Matyoqub Qo‘shjonov, Ozod Sharafiddinov, Salohiddin Mamajonov va boshqalar Oybek, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, G‘afur G‘ulom, Mirtemir ijodida zamondoshlarimiz ruhiy olami yaxshi ochilgani haqida teran fikrlar aytish bilan birga, kommunistik mafkura tazyiqi ostida mustamlakachilar siyosatini, kommunizm, leninizm g‘oyalarini maqtashga majbur bo‘lganlari ham sir emas.

Mustaqillik davrida yosh avlodni g‘oyaviy tarbiyalash deganda milliy uyg‘onish, o‘tmishdagi milliy an‘analarimiz, milliy, diniy, ma’naviy qadriyatlarimiz xazinalaridan foydalanish, ularni boyitish va rivojlantirishning nazarda tutilishi pedagogika faniga keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Endilikda Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturudiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, So‘fi Olloyor, Munis, Ogahiy kabi mutafakkirlar bilan bir qatorda Fitrat, Hamza, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi milliy uyg‘onish davri ijodkorlari, Oybek, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda singari XX asr adabiyoti namoyandalarining boy ma’naviy xazinalaridan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda samarali foydalanish pedagog olimlarimiz faoliyatida muhim o‘rin egallashi tabiiy.

¹¹⁸ Ражабов С. Халқ маорифи ва педагогика фанининг буюк алломалари.- Т.: Ўқитувчи, 1972.-15-бет.

Shunga ko‘ra aytish joizki, vatanparvarlik bilan bog‘liq g‘oyaviy tarbiya va uning tarkibiy qismlari bo‘lgan siyosiy madaniyat, axloqiy tarbiya, turli ilm-fanlarni o‘rganish bilan hosil qilinadigan aqliy, intellektual tarbiyani bir-biri bilan uyg‘unlashtirish yangilanayotgan pedagogik tafakkur taraqqiyotida muhim bosqichni tashkil etadi.

Tabiatda ham, jamiyatda ham vakuum – bo‘shliq bo‘lishi mumkin bo‘lmaganidek, mafkura sohasida ham bo‘shliq vujudga kelishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Ayniqsa, butun dunyoda, jumladan, dunyo axborot olamida globallashuv jarayoni kechayotgan hozirgi tahdidli zamonda jahonning bir chekkasida sodir bo‘layotgan voqealar va harakatlarning tez tarqalib ketayotganini hisobga olganda, bu masalaning ahamiyati va dolzarbligi yanada ortadi.

Agar asr boshidagi hayot va tafakkur tarzi bilan bugungi kundagi zamondoshlarimizning tafakkur tarzini qiyoslasak, yer bilan osmoncha farq ko‘zga tashlanadi. Texnik taraqqiyot hozirgidek yuksak bosqichga ko‘tarilmagan bir davrda dunyoning tartiboti ham, olamlar o‘rtasidagi munosabatlar ham, binobarin, ma‘naviy-mafkuraviy tushunchalar ham shunga mos ravishda o‘zgacha bo‘lganidan ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Abdulla Qodiriyning “G‘irvonlik Mallavoy” nomli asarida asrimiz boshida Turkistonga poezd kirib kelishi bilan bog‘liq bir hangoma kulgili shaklda aks ettiriladi. Namanganga temir yo‘l tortilib, sinov parovozi kelganda uni umrida ko‘rmagan odamlar bug‘ quvvati bilan yuradigan “jonivor” deb tasavvur qilishadi. “O‘zi qop-qora bo‘lsa, yurganda dam-badam pishqirsa, chanqaganda qichqirsa, ming chelaklab suv ichib, ochiqqanda bo‘kirsa, bu – albatta, zo‘r bir hayvon bo‘lsa kerak”, deb o‘ylashadi. Kimdir unga “qora ayg‘ir” deb nom ham qo‘yadi. Sinov parovozi kelishidan biror kun ilgari uni kutib olishga tayyorgarlik ko‘riladi. Stantsiya yoniga “qora ayg‘ir”ga atab o‘n arava ko‘k beda, ellik pudcha arpa tayyorlab qo‘yadilar.

Albatta, bu tasvirda jindek mubolag‘a, hazil-mutoyiba ham yo‘q emas. Lekin u o‘sha paytdagi odamlarning tasavvurlari-yu dunyoqarashlari naqadar odmi, sodda, samimiy bo‘lganini ham ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu faqat o‘zbek xalqiga xos xususiyat emas, balki boshqa xalqlarning ham o‘sha davrdagi turmushi ko‘zdan kechirilsa, shunga yaqin jihatlarni uchratish mumkin.

Endi shunday holatni hozirgi kunga qiyosan tasavvur qilib ko'ring. Aytaylik, kompyuter, faks, "uyali" aloqa, parabolik antenna, elektron pochta kabi mo'jizalar bilan yurtimizning eng olis va chekka qishlog'ida yashayotgan maktab o'quvchisini ham va hatto biror keksani hayratga solib bo'lmaydi. Shunday ekan, jamiyat taraqqiyotining hozirgi davrida vatanparvarlik tarbiyasiga eski andozalar asosida quruq g'oyalari orqali emas, balki aniq maqsadga yo'naltirilgan tarixiy, adabiy-badiiy manbalar asosida yondashish ijobiy samara berishi shubhasizdir. Cho'lpon ijodi va adabiy-pedagogik qarashlarining o'rganilishi aynan shu maqsadga qaratilgan.

Professor A.Sa'dullayevning qadim zamonlarda avlod-ajdodlarimizning chet el bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashlari yuzasidan: "agar Doro Iskandardan o'z podsholigini himoya qilolmagan bo'lsa, Bess razil, nomard chiqqan bo'lsa ham, ammo bu yerda, Turonda shunday sheryuraklar topildiki, ular chaqirilmagan begonalarga qarshi xalq qasosini namoyon etdilar"¹¹⁹ tarzidagi fikr-mulohazasi, asli ismi-sharifi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xevaqqiy bo'lgan Najmiddin Kubro (1145-1221) hazratlarining urush ketayotgan qal'adan xoli joyga o'z ixtiyorlari bilan chiqib ketishni taklif qilgan mo'g'ul Chingizxon elchisiga: "men hayotimning eng yaxshi damlarini mana shu muqaddas tuproqda, aziz va mo'tabar ona yurtimizda o'tkazdim. Xaloyiq uchun eng og'ir paytda ona tuproqni tashlab ketish eng razil a'mol, o'ta pastkashlikdir"¹²⁰ deya raddi balo berishi katta harflar bilan yoziladigan vatanparvarlik tarbiyasining xalqimizga ota meros ekanligidan dalolat beradi.

Tarixiy, adabiy-badiiy manbalardan Cho'lpon shaxsiyati va ijodi doirasida kechgan bahs-munozaralar tarixini o'rganish asosida shunday xulosaga keldikki, vatanparvarlik tarbiyasi jamiyatning yutug'ini ham, tanazzulini ham o'zida aks ettiradigan ijtimoiy-tarixiy mezondir. Ammo shunisi ham borki, badiiy adabiyotdagi tarixiy voqelik tasviri bilan real hayotdagi voqelikni aynan bir xilda tushunish chalkashlikka olib kelishi tabiiy. Negaki, tarix fani, Aristotel "Poetika" asarida ta'kidlaganidek, aniq faktlar va ularning

¹¹⁹ Саъдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон ёзма манбаларда.-Тошкент: Ўқитувчи, 1996.-70-бет.

¹²⁰ Мирхайдаров Ҳ. Тафаккур гавҳари. -Хўжанд:Нури маърифат, 2006.-161-162-бетлар.

ilmiy tahlillariga suyansa, badiiy adabiyotda tarixga, tarixiy voqealikka munosabat ifodalanadi. Shu o‘rinda adabiyotshunoslar o‘rtasida aksiomaga aylanib qolgan “biri isbotlaydi, ikkinchisi ko‘rsatadi” tarzidagi qoidalashgan fikrni eslash o‘rinlidir.

Shu ma’noda, Cho‘lpon ijodiga va u haqdagi asarlarga ham o‘sha davrdagi voqealarning solnomasi sifatida qaralmasligi kerak. Chunki Cho‘lpon asarlarining badiiy idrok etilishi, tili va ifoda uslubi, mustamlakachilik siyosati tufayli jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlikka kuchli nafrati, vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog‘liq erk orzusi faqat ulug‘ yozuvchining o‘zigagina tegishli badiiy-estetik tafakkur mahsulidir.

Adabiyot tarixiga nazar tashlansa, har bir ijodkorning o‘zi yashayotgan davr farzandi sifatida xalq va vatan tarixining muayyan davrini qalamga olar ekan, unga o‘sha davrning ma’naviy intellektual munosabati nuqtai nazaridan yondashganini kuzatish mumkin. Binobarin, umumiy o‘rta ta’lim maktablarning 7-11-sinflarida Cho‘lpon ijodi va u haqdagi qarashlarga shu jihatdan baho berish buyuk yozuvchi ijodining tarixiy-pedagogik ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi. Adibning Chor istibdodi hamda sho‘rolar mafkurasiga qarshi milliy-ozodlik g‘oyasi, erk orzusiga oid asarlarida Vatan tuyg‘usi yuzasidan ilgari surilgan masalalar garchi hayotda allaqachon o‘z yechimini topgan bo‘lsa-da, betakror iste’dod sohibining ijod mahsullari bilan chuqurroq tanishish hamda milliy istiqlolning o‘z-o‘zidan qo‘lga kiritilmaganligi, uning qadriga yetish zarurati tufayli ta’limiy-tarbiyaviy jihatdan chuqur o‘rganishga loyiqdir.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar taraqqiyoti xalqning vatanparvarligi darajasining yuksakligidan dalolat berar ekan, ayni shu holat umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiy ta’lim zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi. Zero, “Vatan hissi – shu Vatanning egasi bo‘lmish xalqni bilishdan, uning qadriga yetishdan, nimalarga qodir bo‘lganini tan olishdan, buyukligini e’tirof etishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak, mushtarak tushuncha. Birini his etish uchun ikkinchisini bilmoq kerak. O‘zbekiston deganda o‘zbek xalqini, o‘zbek xalqi deganda O‘zbekistonni tushunmoq kerak. Birisiz ikkinchisini his qilish mutlaqo mumkin emas”¹²¹.

¹²¹ Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. -Тошкент: 1996.-146- бет.

Shunga ko‘ra, aytish joizki, vatanparvarlik Vatan va millat manfaati bilan yashash, xalqimiz an‘analari, tili va madaniyatiga chin ixlos va muhabbat bilan yondashish, uning taraqqiyoti yo‘lida fidoyilik qilish, Vatan erki, or-nomusini ko‘z qorachig‘idek asrash, uning rivojiga kamarbasta bo‘lishdir.

Shuning uchun ham “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni hayotga tatbiq etishda adabiy ta‘lim oldidagi muhim vazifalardan biri yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida intellektual rivojlangan, chin vatanparvar kishilar qilib tarbiyalashga qaratilganidir. Bu borada Vatanimiz o‘tmishiga oid tarixiy, adabiy-badiiy manbalarni o‘rganish alohida o‘rin tutadi. Xususan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarni Cho‘lponning ziddiyatli hayot yo‘li va milliy istiqlolga da‘vatkor ijodiyoti bilan tanishtirish vatanparvarlik tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot mavzusi yuzasidan olib borilgan izlanishlar umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarning DTS bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda yangi o‘zbek adabiyotining yirik vakili Cho‘lpon ijodini o‘rganish ijobiy samara berishini ko‘rsatdi. Xususan, 7-sinfda “Go‘zal”, “Xalq”, “Binafsha”, “Buzilgan o‘lkaga” she‘rlari misolida Cho‘lpon lirik shoir sifatida ko‘zdan kechirilsa, 11-sinfda “Kecha va kunduz” romani orqali nosir sifatida ham o‘rganiladi.

Mazkur darslikda Cho‘lpon ijodiyotining tarixiy-pedagogik ahamiyati xususida akademik N.Karimovning quyidagi fikrlari keltirilgan: “Cho‘lponning ulug‘vorligi shundaki, u XX asr o‘zbek adabiyotini yangi pog‘onaga ko‘tarib, o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va ravnaq topishiga ulkan hissa qo‘shibgina qolmasdan, xalqda “Vatan”, “Millat”, “Istiqlol” tushunchalarining teran ma‘no kasb etishiga mislsiz darajada katta ta‘sir ko‘rsatdi. O‘zga so‘zlar bilan aytganda, u xalqda hurriyat tuyg‘usini uyg‘otdi, uning ko‘zidagi g‘aflat pardasini olib tashladi, unda Vatanga muhabbat, kelajakka ishonch hislarini tarbiyaladi. Uning fuqarolik jasorati xuddi shundadir”¹²².

¹²² Adabiyot. 11-sinf uchun darslik, II qism / To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018.-35- 6.

Cho'lpon ijodiga dastur talablariga asosan "adabiy-tarixiy davrlar va adiblar ijodiga to'g'ri baho berish"¹²³ nuqtai nazaridan yondashish darslik materallari bilan cheklanmasdan, adib asarlarining badiiy-estetik xususiyatlari tahlilida o'quvchilarni buyuk yozuvchining g'oyatda ziddiyatli kechgan umr yo'li va u yashagan tarixiy muhit (ijtimoiy muhit, adabiy muhit) bilan ham yaqindan tanishtirishni taqozo qiladi. Bu borada bevosita o'sha muhitda yashab ijod etgan M.Behbudiy, Fitrat, A.Avloniy, A.Qodiriylar bilan birga, O.Sharafiddinov, H.Yoqubov, N.Karimov, D.Quronov, N.Boqiy, U.Azim, N.Jaloliddin kabi ijodkorlar qalamiga mansub tarixiy, adabiy-badiiy manbalardan foydalanish o'z taqdirini millat taqdiri bilan bog'lagan adibning shaxs va ijodkor sifatidagi qiyofasini to'laroq tasavvur qilishga yordam beradi.

Ma'lumki, Cho'lpon adabiyot tarixida buyuk shoir sifatidagina emas, balki ustoz nosir sifatida ham yuksak maqomda turadi. Adib qalamiga mansub "Kecha va kunduz" romanining 11-sinf adabiyot darsligidan joy olishining bosh sabablaridan biri ham aynan shudir.

Amaldagi darslikdan Zebining bahorda Saltanat boshliq dugonalari bilan qishloqqa Enaxonlarnikiga mehmonga borish jarayonlari aks etgan parcha o'rin olgan. Darslikda ta'kidlanishicha, "Romanda Zebi ishtirokidagi voqealar tasviriga ko'p o'rin berilgan. Asar syujetida ko'pchilik personajlar shu timsolga daxldor tarzda"¹²⁴ harakatlanadi. Shu tufayli bo'lsa kerak, darslikda ham aynan Zebi ishtirokidagi voqealar tasviriga oid parcha keltirilgan. O'quvchilar ushbu parcha mutolaasi jarayonida mavjud jamiyat tanazzulining Zebi, Sultonxon, Poshshaxon, Xadicha, Razzoq so'fi kabi obrazlar taqdirida aks etganligi bilan bir qadar tanishadilar. Ammo romanga g'oyaviy-estetik nuqtai nazardan qaraganda, mavjud jamiyat tanazzulining asl sabablari va milliy ozodlik g'oyasi tahlilida yozuvchi idealida yetakchi o'rinda turadigan Miryoqub timsolini ham chetlab o'tib bo'lmaydi. Zero, adabiyot dasturida o'quvchilarning BKMLariga qo'yilgan "*mamlakatimiz mustaqilligi va bayramlari haqidagi, ona-Vatanga muhabbat uyg'otuvchi adabiy*

¹²³ Умумтаълим мактабларининг 5-10-синфлари учун "Адабиёт дастури". -Т.: 2018.- 25-бет.

¹²⁴ Adabiyot. 11-sinf uchun darslik, II qism / To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2018.-62- б.

asarlar mazmunini anglagan holda soʻzlab berish”¹²⁵ talabini amalga oshirishda “Kecha va kunduz” romanidagi Miryoqub timsoli bilan bogʻliq voqealar tasviri toʻlaqonli manba vazifasini oʻtashi mumkin. Chunonchi, roman sarlavhasida nazarda tutilgan jamiyatlardagi kecha va kunduz muammosi mohiyatini ochishda Miryoqub timsoli alohida oʻrin tutadi.

Miryoqub asar qahramonlari ichida ziddiyatli shaxs ekanligi bilan ajralib turadi. Miryoqub obrazi tasvirida muallif nuqtai nazari (“asl mingboshi”, “Xudoning sevimli bandasi qorakoʻz Miryoqub...”) Akbarali mingboshi, noyib toʻra, mingboshining toʻngʻich xotini Xadicha, ishratxona nomeri egasi, Maryam nomini olgan Mariya Ostrovalar nutqidan ham unumli foydalanilgan.

Asar tahlilida boshqalarning Miryoqubga bergan taʼrif-tavsiflari ustida toʻxtalib oʻtish uning xarakter xususiyatlari koʻlamini toʻlaroq ochishga xizmat qiladi. Jumladan, noyib toʻraning Miryoqubga bergan taʼrifida har ikkala qahramonning oʻzaro munosabatlariga bir qadar oydinlik kiritilganini anglash mumkin.

Miryoqubni injenerga tanishtirar ekan, noyib toʻra: “Bizning Miryoqub bilan tanishmisiz, azizim?” – deydi. Soʻngra qoʻshib qoʻyadi – “Noyob odamlardan!”

Boʻlib oʻtgan suhbatdan soʻng (Miryoqubning suhbatdan poezd uchun temir yoʻl yotqizilishini bilgach, oʻtkaziladigan yerlarni arzon narxda sotib oladi, barcha ishlarni hal qilib boʻlgach, bu haqda noyib toʻraga maʼlum qiladi) berilgan taʼrif yanada oʻz isbotini topadi: “Sen xuddi bir amerikalikka oʻxshaysan, Miryoqub! – dedi toʻra. - Lekin koʻnglingga ogʻir olma, chakki shu sartiya ichida tugʻilib qolgansan!”¹²⁶

Choʻlpon noyib toʻra nutqi vositasida Miryoqubning tadbirkorligiga baho beribgina qolmay, butun yerli millatga nisbatan nopisandlik bilan qaralganini yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etadi. Aslida noyib toʻra bilan Miryoqub munosabatlarida ikki tomonning xarakter xususiyatlarini yoritishga alohida eʼtibor qaratilgan. Miryoqub navbatdagi noyob sovgʻasi – qadimiy qoʻlyozmani berar ekan, noyib toʻraning: “Limuharririhu...”

¹²⁵ Умумтаълим мактабларининг 5-10-синфлари учун “Адабиёт дастури”. -Т.:2018. - 46-бет.

¹²⁶ Чўлпон. Кеча ва кундуз.-Т.: “Hilol media”, 2019. -65- бет.

Chiroylik xat... Mavloni Ado shuncha xushxat ekanmi? Sharqda, islom sharqida suratkashlik din tomonidan man qilingani uchun rivoj topmasdan, din tomonidan tarvij etilgan bu xattotlik san'ati yaxshi taraqqiy qilgan edi", – kabi so'zlaridan uning "...erli xalqning tili va adabiyotini ...ayniqsa, fors tili va adabiyotini juda yaxshi biladigan ma'murlardan"¹²⁷ ekanligi anglashiladi.

Buning ziddi o'laroq Cho'lpon noyib to'ra tilidan xalqimiz hayotidagi "Kecha" – o'sha davr muhitining asl sabablaridan biri bilimsizlik ekanligiga ham nozik ishora qiladi. Jumladan, nafaqat Miryoqub, balki mahalliy xalqqa ta'lim berayotgan domlarning ham savodi pastligini noyib to'raning: "Qozi Abdillatif... Sayyid al-muslumin Amir Umar"... Chinakam, bu xat Umarxon davrining asari ekani ma'lum bo'ldi. Ammo buni yozgan Ado bo'lmasa kerak. Mavloni Adoning nomi Sultonxon bo'lsa kerak... Men o'qib edim. Abdillatif emas. Shahobiddin xato qilibdi. Sizning domlaringiz munaqa narsalarni yaxshi bilishmaydi..."¹²⁸ qabilidagi gap-so'zlaridan anglash qiyin emas.

Asarda noyib to'raning diqqatni tortadigan bir fikri bor, jumla zamiriga Cho'lpon mustamlakachilik siyosatining asl basharasini ochishga doir chuqur ma'no jo qilgan: "Dunyoda hamma odam bolalari bizning ikkimizdek bo'lsalar, dunyo jannat bo'lardi". Cho'lpon mazkur fikr orqali mustamlakachi va mustamlaka xalq orasida hech qanday nizolarsiz, qarshiliklarsiz qullik siyosati davom etsa, bu dunyo jannat – faqat mustamlakachilar jannati bo'lishiga ishora qiladi.

Noyib to'raga javoban Miryoqub: "Ikkovi bir tan, bir jon emasmi, axir!" deyish bilan nafaqat mustamlakachilik siyosatini ma'qullaydi, balki Chor hukumatini o'zining xaloskori deb tushinishi anglashiladi. Aslida buni qullik, mutelik siyosatining chuqur ildiz otganiga dalolat sifatida qabul qilish mumkin.

Noyib to'ra tilidan bayon etilgan, bir hodisa ham kitobxonni xalqimiz tarixining yana bir ayanchli tomoni bilan tanishtiradi: "...Senlarning Xudoyorxonningga "o'ruslar Oqmachitni olib qo'ydi", deganlar. Xudoyorxon "u yurtim necha kunlik yo'lda?" deb so'ragan, "bir oylik yo'lda", deganlar. "Unday bo'lsa, menga unaqa

¹²⁷ Ўша маъба. 145- бет.

¹²⁸ Ўша маъба. 146- бет.

olis joydagi yurtning keragi yo‘q. Olsa ola bersin!” degan... Bizniki ham, vallohi a‘lam, undan qolishmas”¹²⁹.

Roman mutolaasi davomida kitobxonni Miryoqub xarakteri dinamikasi, dunyoqarashidagi evrilishlarga oid ishoralar befarq qoldirmaydi. Aslini olganda yozuvchi Miryoqubdagi har bir o‘zgarishni boshqalarning unga bo‘lgan munosabati misolida ochishga harakat qilgan. Jumladan, qishloqni boshqarishdagi epchilligi tufayli Akbarali mingboshi unga “epaqa” deb laqab qo‘yadi, noyib to‘ra tadbirkorligini maqtab yuradi, ishratxona egasi did-farosat bobida boshqalardan ustunligiga tan beradi.

Miryoqubga “mingboshining shaharda izhor qilgan fikri (Zebining o‘zi emas, ovozi – ashulasiga oshiqqligi)ni” aytib, Zebini ko‘ndirishga dav‘at qilishi bilan bog‘liq voqealar Xadicha bergan ta‘rif ham uning xarakter xususiyatini ochishga qaratiladi: “– Sizga javr bo‘ldi, Miryoqub! – Mingboshi dodho xuddi bir go‘dak bola; siz – ona... Siz bo‘lmasangiz, ochidan o‘ladi u kishi...”

Miryoqub tasvirida uning o‘z shaxsiga bergan ta‘rifi, ayniqsa, muhim. Uning o‘zini Akbarali mingboshidan yuqori qo‘yishi (Miryoqub – Miryoqub, mingboshi esa – bir Akbarali, xolos... Akbarali degan bir odamning yonida hukumat muhridan, zoti past bir itlikdan boshqa narsasi yo‘q. Miryoqubning kattakon miyasi, o‘tkir aqli bor! Mingboshi o‘ylaydiki, Miryoqub ishonadiki, mingboshi – tuya, burniga ip o‘tkazilgan, ipning uchi – sarbonda, ya‘ni tuyachida, sarbonning nomini Miryoqub qo‘yganlar...¹³⁰) yoki qilayotgan ishlaridan ilk bor o‘zi norozi bo‘lib ichki ovozigga quloq tutishi (“Hay, Miryoqub! Pismiqlik Miryoqub! Ayyor Miryoqub! Tulki Miryoqub! Shayton Miryoqub! Nafsining bandasi, buzuq, sharmanda Miryoqub!”¹³¹) va yoki xayolidagi sud jarayonida javob berishida (“Sen – bizning olamimizda ulkan kishilardansan. O‘rislar senga o‘xshaganlarni kitoblarda maqtaydilar. Sening hamma hunaring, yeng uchida ish ko‘rib, shuncha pul topishingda”¹³²) inson sifatidagi fe‘l-atvori o‘zining yorqin aksini topgan.

¹²⁹ Ўша манба.148-бет.

¹³⁰ Ўша манба. 130- бет.

¹³¹ Ўша манба.143- бет.

¹³² Ўша манба. 180- бет.

Miryoqub garchi ishbilarmon sifatida o‘zini boshqalardan bir pog‘ona yuqori tutsa-da, jamiyatdagi siyosiy jarayonlarni tushunmaydi. Uning tuzukroq bilimi, savodi ham yo‘q. Shuning uchun ham yozuvchi Miryoqubning siyosiy ongi evolyutsiyasini belgilashda uni jadid yigit – Sharafiddin Xo‘jaev (ehtimol, Ubaydulla Asadullaxo‘jaevning prototipi bo‘lishi mumkin) bilan poezdda uchrashtiradi. Jadidchilik harakati to‘g‘risidagi suhbat jarayonida keltirilgan dalillar Miryoqubning dunyoqarashiga jiddiy turtki beradi, siyosiy ongini uyg‘otishga zamin yaratadi.

Natijada roman so‘ngida Miryoqub qat’iy xulosaga keladi: **“Agar jadid shunday bo‘lsa, men ham jadidman!”**¹³³

Shunga ko‘ra, Miryoqub xarakteri xususiyatlari dinamikasini quyidagicha belgilash mumkin. (3.1-jadvalga qarang.)

3.1-jadval

Ichki ovoz – vijdon uyg‘onishiga doir dastlabki mulohazasi	Mariyani tanigach, o‘zining “itligi” yuzasidan o‘z-o‘ziga bergan bahosi	Noyib to‘ra bilan suhbatdan so‘nggi mulohazasi	Sultonxon bilan munosabatda o‘zini oqlashga doir mulohazasi	Jadid bilan bo‘lgan so‘nggi suhbatdan keyingi mulohazasi
<i>Miryoqub-burungi Miryoqub emas... Nima bo‘ldi?</i>	<i>Hay, Miryoqub! Pismiql Miryoqub! Ayyor Miryoqub! Tulki Miryoqub! Shayton Miryoqub! Nafsining bandasi, buzuq, sharmanda Miryoqub!</i>	<i>Biz nima bo‘lamiz? Fuqaro nima bo‘ladi?... Kimdan so‘ray man, kimdan?!</i>	<i>Bu foniy dunyoda mashru‘yo‘l bilan bitadigan biror narsa bormi o‘zi?</i>	<i>Agar jadid shunday bo‘lsa, men ham jadid man!</i>

3.1-jadval. Miryoqub xarakteri evolyutsiyasi

¹³³ Ўша маъба. 198- бет.

Ko'rinadiki, Miryoqub xarakteri bosqichma-bosqich shakllana boradi va u o'zini qiynagan savollarga javob izlaydi. Alal oqibat topadi: "Bizning do'stimiz – o'zimiz. Bizning do'stimiz – millat!"¹³⁴

Millat taraqqiysi uchun qayg'urishni adib tarbiyadan boshlash kerakligini uqtiradi. Uning fikricha, ibtidoiy (boshlang'ich) tarbiyani milliy maktabdan boshlash lozim. Shu o'rinda savol tug'iladi: Milliy maktab qanday bo'lishi kerak?

Javobni Cho'lponning o'zidan eshitamiz: "Milliy maktab milliy hisni o'stirib, o'z millatini tanitishga"¹³⁵ xizmat qiladi.

Romandagi vatanparvarlik tarbiyasiga oid qarashlari talqinida yozuvchi Miryoqub timsolining yana bir ko'z ilg'amas jihatiga – uning millat va vatan tuyg'usini bir-biridan ayri tushunmasligiga e'tibor qaratadi.

Adabiyotshunos D.Quronov "Cho'lpon nasri poetikasi" nomli risolasida Miryoqub timsoli ko'p jihatdan L.N.Tolstoyning "Tirilish" romani qahramoni knyaz Nexlyudovga yaqin turishini dalillaydi.

Olimning bu fikriga qo'shilgan holda, Miryoqubning Nexlyudovdan farqli o'laroq faqat o'z vijdonini emas, balki butun jamiyat vijdonini tozalash yo'lida harakatlanishini unutmaslik kerak. Miryoqub Maryam bilan nikoh o'qitgach: "...dushmanning bu fitnacha qizini qo'ynimga olarkan... millatni, uning johil onalarini, bechora qizim, singlim va opalarimni o'ylashim kerak..."¹³⁶, – deya o'y suradi. Roman mutolaasi jarayonida har qanday kitobxon uning nomlanishi ustida o'ylab qoladi. Darhaqiqat, asar nima uchun "Kecha va kunduz" deb atalgan?

Bu borada adabiyotshunos D.Quronov bildirgan quyidagi fikrlar muhim ahamiyatga ega: "...adib yurtidagi ma'naviy qashshoqlanishni yuzaga keltirgan va uning hosilasi sifatida yanada biqiqlashgan muhitni "Kecha" deb baholaydi. Cho'lpon talqinidagi "Kecha"ning butun dahshati shundaki, u odamlarni ma'nan majruh etadi, ma'naviy tanazzulga yetaklaydi. O'sha muhit "besh-to'rt tanob yerli" o'ziga to'q, Xadichaxon bilan durustgina turmush kechirishi

¹³⁴ Ўша маъба. 195- бет.

¹³⁵ Ўша маъба. 200- бет.

¹³⁶ Ўша маъба. 211- бет.

mumkin bo‘lgan Akbaralini fahsh botqog‘iga botirdi; yetti avlodi dehqonchilikdan non topib yegan Razzoq so‘fini tekinox‘r kimsayu munofiq dindorga aylantirdi; Poshshaxonu Sultonxondek bemalol bir uyni obod, bir yigitni baxtiyor qilishi mumkin bo‘lgan guldek ayollarni zino ko‘chasiga boshladi... Bularning ma‘naviy qashshoqlanishi shu darajadagi, ular muhitni sog‘lomlashtirish haqida umuman o‘ylamaydilar, shu muhit doirasida o‘z manfaatlarini ko‘zlaydilar, xolos. Yurt boshida “benamoz raislar”, imoni zaif imomlarning turishi raiyatga ta’sirsiz qolmagan: “odamlar namozga yurmay qo‘yganlar”.

Millatning fojiasini Cho‘lpon ayni shu e‘tiqodsizlikda ko‘radi: odamlar na oxiratini obod qilishni va na foniylar dunyodagi turmushlarini yaxshilashni o‘ylashadi – bugunning tashvishi bilan yashashadi, xolos. Johiliyat davrlarining azaldan “zulumot” deb ta’riflangani kabi, Cho‘lpon ham tariximizning shu bo‘lagini “Kecha” deb ataydi.”¹³⁷

Darhaqiqat, ana shu zulumot mohiyatini ochishda asardagi har bir personaj o‘ziga xos yuk tashiydi. Mustaqil mutolaa jarayonida buni Razzoq so‘fining quyidagicha nutqiy xarakteristikasi misolida ko‘rish mumkin. (3.2-jadvalga qarang.)

3.2-jadval

Kimga so‘zlaydi	Nima deydi	Xarakterining qaysi jihatlari ochiladi
Xotini Qurvonbibiga	Bu hovli-joy otangdan qolgani uchun o‘zinniki deysanmi yo? Unday desang, boshput olib, o‘rusvoyning reli (“Rels” poezd demakdir) ga tushib, “hayt!” deb... Makatulloga jo‘nab ketaman! Hovling boshingda qolsin, Fitna!	Do‘q-po‘pisa, haqorat qiladi, zulm o‘tkazadi.
Qishloqdagi o‘gay akasiga	Ahliyimiz uchiga chiqqan chevar, xudoga shukur. Ojizamiz ham do‘ppi tikishga “farang” bo‘lib chiqdi!	“O‘zingni bil, o‘zgani qo‘y” qabilida ish

¹³⁷ Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси.-Т.: “Шарк”, 2004. - 147- бет.

	Ro'zg'orning ko'pkamlarini o'zlari bitirishadi. Men bohuzur tasbehimni aylantirib yotsam bo'la beradi!	tutadigan xudbin, ma'naviyati puch.
Xotini Qurvonbibiga	Juvonmarg Zebing qishloqqa borib, ashulani toza qo'yganga o'xshaydi. Qishloq odamlaridan ko'p narsani eshitdim... Ammo-lekin tutib olib o'ldirsam ozlik qiladi juvonmaringni!	Dunyoqarashi zaif, johil, boshqalarni tushuna olmaydi.
Monolog	Eshon bobo nima qilsin? U kishi zakunchi edimiki, ariza bitib bersa? O'rus tilini bilarmidiki, amaldor, sudlar bilan chiqishsa? Basharti, zakunchiga, amaldorga, sudga beriladigan bo'lsa, hammasiga pul kerak, mo'may-mo'may pul kerak, menda unaqa pul yo'q. Zebining orqasida endi qo'lga pul tusharmikin, deb umid qilardim; endigina kaftim qichisha boshlagan edi. Bu hodisa kaftimning qichig'ini vaqtdan ilgari bosib qo'ydi...	Og'ir vaziyat qarshisida diltang, savodsiz, burnidan narini ko'ra bilmaydi.

3.2-jadval: Razzoq so'fi obraziga nutqiy xarakteristika

Barcha zamonlarda ham **vatanparvarlik tarbiyasi** adabiyot va san'atning yetakchi mavzularidan bo'lib kelganligi, "Kecha va kunduz" badiiyati aynan vatan taqdiri va millat qismati bilan chambarchas bog'liqligi tahlil jarayonida, asar g'oyasi ustida chuqur mulohaza yuritishni taqozo etadi. Zero, o'quvchini roman tahlilida uning badiiyligigagina baho berib qolmay, ijtimoiy-tarixiy, tarbiyaviy ahamiyati yuzasidan ham to'g'ri xulosa chiqarishga yo'naltirilishi zarur. Shundagina o'quvchi mustamlakachilik kishanlarini parchalab tashlash maqsadida tashkil topgan milliy uyg'onish davridagi jadidchilik harakatining dastlab xalq maorifini milliy-ozodlik yo'lida ishonchli qurol deb bilgani, "qora xalqni oqartirmoq va ko'zin ochmoq chorasiga" (A.Avloniy) kirishgani, ko'p o'tmay,

qonsiragan qizil imperiya siyosati bilan yuzma-yuz kelgach, “bolshevik balosi”ga (Fitrat) qarshi goh oshkora, goh pinhona “Yo bor bo‘lish, yo yo‘q bo‘lish: Yo‘q yarash!” (Cho‘lpon) ahdi bilan hayot-mamot kurashiga da’vat qilinganidan iborat tarixiy haqiqatni to‘g‘ri tushunib yetishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev adabiyot, san’at va madaniyat xodimlari bilan bo‘lgan uchrashuvda Vatanimiz tarixi xususida faxrlanib aytgan edi: “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor”¹³⁸.

Go‘zal she‘rlari, otashin publitsistikasi, sokin va o‘ychan nasri, da’vatkor dramalarida Vatan taqdirini o‘z taqdiri misolida aziz tutgan Cho‘lpon ana shunday “havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz”dan biri sifatida nafaqat yangi o‘zbek adabiyotida, balki vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog‘liq pedagogika tarixida ham yuksak maqomda turadi.

Qatag‘on yillari milliy uyg‘onish harakatida xalqni ilm-ma’rifatli qilish diqqat markazida tutilgan bo‘lsa, hozirgi globallashuv sharoitida “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g‘oya asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish vatanparvarlik tarbiyasining tub negizini tashkil etadi. “Kecha va kunduz” romani mutolaasi va tahlilidan kelib chiqadigan saboqlar aynan shu maqsadga qaratilishi bilan e’tiborga loyiqdir.


Cho‘lpon orzu qilgan yangicha fikrlaydigan, tom ma’noda katta harflar bilan yoziladigan tadbirkor miryoqublarning qadr topishi hozirgi mustaqillik zamonamizda amalga oshayotganligi quvonarli hol. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd qilinganidek, “Biz yangi ish o‘rinlarini yaratadigan tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, ularni yelkamizda ko‘tarishimiz kerak”¹³⁹ ligi buning yorqin dalilidir.

¹³⁸ Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san’at, ma’naviyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir //O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2017y. 4 avgust.

¹³⁹ Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san’at, ma’naviyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir //O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2017y. 4 avgust.

Dastur bo'yicha o'quvchilarning buyuk shoir ijodi bilan 7-sinfda tanishtirilishi shoir she'riyatiga quyidagi klaster asosida chuqurroq yondashish imkonini beradi. (3.1-rasmga qarang)

Shoir ijodi yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar natijasini baholashda o'quvchilarni insho yozishga tayyorlash muhimligini nazarda tutib, davlatimiz rahbarining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli qaroriga muvofiq davlat dasturi bo'yicha har yili o'tkazish rejalashtirilgan "Men nechun sevaman O'zbekistonni" mavzusidagi ijodiy ishlar tanlovida o'quvchilar ishtirokini ta'minlash yuzasidan quyida o'quvchilarni "Cho'lpon lirikasida Vatan timsoli" mavzusida insho yozishga tayyorlash mashg'uloti namunasini keltiramiz.



3.1-rasm. She'riy asarlarni tahlil qilish klasteri

1. Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni mavzu yuzasidan uyda insho yozishga tayyorlash.

2. Tarbiyaviy maqsad: Cho'lpon lirikasi asosida o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning she'riy asarlarni badiiy-estetik tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish.

Mazkur ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish yuzasidan quyidagi vazifalar belgilanadi:

1.O‘quvchilarni insho yozish jarayonida bajarilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar bilan tanishtirish.

2.“Binafsha” she‘rining qisqa fragmentli tahlili misolida she‘riy tahlilning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish.

3.Insho kompozitsiyasi yuzasidan tavsiyalar berish.

4.Ijodiy yozma ishlar vositasida o‘quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish. Belgilangan vazifalarni amalga oshirishdan oldin o‘quvchilar mavzu yuzasidan insho yozish tartibi bilan tanishtiriladi hamda tayyorgarlik ko‘lami belgilanadi, mavjud umumiy qoidalar ta’kidlanadi:

1. Mavzu yuzasidan reja tuzish.

2.Material tanlash.

3.Dalillar to‘plash.

4.Aniqlangan dalillar asosida tezis tayyorlash.

So‘ngra berilgan mavzu yuzasidan quyidagi masalalar doirasida savol-javob o‘tkaziladi:

- Insho mavzusida nimalar nazarda tutilgan?

- Mavzuni yoritishda qanday vazifalar bajariladi?

- “Vatan timsoli” deganda nima tushuniladi?

- Shoir Vatan timsolini yaratishda qanday badiiy san’atlardan foydalanadi?

- Shoirning Vatanga bo‘lgan munosabati qanday ramzlar vositasida ifodalagan?

Shoirning she‘rdan anglashilgan maslagi (Vatan taqdiri haqidagi tasavvurlari) yuzasidan o‘quvchilar bildirgan fikr-mulohazalar umumlashtiriladi.

Insho mavzusiga doir ma’lumot to‘plash masalasiga oydinlik kiritilgach, berilgan savollarga dalillar bilan javob berish uchun “Go‘zal”, “Xalq”, “Binafsha”, “Buzilgan o‘lkaga” she‘rlari matnini qaytadan ko‘zdan kechirish tavsiya qilinadi. Ammo tahlil qilish tartibi qat’iy qilib belgilanmaydi. Tahlil qay tartibda amalga oshirilsa-da, natijasi ayon ko‘rinishi eslatiladi. Bu esa o‘quvchilarga o‘z fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish imkonini beradi.

Tahlil variantlari:

1.Har bir she‘r matnini alohida-alohida tahlil qilish. So‘ng asosiy fikrlar bayonida daliliy mulohazalarni umumlashtirish orqali yakuniy xulosa chiqarish.

2. She'riy matnlar tahlilida qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish. She'rlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlaridagi farqli va o'xshash jihatlarni aniqlash. Fikr-mulohazalar va asosiy qarashlarni umumlashtirish.

3. Matnlar tahlilini fikr va dalillarning o'zaro integratsiyasi vositasida amalga oshirish. Avval asosiy fikr – tezisni, so'ngra dalillarni bayon qilish. Tahliliy xulosada fikriy tarqoqlik va takrorlarga yo'l qo'ymaslik.

Insho yozishga tayyorgarlik jarayonida "Binafsha" she'rining qisqacha tahlilini namuna tarzida quyidagi tartibda uyushtirish mumkin.

"Binafsha" she'ri she'riy tahlil yuzasidan ifodali o'qiladi.

Binafsha senmisan, binafsha senmi,

Ko'chada aqchaga sotilgan.

Binafsha menmanmi, binafsha menmi,

Sevingga, qayg'ungga tutilgan?..

So'ngra birmuncha noan'anaviy tarzidagi quyidagicha savol-topshiriqlar o'rta tashlanadi:

- Mazkur she'r vatan mavzusida yozilganligini qanday isbotlash mumkin? (Matndan mazmunan "Vatan" tushunchasi bilan bog'liq so'zlarni toping.) (*Erkin, kulmaysan, yanchalar, erk yeri, bag'ringga sanchalar, qayg'u*)

- Matndan ajratib olgan so'zlaringiz qanday ma'nolarni ifodalaydi?

- Bu so'zlarning emotsional qiymatini qanday belgilash mumkin? (*Bu so'zlar vatandagi erksizlik, qayg'u, hasrat-nadomatni anglatadi*)

- Nima sababdan she'r aynan "Binafsha" deb nomlanadi? (*Binafsha bahor darakchisi, ko'klam ko'kati. Endigina dunyoga yuz ochgan ko'kat. Binafsha – hurriyat, erk ramzi.*) (Hurriyat ramzi bo'lgan binafshaning Cho'lpon yashagan davrdagi tarixiy voqelikka aloqadorligini "O'zbekiston tarixi" darsligidan aniqlab kelish uyga vazifa qilib topshiriladi. O'qituvchi o'quvchilarni "O'zbekiston tarixi" darsligidan 1917-yil 28-noyabrda¹⁴⁰ Turkiston Muxtoriyati tashkil topganligi, uning qisqa muddat faoliyat yuritib, bosqinchilar

¹⁴⁰ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. -Тошкент: "Akademnashr", 2019.-331-бет.

tomonidan yanchib tashlangani tafsiloti bilan tanishish orqali binafsha timsoli Turkiston Muxtoriyatini anglatib kelishi haqidagi fikrga yo‘naltiradi.)

- She‘r matnida erk tushunchasi bilan bog‘liq yana qanday tashbihlar uchraydi? (She‘rdagi *igna*, *ko‘krak*, *erk yeri* tashbihlariga tashbihning badiiy san‘at sifatidagi o‘ziga xos qonuniyatlardan kelib chiqib e‘tibor qaratiladi).

- “Binafsha” tashbihidagi yashirin majoziy ma‘noni qanday tushunish mumkinligini tushuntirishga harakat qilib ko‘ring. Shoirning “Go‘zal” she‘ri tahlilida ishlatilgan badiiy san‘at turlarini esga oling. She‘r tahlilida Cho‘lpon she‘riyatidagi go‘zal, sevikli yor va Vatan timsoli o‘rtasidagi munosabatlar ma‘nosini qanday izohlagan edik. (Go‘zal – bu Vatan timsolining o‘ziga xos talqini. U – Vatan ruhi. Go‘zal tashbehida sevgi va ma‘naviy poklik tuyg‘usi mujassamlashgan. Binafsha ham Vatan ramzini ifodalab kelmoqda. Vatan taqdiri “Binafsha” she‘rida yorqin gavdalantirilgan).

Bunda o‘qituvchi darslikdagi ko‘chimga doir nazariy ma‘lumotlarni qayta ko‘zdan kechirishni tavsiya qilishi maqsadga muvofiq: “Yozuvchilar biror so‘zga xos ma‘noni boshqasiga yuklar, unga ko‘chirar ekanlar, xayollariga kelganday, tavakkaliga ish tutavermaydilar. Agar shunday qilinsa, ijodkorlarni tushunib bo‘lmay qoladi. Ma‘no ko‘chirishda narsa-hodisalar o‘rtasida yo ichki, yo tashqi, yo mazmun o‘xshashligi, aloqadorligi bo‘lishi shartdir”¹⁴¹.

“Binafsha” tahlili davomida o‘quvchilar she‘r tahlili yuzasidan o‘z kuzatishlari asosida xulosa chiqarishga yo‘naltiriladi.

- She‘r mazmuni yuzasidan qanday umumiy xulosaga kelish mumkin?

Fikr bildirishda she‘r yozilgan sanaga e‘tibor qaratish, tarixdan bu vaqtda O‘zbekistonda qanday voqealar yuz berganini o‘rganish tavsiya etiladi. Darslikda she‘r mazmuniga doir qanday nazariy ma‘lumotlar keltirilganligi, bu ma‘lumotlar insho mazmunini boyitishga yordam berishi mumkinligi ta‘kidlanadi.

Ma‘lumki, Cho‘lpon “Binafsha” she‘rida vatan taqdiriga bo‘lgan bir qadar ishonchsizlik, tushkunlik kayfiyatini ifodalagan

¹⁴¹ Adabiyot. 7-sinflar uchun darslik. Q.Yo‘ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov. -Тошкент: “Sharq”, 2017.-309-бет.

bo'lsa-da, ruhsizlik shunday qolib ketmaydi, balki uning botinida kelajakka cheksiz umid va ishonch mujassamdir. Vatan doimo bosqinchilarga qaram bo'lib kelganligi ma'lum ma'noda undagi beqarorlikning sababi bo'lib, milliy ozodlikka, erkka tashnalik tuyg'ularini tug'diradi. Vatan taqdirining bosqinchilar qo'lida qolishi, mustamlakachilik zulmining davom etishi mumkin emasligiga ishonch uyg'otadi.

She'rdagi Vatanning bosqinchilar oyog'i ostida toptalishi bilan bog'liq lirik qahramonning adoqsiz qayg'u-hasrati, dard-alami "Binafsha" she'ri tahlilining qisqacha umumiy bayonini uyda dalillar, mulohazalar, qiyoslashlar asosida amalga oshirish topshirig'i berilar ekan, she'r mazmuni yuzasidan bildirilgan fikrlar matn ustida amalga oshirilgani, chunki matn she'r tahlilida eng ishonchli manba hisoblanishi eslatiladi.

Insho yozishda muhim manbalardan biri darslik ekanligini ham nazardan chetga qoldirmaslik kerak. Jumladan, darslikdagi "Binafsha" she'rida "vatan" tushunchasi "ko'kragim" so'zi bilan, "ozod yurt" tushunchasi "erk yeri" so'zlari bilan ifoda etilgani¹⁴² haqidagi ma'lumotlar o'quvchiga o'z xulosasini aniqlashtirishga, fikrlariga oydinlik kiritishga yordam beradi.

"She'riy asar tahlilida barcha matnlarga birdaniga mos keladigan "kalit" yo'q. Har qanday lirik matn o'ziga xos bo'lgani kabi uning tahlili ham rang-baranglik kasb etadi. O'qituvchining vazifasi har qanday holatda ham lirik asar matniga mos "kalit" topa bilishdir. Bu ishda shoir-o'qituvchi, o'qituvchi-o'quvchining o'zaro muloqoti yetakchi o'rin tutadi. Ayniqsa she'r muallifi bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqotda o'qituvchining o'rni beqiyos"¹⁴³.

Sir emas, she'riy asar tahlili nasriy yoki dramatik asarlarga nisbatan shoirning ichki kechinmalari bilan bog'liqligi tufayli qiyinchilik tug'diradi.

She'r tahlilida badiiy tasvir vositalari, she'rning poetik o'lchami, qofiyalanish tartibi, turoqlarga bo'linishi, kompozitsiyasi, tasvir tizimi, lug'at boyligi, rang palitrasi, epigraf va h.k. hisobga olinishi, ammo ulardan faqat mavzuni yoritish uchun xizmat

¹⁴² Ўша манба. 310-бет.

¹⁴³ Жўраев Ё. Шеърий асар таҳлилида тадқиқот методидан фойдаланиш // "Узлуксиз таълим", 2010, № 5, 66-бет.

qiladiganlarinigina tanlash maqsadga muvofiqligi to'g'risida tushuncha berilishi insho yozish jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, o'z fikrlarini ilmiy-metodik jihatdan asoslashga yordam beradi. Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, nazmga solingan so'zning, ya'ni she'rning martabasi nasriy so'zdan balanddir.

Xulosa qilganda, shaxs ma'naviy kamoloti bilan bog'liq inson kapitalining ta'lim tizimiga doir islohotlar mohiyatini tashkil etishi ma'naviy-axloqiy tarbiya negiziga daxldor adabiy ta'lim zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu borada umumiy o'rta ta'lim maktablarining adabiyot darslarida vatan va xalq tarixiga doir asarlarni o'qib o'rganish o'qituvchilar uchun katta qulaylik tug'diradi. Shu jihatdan qaraganda, Vatanimizning g'oyatda tahlikali davrlarida yashab ijod etgan Cho'lpon she'riyati ham muhim manba vazifasini o'taydi.

3.2-§. Cho'lpon dramalarida hayot haqiqati talqini

Maktabda o'quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri badiiy asarga qiziqishni uyg'otishdir. Aksar hollarda o'quvchilar ko'proq sarguzasht voqealar tasvirlangan hikoya va qissalarni, epik she'rlarni sevib mutolaa qiladilar. Yosh kitobxonlarda badiiy estetik didni shakllantirishda garchi sahnada ijro etishga mo'ljallangan bo'lsa-da, dramatik asarlarni o'qib o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Dramatik asarlarni sinfda o'qish adabiyot darslarida birmuncha qiziqarli tashkil etilishi bilan ahamiyatli. Bunday darslarda rollarga bo'lib o'qish, tanlab o'qish, qahramonlar nutqiga qarab ularga xarakteristika berish kabi faoliyat turlarini qo'llash adabiy ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy omilidir.

Mustaqil mutolaa jarayonida o'quvchi dramani qo'lga olar ekan, asar bilan yolg'iz o'zi yuzma-yuz keladi. Dastlabki uchrashuv o'quvchida alohida ishtiyoq, qiziqish uyg'ota olmasligi tabiiy hol. Bunday munosabat ayniqsa milliy uyg'onish davri boshlab bergan dramatik asarlarni o'qishda kuzatiladi. Aslini olganda o'zbek adabiyotida yuksak mahorat bilan yaratilgan dramatik asarlar talaygina. Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek", "Jaloliddin Manguberdi", Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l", "Sohibqiron", Erkin Vohidovning "Istanbul fojiasi" kabi dramalari o'zbek

adabiyotining nodir namunalari. Milliy uygʻonish davri adabiyotiga doir dramalar boshlangʻich mashqlar ekanligi hisobga olinsa, ular saviyasi haminqadar boʻlganligining sabablari anglashiladi. Shunga qaramasdan, bugungi kun kitobxonini bu dramalar bilan tanishtirilmaslik mumkin emas. Ulugʻbek Hamdam taʼbiri bilan aytganda, **dramatik asarlar oʻz davri xalq hayotini koʻzguga solib koʻrsatib berishi**¹⁴⁴ bilan ahamiyatli ekanligi nazarda tutilsa, jadid adabiyoti haqida tasavvur uygʻotishda dramalarning oʻrni nechogʻli muhim ekanligi anglashiladi.

Maʼlumki, milliy uygʻonish davri dramaturgiyasi oʻzbek adabiyotida drama janrining vujudga kelishida poydevor boʻlgan. Taniqli yozuvchi va adabiyotshunos olim Ulugʻbek Hamdam **dramaning tugʻilishini oʻzbek adabiyoti uchun xuddi roman janri kabi yangi hodisa** deya baholagan edi¹⁴⁵. Drama janrining rivojlanishi shubhasiz, M.Behbudiy, N.Qudratulla, Hoji Muin, A.Qodiriy, A.Badriy, A.Avloniy, A.Fitrat, H.H.Niyoziy, Choʻlpon nomlari bilan bogʻliq.

1911-yilda yozilib, 1913-yildagina nashrdan chiqishiga muvaffaq boʻlingan «Padarkush» dramasini taniqli adabiyotshunos Begali Qosimov "...oʻzbek dramachiligining hamma yakdil eʼtirof etgan birinchi namunasi¹⁴⁶" - deya eʼtirof etishi tarixiy haqiqatdir.

Shuhrat Rizaev "Padarkush"ning nashrdan chiqishini oʻzbek milliy teatrining tugʻilishi deb bejiz baholamagan edi¹⁴⁷.

Oʻzbek adabiyoti "Padarkush"dan keyin Abdulla Avloniyning truppa uchun yozilgan «Advokatlik osonmi?!», «Pinak», «Biz va Siz», «Ikki sevgi», «Poʻrtugaliya inqilobi» kabi dramalari bilan boyidi.

Shunday boʻlsa-da, dramaturgiyaning rivojlanishini Fitrat ijodisiz tasavvur etish qiyin. Maʼlum boʻlishicha, u oʻndan ortiq dramatik asar yozgan. Bular: «Begijon» (besh pardalik fojia, 1916), «Mavludi sharif », «Abo Muslim» (1916), «Temur sagʻanasi» (1918), «Oʻgʻuzxon» (1919), «Qon» (1920), «Chin sevis» (1920),

¹⁴⁴ <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ulugbek-hamdam>.

¹⁴⁵ <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ulugbek-hamdam>.

¹⁴⁶ Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти /Қосимов.Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Ахмедов С. - Т.: "Маънавият", 2004. - 165-бет.

¹⁴⁷ Ризаев Ш.Жадид драмаси. -Т.: "Шарк", 1997. -53-бет.

«Hind ixtilolchilari» (1921), «Abul-fayzxon» (1923), «Shaytonning tangriga isyoni», «Arslon» (1926), «Vose' qo'zg'oloni» (1927), «Ro'zalar» (1930) dir.¹⁴⁸

Bulardan tashqari, Hamza Hakimzoda Niyoziy dramaturgiyasi ham o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega. Ulug'bek Hamdam Hamza dramalari haqida quyidagicha fikr yuritadi: ...garchand Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" (1911) nomli 2,5 betlik pesasi bilan o'zbek adabiyotida pyesa yozib berishni boshlagan bo'lsa-da, dramaturgiyaning butun talablariga javob bera oladigan pyesalarni aynan Hamza Hakimzoda Niyoziy yaratgan. Hamza "Zaharli hayot" (1916), "Maysaraning ishi" (1926), "Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi" (1927) dramalarini yozdi. Bulardan tashqari, uning "Burung'i saylovlar", "Jahon sarmoyasining eng oxirgi kunlari", "Qozining sirlari", "El quzg'unlari" kabi 1921 va 1928-yillar orasida yozilgan katta-kichik dramalari mavjud.¹⁴⁹

Milliy uyg'onish davri dramaturgiyasi rivojiga Cho'lpon ham o'zining ulushini qo'sha olgan so'z ustasi hisoblanadi. Cho'lpon qalamiga mansub "Yorqinoy", "Zamona xotini", "Hujum" dramalari o'zbek adabiyoti xazinasini boyitgan asarlardandir. Cho'lpon dramalari garchi nasrda yozilgan bo'lsa-da, o'quvchi mutolaa jarayonida o'zini she'r o'qiganday his etadi.

O'quvchini Cho'lponning dramatik asarlari bo'yicha mustaqil mutolaaga tayyorlashda, dastlabki ish asarlari epigrafiga e'tiborni qaratishdan boshlanishi lozim. Zero, epigraf asar mazmuni haqida ma'lumot beruvchi birinchi manba hisoblanadi. "Yorqinoy" dramasida Fuzuliydan keltirilgan: "Vodiyi vahdat haqiqatda maqomi ishqdir, Kim mushaxxas o'lmas ul vodiya sultondin gado"¹⁵⁰ epigrafi mazmunidan ishq yo'lida shoh-u gado teng ekanligi anglashiladi. Shu tariqa o'quvchida drama mazmuni haqidagi ilk tasavvur paydo bo'ladi.

Cho'lponning dramani asar yozilishiga sabab bo'lgan kampir onaga¹⁵¹ bag'ishlashi haqidagi ma'lumoti ham o'quvchining asar

¹⁴⁸ Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти /Қосимов.Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Ахмедов С. - Т.: "Маънавият", 2004. - 240-бет.

¹⁴⁹ <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ulugbek-hamdam-hamza-yangi-ozbek-adabiyoti-asoschilaridan-birimi.html>

¹⁵⁰ Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. 3-жилд.-Т.: "Академнашр", 2016. - 4-бет.

¹⁵¹ Ўша жой.

mutolaasiga qiziqishi oshirishi shubhasiz. Dramani o'qish jarayonida o'quvchi asarning kampir onaga bag'ishlab yozilganligi sabablarini anglay boradi. Chunonchi, asarning epizodik bo'lsa-da muhim ahamiyatga ega bo'lgan obrazi Kalning (Nishobsoy begining odami) xalq og'zaki ijodiga yaqin turuvchi jozibador nutqi (Hali mening bilan gap boshlaganda suvday shovlab, o'tdan lovullab, chumchuqday chirillab, shamolday pirillab ketgan edilar-a ... Yosh emish, yosh ... yosh emas - bebosh) o'quvchini befarq qoldirmaydi.

«Pravda Vostoka» gazetasining 1931-yil 15-yanvar sonida Mixail Sheverdin «O'zbek yo'qsul adabiyotining ilk katta asari»¹⁵² degan maqolasida Cho'lpon ijodiga bosmachilik kayfiyatidagi asarlar deya baho bergani ma'lum. Sinfy nuqtai nazardan berilgan bu baho aynan «Yorqinoy» dramasi qaratilganligi bilan ahamiyatli.

Darhaqiqat, kitobxon dramadagi jasur siymo Po'lat, sevgisi yo'lida hech nimadan qaytmaydigan Yorqinoy kabi timsollardan butun Turkistonda avj olgan xalq harakatlari sho'ro hokimiyati tomonidan bosmachilik harakati deb ovoza qilinganini bilib oladilar.

Dramadagi bosh qahramonlardan biri Yorqinoy Cho'lpon ijodida uning orzusidagi isyonkor qiz obrazi. Uning isyonkorligi o'z sevgisi yo'lida Muhit girdobida bir somon parcha¹⁵³ misol taqdirga tan berib qolmasdan kurashishdan iborat.

Po'lat timsolida Cho'lpon insofli, haq yo'lida hech narsadan tap tortmaydigan azamatni¹⁵⁴ gavalantiradi. Lekin Po'lat har qancha insofli, mard va jasur bo'lmasin, uning fojiasi xat-savodi yo'qligida.

Cho'lpon ilmsiz bo'lsa-da, aql va zakodan yiroq bo'lmagan Po'lat timsoli orqali o'z xalqiga bo'lgan sevgisini yoritgan. O'lmas botir undan o'z qizini o'g'irlagan gumon qilib, hisob so'raganda Po'lat: «Qizingizni bilmasdan-tanimasdan sevar ekansiz...U sevgi emas!»-deb javob beradi. Bu orqali Cho'lpon Vatanni anglab sevisish lozim ekanligini uqtirmoqchi bo'lganligi ma'lum. E'tiborni tortadigan jihati shundaki, Cho'lpon asar so'ngida Po'lat o'z sevgilisi Yorqinoyni **yurt ishini** birga qilmoqqa chorlagani orqali tom ma'nodagi vatanparvar shaxs timsolini yaratgan.

¹⁵² Қаршибоев М. Муҳит эркидаги тутқинлик (1990) Ziyouz.uz.

¹⁵³ Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. 1-жилд. -Т.: «Академнашр», 2016. -169-бет.

¹⁵⁴ Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. 3-жилд. -Т.: «Академнашр», 2016. -90-бет.

Dramada kichik bir personaj ham borki, Cho'lpon kichik bo'lsa-da, unga katta vazifani yuklagan. Bu – beshinchi parda ishtirokchisi – dilkash, nuroniy chehrali chol timsolidir. Po'lat qarorgohida unga otalarcha xizmat qilib yuradigan chol dramada yuz berayotgan voqealarga xolisona yondashadi. Uning fikricha, Po'lat ham, uning dushmani O'lmas botir ham xalqning asl farzandlari. Faqat taqdir ularni bir-biriga dushman qilib qo'ygan. Po'lat xalq qayg'usi dardida, O'lmas botir bunga arzimasa-da, xon tomonida bir-biri bilan yovlashgan. Aslida Cho'lpon bu bilan haqiqiy g'anim o'z ichingda emas, tashqarida ekanligini aytmoqchi bo'lgan va bunday sharafli vazifani ko'pni ko'rgan chol obraziga yuklagan: "...Insof qilinmaydir; eng aqlli, donishmand odamlar ham insofini qo'ldan berganlar. O'lmas botirday donishmand, ziyrak odam bormi? U ham bo'lmas xonning etagiga yopishib olib bukun butun el-yurt "dod" deb turgan xonni qutqazmoq uchun tortishib yotadir.¹⁵⁵"

Cho'lpon aytmoqchi bo'lgan asl niyat ham mana nutqda yashiringan. Mustaqil mutolaa jarayonida ana shu o'rinlarni seza olgan o'quvchi chin ma'nodagi kitobxonga aylanadi.

Dramadagi ziddiyatli shaxslardan biri O'lmas botir. Cho'lponning asl yashirin niyati ham shu timsol vositasida anglashiladi. O'lmas botirning Po'lat bilan bo'lgan suhbatda: "Men mamlakatning nomusi, o'rdaning nomusi, xon va xonbachchaning nomusi deb jang maydonida qilichga ko'ksimni berib yotsam-u, mening nomusim poymol bo'lib ketabersa..." deya o'kinishlari zamirida Sho'ro hukumatiga shuncha xizmat qilsak-da, uning badali yo'qsil xalqni qirib tashlash bo'lmoqda degan ma'no yashiringan. Ushbu ishoraning o'zidayoq Cho'lpon qizil imperiya qilichidan qon tomib turgan davr siyosatini nozik his etgan va avj pardalarda aks ettira bilgan ijodkor hamda vatanparvarlik tuyg'usi jo'sh urgan ulug'vor shaxs sifatida ko'zga tashlanadi.

3.3-§. Cho'lpon she'riyati tarjimalarining qiyosiy tahlili

O'zbek mumtoz adabiyotida tarjima bilan shug'ullanish bir necha asrlik tarixga ega. Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilig"

¹⁵⁵ Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. 3-жилд. -Т.: "Академнашр",-2016. -92-бет.

asaridan tortib Xosiyat Rustamova she'riyati bilan tanishgan jahon adabiyot ahli ming taassufki, Cho'lpon nazmidan yetarli darajada bahramand bo'lgan emas. Buning bir qancha sabablari bor.

Jadid adabiyotining chet elda o'rganilishi yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olimlar Zulxumor Mirzaeva taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, Cho'lpon she'rlaridan namunalarni turkiyalik cho'lponshunos olimlar – Ibrohim Yorqin, Saodat Chig'atoy turk tiliga, Arslon Subutoy shoirning «Go'zal Farg'ona» («Go'zal Turkiston»), Yohannes Benzing «Turmushmi bu?» she'rlarini nemis tiliga o'girishgan. Angliyalik Olaf Kerou, amerikalik Edvort Ollvort va Jon Makkeynlar Cho'lpon she'rlarini ingliz tiliga tarjima qilganlar.¹⁵⁶ Shunisi e'tiborliki, ingliz tiliga tarjima qilingan she'rlarning tadqiqi va talqini Z.Mirzaeva tomonidan mohirona amalga oshirilgan.

Cho'lpon ijodini rus tiliga o'girish ishlari ham hali yaxshi yo'lga qo'yilmagan. To'g'ri, 2009-yilda Abdulhamid Ismoilov va Bahodir Ahmedovlar tarjimasida “I zvuchit moy saz” nomli to'plam Moskvada nashrdan chiqqan. Tarjimonning ma'lumot berishicha, mazkur to'plam shoirning nomi oqlangach, 1988-yilda tayyorlangan. Lekin shoir nomi oqlansa-da, uning ijodini tashviq va tadqiq qilish ishlariga ruxsat berilmaganligi tayyorning ishning 2009-yilga kelgachgina dunyo yuzini ko'rishiga sabab bo'lgan. A.Ismoilov so'zlariga ko'ra, Cho'lpon ijodini o'rganish va rus tiliga tarjima qilish shoirning o'zi yashagan zamondayoq boshlangan (Lidiya Sotserdoviyatsova tarjima qilishga uringan), lekin qatag'on davrida bu ishni amalga oshirish aql bovar qilmas hodisa edi.

To'plamga Cho'lponning 100ga yaqin she'rlari, “Kecha va kunduz” romani, “Yorqinoy” dramasi kiritilgan.

Cho'lponning 2020-yilda Nikolay Ilin tomonidan 50 yaqin she'rlari tarjima qilinib, “Mgnoveniya lyubvi” (“Sevgi lahzalari”) nomi bilan “Mashhur-press” nashriyotida chop etildi. To'plamdan shoirning “Xalq”(“Narod”), “Kurash” (“Bo'g'ba”), “Binafsha” (“Fialka”), “Go'zal” (“Prekrasnaya”), “Qalandar ishqi” (“Lyubov' kalandara”) kabi mashhur she'rlari joy olgan.

¹⁵⁶ “Шарқ юлдузи” журнали, Мирзаева З., 2010 йил, 1-сон, 146-бет.

Tarjima san'ati haqida Ulug'bek Hamdamning "...to'g'ri va baland tarjima asliyat ruhini saqlab qola olgan tarjimadir,"¹⁵⁷ - deya bildirgan fikri e'tiborga molik.

Cho'lpon she'rlarini tarjima qilishga kirishgan har qanday tarjimon shoirning "Go'zal" she'riga befarq qaramagan. Mazkur she'rining ruschaga o'girilgan 2 xil varianti bor. Tarjimalardagi uslubning o'ziga xosligi, birining ikkinchisiga o'xshamasligi, bir tomondan, ularning tarjima sohasida individual tarjima uslubiga ega ekanligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan Cho'lpon she'rining ikki xil ko'rinishda o'girilishi shoirning lirik kechinmasini, ruhiy holatini, ichki dunyosini, qalbida alangalangan ehtirosini yanada teranroq anglash imkonini beradi.

Har ikkala tarjimon she'rning asosiy mazmunini saqlagan. Satrlardagi mohiyatni o'z mahorati, tushunchasiga mos o'girgan va har qaysi tarjimada o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Lekin misralarga yukla-tilgan ma'noni ta'sirchan ifodalash maqsadida, tanlangan so'z ekvivalentlari, ulardagi mazmunning yoritilish doirasi va badiiy estetik ta'siri, obrazli tabiati, eng muhimi, badiiy bo'yoqdorligi, asliyatdagi ma'noni to'liq berish, she'rdagi shakl va mazmun birligini saqlab qolishga intilish tarjimalar o'rtasidagi umumiylik bilan birga, muayyan farqni yuzaga keltirgan. Fikrimiz isboti uchun she'rning tarjimasini qiyoslab ko'raylik:

Bahodir Ahmedov tomonidan tarjima qilingan mazkur she'r nomi "Красавица" deya o'girilgan bo'lsa, Nikolay Ilin she'rni "Прекрасная" deb nomlagan. Aslida rus tilida *красавица* va *прекрасная* so'zlari sinonim hisoblanadi, faqat *прекрасная* so'zi obrazlilik bilan *krasavitsa* so'zidan farqlanadi.

She'rning dastlabki bandini ko'rib chiqaylik:

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen,
Ul yulduz uyalib, boshini bukub,
Aytadir: men uni tushda ko'ramen.
Tushimda ko'ramen — shunchalar go'zal,
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!¹⁵⁸

¹⁵⁷ Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. -T.: "Akademnashr", 2020, 86-bet.

¹⁵⁸ Чўлпон. Танланган асарлар. 4 томлик. 1-том.: -T.: "Akademnashr", 2016, 31-бет

В час полночный, свой взор к небесам устремив,
У ярчайшей из звезд я спрошу о тебе.
И ответит, и взгляд ее будет стыдлив:
“Я красавицу видела только во сне.
И завидуют звезды, и день, и луна
Красоте ее – вот как прекрасна она!”¹⁵⁹

Мой взгляд в темноте к небесам устремив,
У чудной звезды я спросил про тебя.
Она, от смущенья глаза опустив,
Сказала: “Во сне так прекрасна она,
Прекрасней, чем звезды, светлей чем луна!..”¹⁶⁰

Birinchi misradagi *eng yorug' yulduz birikmasi* B.Ahmedov tarjimasida *yarchayshey iz zvezd*, N.Ilin tarjimasida *chudnaya zvezda* deya tarannum etilgan. Har ikki holda ham mazkur birikma rus tilida chiroyli tasvirlangan. *Uyalib* so'zi B.Ahmedov tarjimasida *стыдлив*, N.Ilin tarjimasida *смущенья* tarzida o'girilishi ham she'r mazmunini to'liq ochib berishga xizmat qilgan.

Bandning oxirgi ikki misrasi bayon etilgan fikrni o'ziga xos xulosalaydi – naqorat ko'rinishini oladi.

Tushimda ko'ramen — shunchalar go'zal,
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal! – misralari B.Ahmedov tarjimasida “*завидуют звезды, и день, и луна*” tarzida o'girilgan bo'lsa, N.Ilin tarjimasida “*Прекрасней, чем звезды, светлей чем луна!..*” tarzida o'girilib o'ziga xos jozibadorlik kasb etgan.

Cho'lponning aruz vaznida yozgan “Qalandar ishqi” she'ri ham tarjimonlar diqqatni o'ziga tortishi tabiiy. She'r kitobxonga shoirning muhabbat iztiroblarini ipga tergan kabi bayon etishi bilan qadrli. Zamira Eshonova asarni eski shakl bilan yangi ruhda yozilgan she'r, oshiq qalbning favqulodda tiniq suvrati, adashish va aldanish qo'shig'i¹⁶¹ deya e'tirofida naqadar haqli. Aruzda yozilgan

¹⁵⁹ Чулпан. Мгновения любви. Составитель и переводчик Н.Ильин. –Т.: “Mashhurpress”, 2020, с.28

¹⁶⁰ «Звезда Востока», Чулпан. Стихи.Перевод с узбекского Б.Ахмедова, №4, апрель 1993

¹⁶¹ Жаҳон адабиёти, Эшонова З. Ҳақ йўли, албатта, бир ўтилғуси... 1997 й., 1-сон, 161-бет.

she'r barmoq vaznida yozilgan she'rga nisbatan tarjimada ancha murakkablik tug'diradi. Chunki vazn talabining o'ziyoq she'r mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Buni o'zga tilga tarjima qilishda hisobga olishning esa sira iloji yo'q. She'rning dastlabki tarjimasi Bahodir Ahmedov tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, "Песня странника" deya nomlangan. Rus tilidagi *странник* so'zi qalandar so'zidagi lug'aviy mazmuni anglata olmaydi. Balki shuning uchun ham Nikolay Ilin tomonidan tarjima qilingan variantida tarjimon asliyatga yaqinroq bo'lishga intilgan va she'r nomi aynan tarjima qilingan ("Lyubov' kalandara").

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku,
Asrlik tosh yanglig' bu xatarli yo'lda qotdim-ku.

Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik to'lqini bordir,
Halokat bo'lg'usin bilmay qulochni katta otdim-ku¹⁶².

Дворец любви был так просторен, что потерял дорогу я.
И словно камень вековечный, душа застыла в нем моя.
И в море легкого кокетства, на волнах нежности качаясь,
Я о несчастиях грядущих не думал, не подозревал.¹⁶³

У любви дворец необъятен, в нем дорогу я потерял,
И застыв на пути опасном, я как будто бы камнем стал.

Мне открылись моря кокетства и обилье капризных волн,
Но того, что здесь ждет гибель, в своей дерзости я не знал.¹⁶⁴

Ko'rinib turibdiki, ikkala tarjima ham tahsinga sazovor. B.Ahmedov tarjimasida ikkinchi misradagi *xatarli yo'l* so'z birikmasi birgina *дорога* (yo'l) deya o'girilgan bo'lsa, N.Ilin tarjimasida *путь опасный* deya ushbu so'z birikmasini saqlab qolishga erishilgan. Lekin *asrlik tosh* birikmasini N.Ilin birgina *камень* (tosh) deb tarjima qilsa, B.Ahmedovning *камень вековечный* deya tarjima

¹⁶² Чўлпон. Танланган асарлар. 4 томлик. 1-том.: -Т.: "Akademnashr", 2016 - 60-бет.

¹⁶³ «Звезда Востока», Чулпан. Стихи. Перевод с узбекского Б.Ахмедова, №4, апрель 1993.

¹⁶⁴ Чулпан. Мгновения любви. Составитель и переводчик Н.Ильин. -Т.: "Mashhur-press", 2020, с.46.

qilishi aniqlikni ta'minlangan. Ikkala holda ham bittadan soʻzning tarjimasi qilinmaganligi rus tilida gʻazal janrida yozilgan asar tarjimasining mukammal boʻla olmasligidan dalolat beradi.

Ikkinchi baytdagi *nozlik toʻlqini* soʻz birikmasi B.Ahmedovda Ахмедовда *волны нежности* deb tarjima qilingan boʻlsa, N.Ilin tarjimasida *капризные волны* koʻrinishida oʻgirilgan. Qulochni katta otdim birikmasi ham ikkala tarjimada *на волнах нежности качаясь* (B.Ahmedov), *мне открылись* (N.Ilin) deya oʻgirilishi shoir tasvirini aynan ochib bera olmagan. Umuman olganda esa, ikkala tarjimada ham shoir izhor qilgan fikr, oshiq ahvoli tasvirini toʻliq yoritishga harakat qilingan.

Koʻrinib turibdiki, Bahodir Ahmedov oʻz tarjimasini tushunarli va sodda tilda berishga intilgan. “Badiiy asarni sodda, xalq tushunadigan tilda ifodalash davr adabiyotining eng muhim jihati ekanligini ham inkor etmaymiz. Lekin, nazmni nasrdan farq qildirib turadigan uslubiy vositalar, ayniqsa soʻz qudratining sheʼrdagi inʼikosi tarjimada ifoda etilmasa, badiiy fikr oʻz xususiyatini yoʻqotsa, unda sheʼrni oddiy gapdan farqi qolmaydi, joziba yoʻqoladi. Qolaversa, Choʻlpon sheʼriyatining betakrorligini taʼminlaydigan asosiy unsur, istalgan mavzuda – xoh u ijtimoiy, xoh siyosiy yoki xoh u muhabbat mavzusida boʻlsin soʻz qudrati ning cheksiz ifodasi, ruhiy ogʻriqning shoir satrlarida jonli surʼatda aks ettirilganligi bilan xarakterlanadi”¹⁶⁵.

Bahodir Ahmedov “Qalandar ishqi” sheʼridagi ohang, ritm, eng muhimi, sheʼrning asosiy badiiy vositasi hisoblanmish qofiyani tarjimada muvaffaqiyatli bera olmagan. Nikolay Пын esa sheʼrning shakl va mazmun uygʻunligini saqlab qolishga intilgan. Gʻazal janrining qofiyalanish tartibini (poteryal – stal – ne znal) koʻzdan qochirmagan.

Z.Mirzaeva taʼbiri bilan aytganda, tarjimon asar ruhiga kirib, asar magʻzini oʻziniki”ga aylantira olsagina uning oʻgirmalari muvaffaqiyatga erishadi. Nikolay Пын tarjimalari ana shunday muvaffaqiyatli tarjimalardan biridir.

Ushbu bobda koʻrib chiqilgan masalalar yuzasidan quyidagi xulosaga kelindi. Tadqiqot muammosi yuzasidan olib borgan

¹⁶⁵ “Шарқ юлдузи” журнали, Мирзаева З., 2010 йил, 1-сон, 148-бет.

izlanishlardan Cho'lpon ijodida aqliy intellektual tarbiya vatanparvarlikning tub mohiyatini tashkil etishi hamda g'oyaviy-siyosiy e'tiqod tarbiyasini o'z ichiga olishini ko'rish mumkin.

Tarixiy, adabiy-badiiy manbalardan Cho'lpon shaxsiyati va ijodi doirasida kechgan bahs-munozaralar tarixini o'rganish asosida shunday xulosaga keldikki, vatanparvarlik tarbiyasi jamiyatning yutug'ini ham, tanazzulini ham o'zida aks ettiradigan ijtimoiy-tarixiy mezondir. Ammo shunisi ham borki, badiiy adabiyotdagi tarixiy voqelik tasviri bilan real hayotdagi voqelikni aynan bir xilda tushunish chalkashlikka olib kelishi tabiiy. Negaki, tarix fani V.G.Belinskiy, I.Sulton, M.Qo'shjonov kabi adabiyotshunos olimlar ta'kidlaganidek, aniq faktlar va ularning ilmiy tahlillariga suyansa, badiiy adabiyotda tarixga, tarixiy voqelikka munosabat ifodalanadi. Shu o'rinda adabiyotshunoslar o'rtasida aksiomaga aylanib qolgan "biri isbotlaydi, ikkinchisi ko'rsatadi" tarzidagi qoidalashgan fikrni eslash o'rinlidir.

Vatanparvarlik bilan bog'liq ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning tarkibiy qismlari bo'lgan siyosiy madaniyat, axloqiy tarbiya, turli ilm-fanlarni o'rganish bilan hosil qilinadigan aqliy, intellektual tarbiyani bir-biri bilan uyg'unlashtirish yangilanayotgan pedagogik tafakkur taraqqiyotida muhim bosqichni tashkil etadi.

Adabiyot bilan pedagogika o'rtasiga ba'zilar o'ylaganidek, "Xitoy devori" qo'ymaslik kerak. Negaki, professor D.Quronov haqli ravishda ta'kidlaganidek, "tarbiyaviylik adabiyotning qon-qoniga singgan xususiyat. Adabiyot Sharqda "go'zal xulqlar" ma'nosini beruvchi "adab" so'zi bilan bejiz atalmagan. Adabiy asarlar "pandnoma" va yo "didaktik" unvonlariga ega bo'lsa-bo'lmasa, hamisha insonni tarbiya qilib kelgan va mudom shunday bo'lib qoladi"¹⁶⁶.

Cho'lpon hayoti ijodini vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha tarixiy, adabiy-badiiy manbalar asosida pedagogik nuqtai nazardan o'rganish shuni ko'rsatdiki, dialektik qonuniyatlar metodologiyasi ilm-fanning boshqa sohalari kabi pedagogika tarixi va nazariyasini ham adabiyot, tarix, falsafa, mantiq kabi fanlar bilan aloqadorlikda tadqiq qilish asosli xulosalar chiqarishga zamin yaratadi.

¹⁶⁶ Куронов Д. Муҳими – китобхонлик даражаси // "Шарқ юлдузи", 2015 йил, 1-сон.-100-бет.

XULOSA

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining adabiyot darslarida Choʻlpon ijodi misolida vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik imkoniyatlari hamda oʻquvchilarning Vatanga sodiq shaxslar sifatida shakllanishi indikatorlarini aniqlash yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Axborot-kommunikatsiya tarmogʻi jahon miqyosida jadal rivojlanayotgan globalashuv va mustaqillik sharoitida yoshlarni Vatanga muhabbat, uning istiqboli uchun kurashchanlik ruhida maʼnan va jismonan barkamol kishilar qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan hozirgi davrda yangi oʻzbek adabiyotining boshlovchilaridan Choʻlponning betakror badiiy olami va joʻshqin ijodiyoti Vatanimiz oʻtmishiga tiyrak nigoh bilan nazar tashlashga va undan tegishli xulosa chiqarish orqali istiqloq qadriga yetish hamda istiqbolga qatʼiy ishonch, bir soʻz bilan aytganda, vatanparvarlik tuygʻusini kamol toptirishda muhim manba vazifasini oʻtaydi.

2. Jahon taʼlim tizimida “vatanparvarlik” tushunchasiga milliy qadriyat sifatida qaralishi, unga mamlakat istiqboli, milliy genofondi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan yondashilishi “uzluksiz taʼlim tizimini yanada takomillashtirish, umumiy taʼlim sifatini tubdan oshirish” bilan bogʻliq davlat talablari ijrosida, xususan, taʼlim-tarbiya sifati va samaradorligini kafolatlashda boshqa ijtimoiy-gumanitar oʻquv fanlari qatorida adabiy taʼlim zimmasiga ham katta masʼuliyat yuklaydi.

3. Mustaqillik sharoitida taʼlim-tarbiya tizimini modernizatsiyalash jamiyat taraqqiyotining kontseptual asoslariga suyanishi nazarda tutilsa, Choʻlponning badiiy-estetik, maʼnaviy-axloqiy qarashlarini taʼlim-tarbiyaning milliy va umuminsoniy xususiyatlari, fanlararo aloqadorlik qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda pedagogik nuqtai nazardan oʻrganish taʼlimning pragmatik darajasini belgilaydi.

4. Oʻquvchilar ongiga tarixiy, adabiy-badiiy manbalardagi vatanparvarlik gʻoyalarini singdirishda kompyuter texnikasi, interaktiv doska, planshet kabi zamonaviy axborot kommunikatsiya

texnologiyalaridan foydalanish ta'lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.

5. Jadidchilik harakati dastlab eski maktab va madrasalarni isloh qilish, yangi maktablar ochish, ya'ni ma'rifatparvarlik xarakterida bo'lganligi, keyinchalik bu harakat tarixiy sharoit taqozosi bilan milliy-ozodlik kurashi g'oyasini ko'tarib chiqqanligi tufayli o'sha davrda shakllanayotgan yangi o'zbek adabiyotining bosh yo'nalishini ham milliy ozodlik kurashi g'oyasi tashkil qildi. Bu g'oya targ'ibotining yorqin dalili Cho'lpon ijodidir.

6. Adabiyot tarixiga nazar tashlansa, har bir ijodkorning o'zi yashayotgan davr farzandi sifatida xalq va vatan tarixining muayyan davrini qalamga olar ekan, unga o'sha davrning ma'naviy-axloqiy, intellektual munosabati nuqtai nazaridan yondashganini kuzatish mumkin. Binobarin, Cho'lpon ijodi va uning badiiy-estetik hamda pedagogik qarashlariga ham shu jihatdan yondashish tarixiy haqiqatni to'g'ri tushunishga yordam beradi.

7. Cho'lpon ijodi misolida tarixiy, adabiy-badiiy manbalarda Vatan tuyg'usining tadqiqiga oid izlanishlar shuni ko'rsatdiki, vatan va xalq taqdiri barcha zamonlarda ham adabiyotning bosh mavzusi bo'lib kelgan. Jadid adabiyoti tarixi buning yorqin dalilidir.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3901-sonli Qaroriga tegishli davlat dasturi bo'yicha har yili o'tkazish rejalashtirilgan "Men nechun sevaman O'zbekistonni" mavzusi yuzasidan ijodiy ishlar tanloviga o'quvchilar ishtirokini ta'minlashda "Cho'lpon ijodida Vatan timsoli" mavzusida insho yozishga tayyorlash muhim omil vazifasini o'taydi.

9. Cho'lponning vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'liq "Xalq", "Buzilgan o'lkaga", "Go'zal", "Binafsha" kabi talay she'rlarining adabiy-pedagogik tahlili o'quvchilarni shaxs sifatida kamol toptirish, Vatan tarixi, ajdodlar tomonidan yaratilgan ulkan ma'naviy boylikka sadoqat ruhida tarbiyalashda pragmatik va kreativlik qobiliyatlarini, autopsixologik kompetentligini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi

TAVSIYALAR

1.Vatanparvarlik tarbiyasining tarixiy genezisi va uning milliy hamda umuminsoniy qadriyat sifatida pedagogik, tarixiy-falsafiy va psixologik omillari adabiy-tarixiy manbalar asosida o'rganilsa, pedagogika tarixi fanini boyitishga xizmat qiladi.

2.Cho'lpon ijodiga oid adabiy-tarixiy manbalar pedagogika va adabiyotshunoslik fanlari integratsiyasi asosida o'rganilsa, nafaqat pedagogika tarixi, balki adabiyot tarixining milliy uyg'onish davri bo'yicha har xil qarashlarga ham oydinlik kiritiladi.

3.Cho'lponning pedagogik va badiiy-estetik qarashlarining ijtimoiy-tarixiy, adabiy-badiiy xususiyatlari o'zi yashagan davrdagi adabiy-tarixiy muhit bilan bog'liqlikda o'rganilsa, buyuk shoir fenomenining millat va jamiyat taraqqiyotidagi o'rniga bo'lgan munosabatlarni uyg'unlashtirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. –64 б. -20-29-б.

2. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури // Ўқувчи маънавиятини шакллантириш. –Т.: Шарқ, 2000. 23-б. – 297 б.

3. Umumiy o‘rta ta’limning DTS va o‘quv dasturi. –Т.: 2017. – 74 б.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 18 январдаги «Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар» фани бўйича таълим дастурини яратиш ва Республика таълим тизимига жорий этиш тўғрисида»ги ПФ–1331- сонли фармойиши. – // Г. Маърифат. – Тошкент, 20.01.2001.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида»ги ПҚ–3160- сонли қарори. – // Г. Қишлоқ ҳаёти. – Тошкент, 29.07.2017. – №90 (8797).

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 апрелдаги «Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида миллий ғояни ривожлантириш концепциясини ишлаб чиқишга доир чора-тадбирлар тўғрисида»ги Ф-5465- сон фармойиши.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni – “ICTWEEK Uzbekistan – 2016” axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haftaligi.// Халқ сўзи. – 2016- yil 20-sentabr.

8. Мирзиёев Ш.М. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ – 4947- сонли Фармони // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. – Т.: Гафур Гулом, 2017. – 92 б.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш

тўғрисидаги ПФ – 5712- сонли Фармони. ҚХММБ: 0619/5712/3034-сон, 29 04.2019 й.

10.Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.– Т.: Маънавият нашриёти, 2008. – 174 б.

11.Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга эътибор. –Т.: Ўзбекистон нашриёти, 2009. – 40 б.

12.Мирзиёев Ш.М. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.– Т.: Ўзбекистон, 2017.– 48 б.

13. Мирзиёев Ш.М. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 48 б.

14. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. –Т.: Ўзбекистон, 2017.– 102 б.

15.Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.

16.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 15 июнь куни Тошкент шаҳрида «Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби» мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи. <http://uza.uz/oz/politics/vatanimiz-ta-diri-va-kelazhagi-y-lida-yanada-amzhi-at-b-lib--15-06-2017>.

17.Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. 2017 йил 3 август куни мамлакатимиз ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувда сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2017 йил, 4 август.

18.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 25 январдаги Олий Мажлисга

Мурожаатномаси. [http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat - mirziyeevning-oliy-25-01-2020.](http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020)

Монография, илмий мақола, патент, илмий тўпламлар

19. Жабборова Д. Чўлпоншунослик. Монография. – Т.: Muharrir nashriyoti, 2019. – 192 б.

20. Мирзаева З. XX аср ўзбек адабиётининг Америкада ўрганилиши. II китоб. Монография. – Т.: Akademnashr, 2017. – 232 б.

21. Ҳожиёва Ш. Чўлпон ва миллий шеърининг янгилиниши. Монография. – Т.: “Muharrir nashriyoti”, 2019. – 152 б.

22. Абдусаматов Ҳ. Чўлпон – театршунос. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2010. 5 ноябрь.

23. Авазов Н. Туркистонда ҳақ олинмади, берилди. // Ёшлик. 1991. – №10. – 38-б.

24. Азимова Ҳ. Миллий ғоя – жадид драматургиясининг асоси. // Тафаккур. – 2000. – №2.

25. Абдуллаев О. Барибир ҳақиқат қолади // Жаҳон адабиёти. – 1998. – № 1 – 32-35- б.

26. Акрамов Б. Чўлпон чиндан мураккабми? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1990 йил 13 июль.

27. Акрам Б. Ҳурликнинг мужассам тимсоли (Чўлпон шеърининг хусусида) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1995 йил 1 сентябрь.

28. Акрам Б. Шоирнинг муқаддас армони (Чўлпоннинг "Бузилган ўлкага" шеърининг таҳлили) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1993 йил 2 апрель.

29. Алиев А. Маданий инқилоб ва зиёлилар тақдири (Адабиётшунос А.Қодирий, М.Бехбудий, Чўлпон, Фитрат, Ғози Юнус ҳақида ёзилган мақолалар хусусида) // Мулоқот. – 1991. – №10. 22-б.

30. Афоқова Н. Жадид шеърининг поэтикаси // Педагогик маҳорат. – 2005. – №2.

31. Аҳмадов С. Сайёҳ дарвеш Чўлпон экан // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2007 йил 23 февраль.

32.Ахмедов Б. Тонг қоронғусида: Чўлпоннинг "Кеча ва кундуз" романи ҳақида тарихчи олимларнинг айрим қайдлари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1998 йил 25 ноябрь.

33.Ахмад Шукрий. Чўлпон – Чўлпондир // Кўмак. Берлин, 1923, № 1, 19-20 б.

34.Балдауф И. Тавфиқ Фикрат ва Чўлпон / Немис тилидан Р.Абдуллаева тарж. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1998 йил 3 октябрь.

35.Баракаев Р.Ҳар миллатнинг тараққийси илм ила...(XX аср бошлари ўзбек болалар адабиётида она Ватан мавзуси) // Соғлом авлод учун. – 2004. – № 6.

36. Болтабоев Ҳ. Эркесвар халқнинг эркисизлиги // Мумтоз сўз кадри. – Т.: Адолат. – 2004.

37. Давлатова А. Жадид адабиётида эстетик идеал талқини // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2008. – №3.–57-59-б.

38.Дўстқораев Б. Томирларнинг қони, жонларнинг жонони Ватан ёхуд жадидлар мафқурасига чизгилар // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1998 йил 4 сентябрь.

39.Дўстқораев Б. Чўлпон ва танқид // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2005 йил 25 ноябрь.

40.Дўстқораев Б. Сийнани санага алмаштириб бўлмайдими ёхуд чўлпоншуносликнинг долзарб масаласи (Чўлпоншунослик) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2004 йил 6 август.

41.Ёрмуҳаммад А. Бошимни "у" учун дорга қўяман... (Чўлпон ижоди хусусида) // Гулистон. – 2000. – №4. –43-б.

42. Жалилов М. Шоир жасорати // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –1997 йил 25 июль.

43. Жўраев Ё. Шеърини асар таҳлилида тадқиқот методидан фойдаланиш. // “Узлуксиз таълим”. – 2010. – № 5 – 66- б.

44. Каримов Н. Маслаги – обрўйи ватан ва миллат эди (жадидлар ҳақида) // Тафаккур. 2009 йил №2 – 52–57- б.

45.Қаршибоев М. Муҳит эркидаги тутқунлик (Шоир Чўлпон ҳақида). // Шарқ юлдузи. – 1990. – №10 –195-204- б.

46.Қодиров П. Ёлғиз бир ўчиб, яна ёниш бор // Гулистон. 2001. –№1. –24- б.

47.Қосимов Б. Излай-излай топганим // Адабиёт ва санъат. – 1983.– 180-207- б.

48.Қуроноф Д. Тўлқинлар қирғоққа урилганда...(А.Чўлпон таваллудининг 100 йиллигига) // Мулоқот. – 1997. – №6.

49.“Чўлпон ва танқид” тўплами. – Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси “Адабиёт жамғармаси” нашриёти, 2004

50.Шевурдин М. Ўзбек йўқсул илк катта асари // Правда Востока. – 1931, 24-25 март сонлари.

Фойдаланилган бошқа адабиётлар

51. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. – Т.: Янги аср авлоди, 2015. –352 б.

52. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. – Т.:Маънавият, 2000. – 208 б.

53. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар.1-жилд.–Т.: Маънавият, 2000. – 256 б.

54.Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 3 жилд. – Т.: Маънавият, 2003. – 256 б.

55.Абдурауф Фитрат. Нажот йўли. – Т.: Маънавият, 2003. – 256 б.

56. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik. / Q. Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov/ – Т.: “Sharq”, 2017. – 368 б.

57.Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. 1-qism./ В.То'хлиев, В. Karimov, К. Usmonova. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. 200 б.

58.Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. 2-qism. / В.То'хлиев, В. Karimov, К. Usmonova. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018. 200 б.

59.Авлоний А. Танланган асарлар. – Т.: “Маънавият”, 1998. – 303 б.

60.Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Чўлпон, 1994. – 182 б.

61.Алиев А. Истиклол ва адабий мерос. –Т.: Ўзбекистон, 1997. – 272 б.

62.Алиев А. Маънавият, қадрият ва бадиият. - Т.: Академия, 2000. –

63.Белинский В.Г. Собр.соч. в трёх томах, том 2. –Москва : 1948, с.158.

64.Боқий Н. Қатлнома – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – 208 б.

65.Бобоев Ҳ., Ғофуров З. Ўзбекистонда сиёсий ва маънавий-маърифий таълимотлар тараққиёти. – Т.: Янги аср авлоди, 2001. – 480 б.

66.Вахобов М. Ўзбек социалистик миллати. – Т.: 1960. – 306-бет.

67.Ёқубов Ҳ. Чўлпон ва Навоий. – Т.: Шарқ, 1997. – 48 б.

68.Жуманазаров У. Жасорат ва садоқат талқини. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 128 б.

69.Закий Валидий. Тўғон. Хотиралар. 1993. 5-6 сонлар. Нашрга тайёрловчи Ш.Турдиев.

70.Зиёмуҳаммедов Б., Абдуллаева Ш. Илғор педагогик технология: назария ва амалиёт / “Маънавият асослари” дарси асосида ишланган услуб. қўлл. – Т.: Абу Али ибн Сино, 2001. – 80 б.

71.Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар, – Т.: “Шарқ”, 1998. – 94 бет.

72.Иномова М. Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятлардан фойдаланишнинг педагогик асослари (мустақил ҳаёт бўсағасидаги ёшлар): пед.фан.докт. ... дис-яси. – Т.: ТДПИ, 1998. – 303 б.

73.Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: “Фан” нашриёти, 1983.– б.

74.Йўлдошбеков С.С. Чўлпоннинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти: Фил.фан.номз...дисс. – Т.: 2002.

75.Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати ("Кеча ва кундуз романи мисолида"): Фил.фан.номз...дисс. – Т.: 2000.

76.Йўлдошев Ж. Ғ. Ўзбекистон Республикаси таълими – тараққиёт йўлида. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 98 б.

77.Каримов Б. XX аср ўзбек адабиётшунослигида талқин муаммоси: Фил.фан.номз...дисс.– Т.: 2002.

78.Каримов Ҳ. Истиклол даври адабиёти – Т.: Янги нашр, 2010. – 362 б.

79.Мамажонов С. Бизнинг Чўлпон. – Т.: Ёзувчи нашриёти, 1997. – 64 б.

80.Маҳкамов У. Ахлоқ-одоб сабоқлари. – Т.: ЎзР ФА Фан, 1994. – 134 б.

81.Маҳкамов У. Ўқувчиларни ахлоқий маданиятини шакллантириш муаммолари. – Т.: Фан, 1995. – 200 б.

82.Маҳкамов У. Юқори синф ўқувчиларида ахлоқий маданиятни шакллантиришнинг педагогик асослари: пед.фан.докт. ... дис-яси. – Т.: ХТХМОМИ, 1998. – 286 б.

83.Маҳмудов Ғ. Жадид адабиётида миллий истиқлол мавзуи. – Т.: Ўзбекистон нашриёти, 1999. –112 б.

84.Маҳмудхўжа Беҳбудий.Танланган асарлар. – Т.: “Маънавият”, 1999. – 280 б.

85.Миён Бузрук Солиҳов. Ўзбек адабиётида миллатчилик кўринишлари. – Т.: 1933, 59-бет.

86.Миллий уйғониш даври адабиёти. / Қосимов. Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Ахмедов С. – Т.: “Маънавият”, 2004. –296 б.

87.Мирзаева З. XX аср ўзбек адабиётининг хорижий тадқиқотчилари. – Т.: Mumtoz so'z, 2016. – 127 б.

88.Мирҳайдаров Ҳ. Тафаккур гавҳари. – Хўжанд: Нури маърифат, 2006. – 276 б.

89.Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: пед.фан.докт. ... дис-яси. – Т.: ТДПИ, 1993. – 364 б.

90.Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 192 б.

91.Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 200 б.

92.Мухаммад Али. Адабий соғинчлар – Т.: Адабиёт жамғармаси, 2005. – 216 б.

93.Нишонова С. Шарқ уйғониш даври педагогик фикр тараққиётида баркамол инсон тарбияси: пед.фан.докт. ... дис-яси. – Т.: ТДПУ, 1998. – 288 б.

94.Нишонова С. Эзгулик йўли. – Т.: Маънавият, 2001. – 79 б.

95.Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – Т.: Istiqlol, 2003. – 224 б.

96.Очилов С., Хошимов К. Ўзбек педагогикаси антологияси. 2-жилд. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 480 б.

97.Очилов С. Мустақиллик ва тарбия масалалари. – Т.: Ўзбекистон, 1995. – 47 б.

98.Педагогика. Энциклопедия, 2 жилдлик, 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2015. – 318 б.

99.Педагогика. Энциклопедия, 3 жилдлик, 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2015. – 376 б.

100. Педагогика. Энциклопедия, 3 жилдлик, 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – 421 б.

101. Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1979.

102. Раҳмат Мажидий. Истеъдод ва бурч. – Т.: 1974.

103. Раҳмонов Н. Р. Кўҳна битиктошлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.– 110 б.

104. Ризаев Ш. Жаид драмаси. – Т.: “Шарқ”, 1997 – 320 б.

100. Рўзимухаммад Б. Чўлпон – тонг юлдузи демак...(Чўлпоннинг педагогик карашлари) – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 72 б.

101. Саъдий А. Амалий ҳам назарий адабиёт дарслиги. – Т.: 1925.

102. Саъдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. –Т.: Ўқитувчи,1996. – 112 б.

103. Сидқий Хондалиқий. Танланган асарлар. –Т.: “Маънавият”, 1998. – 142 б.

104. Sulstonov X., Qarshiboyev M. Vatan tuyg’usi. 5-sinf uchun o’quv qo’llanma. – Т.: “Ma’naviyat”, 1015. –112 б.

105. Sulstonov X., Qarshiboyev M. Vatan tuyg’usi. 6-sinf uchun o’quv qo’llanma. – Т.: “Ma’naviyat”, 1015. –120 б.

106. Тавалло. Равнакул ислом. – Т.: Фан, 1993. – 98 б.

107. Туленов Ж. Маънавий юксалиш сари. – Т.: Меҳнат, 2000. – 192 б.

108. Туленов Ж., Юсупов К., Ғафуров З. Истиқлол ва тараққиёт мафкураси: мақсад ва йўналишлари. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – 48 б.

109. Туленов Ж., Ғафуров З. Мустақиллик ва миллий тикланиш. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 253 б.

110. Туркистон Чор Россияси муштамлакачилиги даврида.- Тошкент. “Шарк”, 2000, 255 б.

111. Тўраева О. Ҳаёт сабоқлари – Т.: Ўзбекистон, 2005. – 134 б.

112. Фалсафа асослари. Тузувчи ва масъул муҳаррир Назаров Қ. – Т.: Ўзбекистон, 2005. – 384 б.

113. Философия луғати. – Т.: Ўзбекистон. 1976. – 640 б.

114. Чориев А. Педагогиканинг фанлараро алоқаси ва бадиий адабиёт билан ўзаро боғлиқлик қонуниятлари: (Кадрлар тайёрлаш миллий моделида фан компоненти асосида): Пед.фан. док. ...дисс. – Қарши, 2003. – 318 б.

115. Чориев А., Чориев И. Педагогиканинг методологик асоси ва илмий тадқиқот методлари – Т.: “Nishon noshir”. 2016. –407 б.

116. Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд.– Т.: Академнашр, 2016.–368б.

117. Чўлпон. Асарлар. 4жилдлик. 2-жилд.– Т.: Академнашр, 2016.– 376б.

118. Чўлпон. Асарлар. 4жилдлик. 3-жилд.– Т.: Академнашр, 2016.– 544б.

119. Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 4-жилд.– Т.: Академнашр, 2016.– 320.

120. Чўлпон ижоди ва замонавий адабий жараён. Конференция материаллари. Алишер Навоий номидаги ТошДУТАУ, 2018. – 325 б.

121. Чўлпон. Кеча ва кундуз. – Т.: “Nilol media”, 2019. –302 б.

122. Чудний В.С. Система военно-патриотического воспитания учащихся старших классов во внеклассной и внешкольной работе. Дис. ...канд.пед.наук. М., 1968. – 355 с.

123. Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. – Т.: “Ёзувчи”, 1994.

124. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Т.:

Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – 448 б.

125. Юнусов М. Традиция ва новаторлик проблемаси. – Т.: 1965. –225 б.

126. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, I жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680 б.

127. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, III жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 688 б.

128. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, IV жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 608 б.

129. Ўзбек фалсафаси тарихи. 3 жилдлик, III жилд. – Т.: “Muharrir nashriyoti”, 2020. – 504 б.

130. Қахрамонов Қ. Адабий танқид: янгиланиш жараёнлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 184 б.

131. Қиличева К. Талабаларнинг маънавий-ахлоқий камолотида тасаввуф илми ғояларидан фойдаланиш ва баркамол инсон тарбияси – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2009. – 234 б.

132. Қодиров Б. Комил инсон тарбиясининг педагогик асослари. – Т.: Меҳнат, 2001. – 195 б.

133. Қосимов Б., Долимов У., Ахмедов С., Ризаев Ш., Мелиқулов Ж. Ватан ва миллат муқаддасдир. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 103 б.

134. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик. – Т.: Маънавият, 2002. – 400 б.

135. Қулжонов А. Фитрат дунёси. – Гулистон: Зиё, 2007. – 240 б.

136. Қурбонов Ш., Сейтхалилов Э. ва бошқалар. Миллий истиқлол ғоясини шакллантиришда ташкилий-услубий ёндашувлар. (Кадрлар тайёрлаш миллий дастури вазифалари доирасида). – Т.: Академия, 2002. – 280 б.

137. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: “Шарқ”, 2004. – 359 б.

138. Қуронов М., Акмалов А., Реджабоев А. Миллий фазилатларимиз: Ватанни қандай севиш керак? – Т.: Авлоний номидаги ЧФ Nikon нашриёти, 2002. – 206 б.

139. Ғозиев Э. Психология. Ёш даврлари психологияси / пед. унив. талабалари учун ўқув кўлл. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 223 б.

140. Ҳасанбоев Ж., Ҳасанбоева О., Туропова М. Маънавий-ахлоқий тарбия асослари. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. –112 б.

141. Баграмов Е.А. Национальная проблематика: в поисках новых концептуальных подходов: Монография. - М. : МПГУ, 2016. – 320 с.

142. М.С.Джунусов, Методологическое введение к изучению социально-политических и межнациональных конфликтов / АН СССР, Ин-т социологии. – М.: Ин-т социологии, 1991. – 68 с.

143. Сухомлинский В.А. Родина в сердце. – М.: Молодая гвардия, 1980. – с.175.

144. Бублик Л.А. Военно-патриотическое воспитание советской молодёжи: теория, система, опыт. Учебное пособие. – М. : ВПА социологии, 1976. – 135 с.

145. Герасимов В.Н. Развитие первичной педагогической теории и практики в Вооруженных силах России. Дис. ... канд.пед.наук. М., 1996. – 494 с.

146. Рыков С.Л. Социально-педагогические основы повышения эффективности использования средств массовой информации в воспитании военнослужащих полка. Дис. ...канд.пед.наук.М., 1994.– 226 с.

Cho‘lpon o‘zining ijtimoiy-siyosiy, adabiy-estetik qarashlaridagi evrilishlari xususida

Cho‘lpon 1932-yil 27-mayda KP(b) Markazqo‘mning O‘rta Osiyo byurosi kotibi Baumanga yozgan “Bayonnoma”sida o‘zining ijtimoiy-siyosiy, adabiy-estetik qarashlaridagi evrilishlar xususida quyidagilarni yozadi: “Agar o‘sha davrdagi (o‘tgan asrning 20-yillari nazarda tutilyapti –U.Sh), ya’ni bosmachilarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha xilma-xil tashkilotlar tuzilgan va shunga o‘xshash she’rlar to‘qilgan mahaldagi omillarni haqqoniy yoritishga erishilsa, unda aksincha, men o‘sha mahalda aynan bosmachilikka qarama-qarshi tomonda turganligim fakti ayon bo‘ladi (mening Toshkentda o‘zbek tilida chiqqan “Rosta” gazetidagi ishim va bundan tashqari, tirik guvohlar Risqulov, Nizomiddin Xo‘jaev, Moisey Sviling, Xirisanov-Sermyajniy, To‘raqulov Nazir va boshqa o‘rtoqlar)”. 1917-yilda, hali o‘zbeklardan biron kishi ishchilar harakati nima demak ekanini, burjua emas, ishchilar inqilobi nima demak ekanini bilmagan bir chog‘da mening she’rlarimning birida (“Yurt” jurnali) mana bunday satrlar uchraydir: “Qizil bayroq – qip-qizil bayroq qon, bu qon – ishchilar qoni!”

Cho‘lpon, 1932 27/V

Maskav, 411 grajdanskaya 101, 1-xona

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TARIXIY, ADABIY-BADIIY MANBALAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI.....	6
1.1-§. Tarixiy, adabiy-badiiy manbalarda vatanparvarlik tarbiyasi – pedagogik muammo sifatida.....	6
1.2-§. XX asr boshlarida ijtimoiy muhit va vatanparvarlik tarbiyasining shakllanishi.....	19
II BOB. VATANPARVARLIK TARBIYASIDA CHO'LPON IJODIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	40
2.1-§. Cho'lpon she'riyatida Vatan timsolining badiiy-estetik talqini va uning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati.....	40
2.2-§. Cho'lponning adabiy-estetik va pedagogik qarashlarida kurashchanlik motivlaridan foydalanishning pedagogik xususiyatlari.....	61
III BOB. CHO'LPON IJODI VA MUSTAQIL MUTOLAA MADANIYATI.....	85
3.1-§. Umumta'lim maktablarida Cho'lpon ijodining adabiy-pedagogik jihatdan o'rganilishi.....	85
3.2-§. Cho'lpon dramalarida hayot haqiqati talqini.....	105
3.3-§. Cho'lpon she'riyati tarjimalarining qiyosiy tahlili.....	109
XULOSA.....	116
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	119
ILOVA.....	130

Shermatova Umida Sapayevna

**TARIXIY, ADABIY-BADIIY
MANBALARDA VATAN TIMSOLI**

Monografiya

“Nodirabegim” nashriyoti

Nashriyot litsenziyasi AI № 313. 24.11.2017 y.

Bosishga ruxsat etildi: 9.12.2021.

“Times New Roman” garniturasida. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 8,25. Adadi 150 nusxa.

100129, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,

Navoiy kochasi, 30-uy.

OOO “AKTIV PRINT” bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.